

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
«Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes» kafedrası**

MAKROIQTISODIY TAHLIL VA PROGNOZLASH
fanidan

**O‘QUV – USLUBIY
MAJMUA**

Bilim sohasi:	300000-Ijtimoyi fanlar, jurnalistika va axborot 400000 - Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	310000 – Ijtimoyi va xulq va mansub fanlar 410000 - Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo`nalishi:	60310100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va cohalar bo`iycha) 60310400-Iqtisodiy xavfsizlik 60411700-Logistika (yo'nalishlar bo'yicha) 60411300-Biznesni boshqarish 60412200 – Moliya sohasida boshqaruv

Ushbu o'quv uslubiy majmua "**Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash**" fanidan ishlab chiqiyilgan o'quv dasturi asosida tayyorlangan hamda Namangan davlat universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil "____"avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

R.M.Axmedov

NamDU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

K.Sirojiddinov

NamDU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes"
kafedrası i.f.n., dots

D.Boymirzayev

NamDU "Menejment" kafedrası muduri, (PhD),. dots

Fanning o'quv uslubiy majmuasi "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası kafedraning 2024yil ____ avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tkazilgan va fakultet kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

B.Urinov

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Iqtisodiyot fakultetining kengashining 2024 yil ____ avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tkazilgan va universitet kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Fakultet dekani:

N.Narzullayev

O'QUV-USLUBIY MAJMUANING TARKIBIY TUZILISHI

MUNDARIJA

1. O'quv materiallar..... bet
- ma'ruza mavzulari bo'yicha..... betlar
- amaliy mavzulari bo'yicha..... betlar
2. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....betlar
3. Kurs ishlarini tashkil etish bo'yicha.....betlar
4. Glossariy.....betlar
5. Ilovalar:
 - fan dasturi..... betlar
 - ishchi fan dasturi..... betlar
 - tarqatma materiallar.....betlar
 - testlar.....betlar
 - baholash mezonlari.....betlar

KIRISH

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fani bo‘yicha mazkur o‘quv-uslubiy majmuada shu fanning ishchi o‘quv dasturi bo‘yicha barcha mavzular yoritilgan. Unda ushbu fanning prospekti, mavzular bo‘yicha matn annotatsiyalari va ular bo‘yicha oxirgi yangiliklar, fan bo‘yicha testlar, fanga doir video ma‘ruzalar va video roliklar, talabaning semestr davomidagi mustaqil ishiga oid toshiriqlar, glossariylar hamda tavsiya etiladigan elektron jurnallar va internet saytlar bayon qilingan.

Shuningdek, majmuar mazkur fan bo‘yicha ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlarda va mustaqil ta‘lim jarayonida talabalar tomonidan bajariladigan keys-stadi, o‘quv loyiha, muammoli vaziyatlar, testlar hamda har bir mavzu bo‘yicha qisqacha nazariy materiallarni o‘z ichiga olgan.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmuaning maqsadi talabalar o‘quv mashg‘ulotlarida va ulardan so‘ng mavzularni mustaqil ravishda chuqur o‘zlashtirishiga uslubiy ko‘maklashish orqali, ularning amaliy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini yanada oshirishdan iborat.


MAVZU-1. MAKROIQTISODIY TAHLIL VA PROGNOZLASH FANINING MAZMUNI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari
2. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash fanining mazmuni, predmeti, maqsadi va vazifalari
3. Makroiqtisodiy tahlil va MHTning roli
4. Makroiqtisodiy tahlildan foydalanish sohalari

1.1. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lini tanlab, uni izchil amalga oshirishi natijasida, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi boshqa ko‘plab mamlakatlardan farqli ravishda, ishlab chiqarish va aholi turmush darajasining keskin pasayib, davlatning ichki va tashqi qarzlari haddan ziyod oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka erishdi. 1991–1995 yillarda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning pasayishi, MDH davlatlari o‘rtasida eng kam ko‘rsatkichni – 18,8 foizni tashkil etdi. Holbuki, bu raqam Rossiyada – 53 foiz, Ukrainada – 52 foiz, Belarusda – 54,6 foiz, Qozog‘istonda esa 75,4 foizga teng bo‘ldi.




1.1-rasm. O‘zbekiston iqtisodiy o‘shish sur‘atlari, foizda

O'zbekiston iqtisodiyoti 2000-2003 yillar davomida yiliga 3,8–4,2 foiz o'sish darajasida o'rtacha sur'atlar bilan rivojlandi. Qulay ishchan muhit yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarining natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004 yildan e'tiboran yiliga 7–9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qila boshladi.

Jahon iqtisodiyotida saqlanib qolayotgan murakkab vaziyat va dunyo bozorlarida yuzaga kelgan noqulay kon'yunkturaga qaramasdan, mamlakatimiz iqtisodiyoti so'nggi yillarda ham yuqori sur'atlarda o'sishda davom etdi. Xususan, 2015 yil yakuni bo'yicha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmining real o'sishi 2014 yilga nisbatan 8 foizni, 2016 yil yakuni 2015 yilga nisbatan 7,8 foizni tashkil etdi (1.1-rasm).

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasi qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institutsional o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda mineral xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha umumiy qiymati qariyb 40 mlrd. dollarga teng bo'lgan 649 ta investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi tarmoq dasturlarini o'z vaqtida amalga oshirish belgilanmoqda (1.2-rasm).



1.2-rasm. Mineral-xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash amalga oshirish yo'nalishlari

Xususan, 2017 yilda umumiy qiymati 1,0 mlrd dollarga teng 145 ta ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirish, jumladan meva-sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash sohasida qiymati 147,0 mln.dollarga teng 63 ta loyiha;

metallarni chuqur qayta ishlash bo'yicha qiymati 217 mln.dollarga teng 6 ta loyiha, kimyoviy ashyolarni chuqur qayta ishlash bo'yicha 25,0 mln. dollarlik 2 ta loyiha, uglevodorod xom ashyolarini qayta ishlashni chuqurlashtirish bo'yicha 342 mln.dollarlik 6 ta loyiha, tayyor charm poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha 6 mln.dollarlik 9 ta loyiha, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirishga yo'naltirilgan 24 mln. dollar qiymatga teng 7 ta loyiha, qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish bo'ytcha 151 mln.dollarlik 29 ta loyiha, tayyor to'qimachilik va tikuv trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha 178 mln.dollarlik 15 loyihani amalga oshirish nazarda tutilmoqda.


2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida hududlarni kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish yo'nalishi muhim o'rin tutadi (1.3-rasm). Bunda:

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan Nurota, Kattaqo'rg'on, Qo'shrabot, Qiziriq, Muzrabot, Boyovut, Sardoba tumanlarini kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Toshkent shahrining Yashnobod va Olmazor tumanlarida kichik biznesning inoovatsion texnoparklarini tashkil etish;

Kichik sanoat zonalarini tashkil etish;

Ishsizlik darajasi yuqori hududlarda yangi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish:



1.3-rasm. Tarmoq va sohalar bo'yicha ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda amalga oshiriladigan loyihalar

Mazkur loyihalarining to'lig'icha va izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida ishsizlik yuqori bo'lgan hududlarda bandlik darajasi ko'tariladi, hududning salohiyati ortadi.

1.2. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash fanining mazmuni, predmeti, maqsadi va vazifalari

Iqtisodiy tahlilning predmeti bir-biri bilan u yoki bu aloqada, doimiy harakat va rivojlanishda bo'lgan predmetlar va hodisalarning to'plamidan iborat bo'lgan tadqiqotchilikdir. Bu aloqalar xilma-xildir va qismni butunicha hamda aksincha munosabatlarda, tengliklar va tengsizliklarda, aniq yoki noaniq o'zaro bo'ysunuvchilikda, bir-birini taqozo qilishda va o'zaro

bog'liqlikda o'z aksini topadi. Birining holatining o'zgarib ikkinchisiga o'tishi aks etuvchi o'zaro munosabat tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy hodisalarni mantiqiy-uslubiy va gneseologik bilishdir.

Mamlakatning iqtisodiy holatini, o'tkazilayotgan joriy chora-tadbirlar zarurligini, samarasini baholashda makroiqtisodiy tahlil va prognozlash juda katta ahamiyatga ega. Tahlilning muhim vazifalaridan biri mamlakatda sodir bo'layotgan jarayonlarni modellashtirish sifatini oshirish, o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosatning natijalarini aniqlash. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash asosiy ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri bo'lib makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqliklarini aniqlab berishga yordam beradi.

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fani makroiqtisodiyot doirasida nazariy va amaliy masalalarni o'rganish va uni mo'tadil rivojlantirishning yechimlarini topishda hamda “iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishi mutaxassislarining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ushbu fanning yutuq va xulosalaridan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatlarga belgilangan dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalaniladi.

Foydali ma'lumotlar

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining tahlili hamda prognozi uchun talab qilinadigan nazariy va amaliy masalalar to'g'risida bilimlar berish hisoblanadi.

Fanning vazifasi – talabalarni iqtisodiyotdagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish; iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur zamonaviy bilimlar

bilan qurollantirish; ularga milliy hisoblar tizimi(MHT)ga ko'ra asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini o'rgatish; mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini prognozlashtirish; iqtisodiy qonunlarning byudjet□soliq, pul□kredit sohalarida amal qilish xususiyatlarini ko'rsatish; talabalarda makroiqtisodiy jarayonlarni, iqtisodiy operatsiyalarni tahlil qilish asosida ularni samarali boshqarish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish; prognozlashning barcha usullaridan keng foydalanishni bilgan holda, iqtisodiyotning aniq bir sohasida rivojlanishni prognozlash va ularni rivojlantirish yo'llari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat.

1.3. Makroiqtisodiy tahlil va MHTning roli

Makroiqtisodiy tahlil turli iqtisodiy o'zgaruvchilar orasidagi funktsional o'zaro aloqalarning parametrlarini baholashdan iborat. Makroiqtisodiy tahlil o'tkazilganda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish keng qo'llaniladi.

Makroiqtisodiy tahlilning vositalari quyidagi modellardir: ekonometrik, vaqtli qatorlar, imitatsion, umumiy muvozanat. Yuqorida aytilgan modellar milliy hisoblar tizimi doirasida joriy, o'zgarmas narxlarda o'sish va qo'shimcha o'sishning sur'atlarida tuziladi.



Milliy Hisoblar Tizimi makroiqtisodiy hisoblarning, aktiv va passiv balanslarning hamda jadvallarning mantiqiy ketma-ket, butun to'plamidan iborat.

Ularning asosida xalqaro darajada kelishilgan qator tushunchalar, tasniflar va hisoblar qoidalari yotadi. Hisoblarning kompleks tizimi iqtisodiy tahlil, qaror qabul qilish va siyosat, ishlab chiqarish maqsadlari to'g'ri keladigan shaklda iqtisodiy ma'lumotlarni tuzish va berish imkonini beradi.

Ўзбекистон, аҳоли жон бошига 1046-4125 долл. даромад (ЯММ) даражасига эга мамлакатлар гуруҳида жойлашган (low-middle income).¹ 2030 йилгача бўлган вазифа – аҳоли жон бошига 4126-12745 долл. даромадга эга мамлакатлар (upper-middle income) билан қиёслаш имконини берувчи ривожланиш даражасини қўлга киритиш ҳисобланади. Бунга фақатгина кескин иқтисодий юксалишга олиб келувчи, рақобатбардошликни тубдан яхшилаш орқали эришилади, чунки бу гуруҳга «етиб олиш» учун бир вақтнинг ўзида ҳам етиб олишни, ҳам ўзиб кетишни назарда тутувчи ривожланиш масалаларини ҳал этмоқ зарур.

MHT makroiqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni makroiqtisodiy tahlil ehtiyojlari uchun kerakli shaklga tizimli ravishda keltirishga imkon beruvchi buxgalteriya hisobining tizimi sifatida ishlab chiqilgan. U milliy iqtisodiyot ko'rsatkichlari tahlilida, baholashda va monitoringida muhim rol o'ynovchi axborotning uzluksiz oqimini tashkil etish uchun xalqaro hamjamiyat tan olgan asosdan iborat.

1.4. Makroiqtisodiy tahlildan foydalanish sohalari

1. **Makroiqtisodiy tahlil.**
2. **Turli davrlar uchun ma'lumotlarning solishtirma tahlili.**
3. **Mamlakatlararo yoki o'zaro tahlil.**

Turli mamlakatlar bo'yicha ma'lumotlarni taqqoslash. MHT xalqaro tashkilotlar tomonidan foydalaniladi, ta'riflanish va tasniflanishning tegishli xalqaro andozalarga to'g'ri keladigan ma'lumotlarni berishga imkon beradi. Bu ma'lumotlar asosida XVFga a'zo mamlakatlarining kvotalarini hisoblashda imtiyozli yordamga huquqlar haqida qarorlar qabul qilinadi. Umuman olganda, mamlakatlararo tahlil turli mamlakatlardagi iqtisodiy holatni taqqoslash uchun qo'llaniladi.

«Upper middle income» гуруҳи мамлакатлари ривожланиш даражасига эришиш учун, 2030 йилга меҳнат унумдорлигини камида 4 баробар ошириш лозим бўлиб, бу иқтисодий ўзишга баробардир.

Markaziy rejalashtirishda pirovard ishlab chiqarish hajmini baholash uchun boshqa tizim – Moddiy Mahsulot Tizimi (MMT) ishlab chiqarish, uning doirasida ishlab chiqarish yalpi hajmi ko'rsatkichi bo'lib moddiy ishlab chiqarishning sof mahsuloti xizmat qilgan. MMTning MHTdan asosiy farqi shundaki, MMTda amortizatsiya va nomoddiy xizmatlar sektorining qo'shilgan qiymati hisobga olinmagan.

MHTda iqtisodiyotning 5 ta asosiy sektori farqlanadi: uy xo'jaliklari, korxonalar, moliyaviy sektor, hukumat va tashqi sektor.

Tayanch so'z va iboralar

Fanning maqsadi va vazifasi. Hodisalar to'plami. Statistika ma'lumotlar. Milliy hisoblar tizimi. Makroiqtisodiy tahlilning vositalari. Ekonometrik vaqtli qatorlar, imitatsion, umumiy muvozanat. MHT. Mamlakatlararo yoki o'zaro tahlil. Moddiy mahsulot tizimi. MHTda iqtisodiyotning asosiy sektori. Makroiqtisodiy jarayonlarini prognozlash. Prognozlash usullari va modellashtirish asosiy mohiyati va tasnifi.

MAVZU-2. MAKROIQTISODIY TAHLILNING USLUBIYOITI VA USULLARI

Reja:

- 1. Tahlilning mohiyati va boshqarishdagi o'rni. Iqtisodiy tahlilning o'ziga xos xususiyatlari.**
- 2. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish uslubiyoti. Tahlil uslubiyotini shakllantirishda tizimli yondashuv.**
- 3. Makroiqtisodiy tahlilning amaliy ahamiyati, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy tahlil natijalarining o'rni va ahamiyati.**

2.1. Tahlilning mohiyati va boshqarishdagi o'rni. Iqtisodiy tahlilning o'ziga xos xususiyatlari.

Xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashish Xalqaro Valyuta fondi, Jahon Banki, Osiyo taraqqiyoti banki kabi xalqaro moliya tashkilotlar faoliyatiga qatnashish bir qancha qoidalarga rioya qilishni talab etadi. Bulardan biri bo'lib mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tahlil qilganda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini bir xil usul va uslublarda hisoblash kiradi. Mamlakatni iqtisodiy holatini, o'tkazilayotgan joriy chora tadbirlarini zarurligini, samarasini baholashda iqtisodiy tahlil juda katta ahamiyatga ega. Tahlilning muhim vazifalaridan biri bo'lib mamlakatda sodir bo'layotgan jarayonlarni modellashtirishning sifatini oshirish, o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosatni natijalarini aniqlashdir.

Ўсишнинг 8 фоизлик суръатларини таъминлаш ва экологик хавфсизликни таъминланган холда иқтисодиётни таркибий жиҳатдан ислоҳ қилиш учун ўсишнинг ресурслардан самарали фойдаланиш моделига ўтиш мақсадга мувофиқдир

Makroiqtisodiy tahlil ko'rsatilgan iqtisodiy agregatlarni o'zgarishlarini tushuntirib, iqtisodiyotda kutilmagan o'zgarishlarni oldini olish va chora tadbirlarni ko'rish uchun mamlakat mamuriyatiga belgilani ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygan. Mamlakatda sodir bo'ladigan holatlarni aniq tahlili va undan keyingi zarur bo'ladigan siyosatni ishlab chiqish, aniq iqtisodiy va statistik ma'lumotlari sistematik ravishda to'planishni talab etadi.

Makroiqtisodiy tahlil shunday vositadirki, uning yordamida makroiqtisodiy tahlil axborot ta'minoti, real sektor, to'lov balansi, byudjet-soliq siyosati, pul-kredit siyosati, bandlik, ishsizlik va inflyatsiya darajalar ustidan nazorat yuritish mumkin bo'ladi.

2.2. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish uslubiyoti. Tahlil uslubiyotini shakllantirishda tizimli yondashuv.

Uslub deganda u yoki bu ishni bajarishning usullari, eng maqsadga muvofik koidalari majmuasi tushiniladi. Iqtisodiy tahlilda uslub deganda, tahlil maqsadiga erishish uchun ma'lum

ko'rinishda buysundirilgan, korxonalar iqtisodiyotini tadqiq qilishning analitik usullari va tartiblari tushiniladi.


Iqtisodiy tahlil uslubini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: umumiy va xususiy uslablarga. Umumiy uslub - bu milliy iqtisodning turli tarmoklarining turli ob'ektlarini o'rganishda bir xilda foydalanadigan tadqiqot tizimidir.

Xususiy uslub - umumiy uslubni iqtisodiyotning ma'lum tarmog'i, ishlab chiqarishning ma'lum turi yoki ma'lum tadqiqot ob'ektiga karab aniqlashtiriladi.

Kompleks tahlili (KT)ning o'tkazish, albatta uning tartibini aniqlab olishni taqazo qiladi. KTni bajarishda qo'yidagi bosqichlar ajratilib ko'rsatiladi:

- 1-bosqichda tahlilning ob'ekti, maqsadi va vazifalari belgilab olinadi, tahlil rejasi tuziladi;
- 2-bosqichda tahlil ob'ekti tavsiflanadigan sintetik va analitik ko'rsatkichlar ishlab chiqiladi;
- 3-bosqichda tahlil uchun zarur bo'lgan axborotlar yigiladi va tayyorlanadi (ishonchligi tekshiriladi, taqqoslanma ko'rinishga keltiriladi);
- 4-bosqichda xo'jalik faoliyatining natijalari biznes reja, o'tgan yil, ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi;
- 5-bosqichda omilli tahlil o'tkaziladi va natijaviy ko'rsatkichlarga omillar ta'siri hisoblanadi;
- 6-bosqichda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda foydalanilmaetgan va istikboldagi imkoniyatlar aniqlanadi;

Ma'lumki, tizimli yondoshish - bu tadqiqot uslubiyatidagi yo'nalishdir. U ob'ektni ko'p sonli ichki va tashqi aloqalardan iborat bo'lgan elementlardan tashkil topuvchi murakkab tizim sifatida o'rganishga tayanadi. Tizimiy yondoshish ob'ektni chuqur va atroflicha o'rganishga, uni xaqida tula tasavurga ega bo'lishga, uning alohida birliklari orasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga imkon beradi.



2.1-rasm. Ochiq iqtisodiyotda tovar va xizmatlarning doiraviy aylanishi

Tizimiy yondoshishning bosh xususiyati - bu tizim elementlarining o'zaro ta'siri, o'zaro bog'liqligi, o'zaro bog'lanishi va dinamik xarakterda bo'lishi, kompleksligi, butunligi, buyunganligi, yetakchi bo'g'inni ajralganligidir.

Tizimli yondoshish iqtisodiy tahlilda xo'jalik masalalarining ilmiy asoslangan variantlarini ishlab chiqish va bu variantlarni samaradorligini hisoblash yo'li bilan eng makbul boshqarish karor larini tanlash imkonini beradi.

Tizimiy tahlilda uni amalga oshirish jarayonini bir necha ketma ket bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich. Tadqiqotning bu bosqichida ob'ekt ma'lum bir tizim,deb qaraladi va buning uchun dastavval tizimni elementlari sifatida qaraladigan alohida qismlari ajratib olinadi. Shuningdek, tizimni rivojlanish maqsadi, hal qiladigan vazifalari, boshqa tizimlar bilan aloqalari,alohida elementlari orasidagi o'zaro bog'lanishlari,har bir elementni va butun tizimni ishlashi belgilab olinadi,

Ikkinchi bosqich. Bu bosqichning asosiy maqsadi tizimning barcha elementlariga, ularning o'zaro (tashki va ichki) bog'lanishlariga,uning mavjudligi sharoitlariga tula va sifatli tavsif beradigan ko'rsatkichlarni tanlashdir.


Uchinchi bosqich. O'rganilayotgan tizimning umumiy chizmasini ishlab chiqish bu bosqichni asosiy maqsadini tashkil qiladi. Grafik ko'rinishda bu alohida -alohida tuzilgan bloklardan tashkil topgan bo'lib,bunda har bir elementga alohida blok mos keladi. Alohida bloklar ular orasidagi bog'lanishlar mavjudligini va yunalishini tavsiflovchi strelkachalar bilan bog'lanadi.

To'rtinchi bosqich. Bu bosqich tizimning umumiy ko'rinishdagi iqtisodiy matematik modelini tuzishga bagishlanadi.Bunda sifat tahlili yo'li bilan tizimning bircha tenglama va tengsizliklarining matematik shakildagi ifodasi aniqlanadi.

Beshinchi bosqich. Bu bosqichda "model bilan ishlash" amalga oshiriladi. Model bilan ishlashni SHEHM yordamida dilog rejimida o'tkazish tavsiya kilinadi. Model bilan ishlashda, bizning fikrimizcha imitatsion modellardan foydalanish maqsadga muvofikdir.

2.3. Makroiqtisodiy tahlilning amaliy ahamiyati, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy tahlil natijalarining o'rni va ahmiyati.

Makroiqtisodiy tahlil davlat iqtisodiy siyosatining asosiga aylanib bormoqda. Iqtisodiy siyosat – davlat va jamoat institutlarining makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida iqtisodiy jarayonlarga tuzatishlar kiritishga yo'naltirilgan harakatlari tizimi. Ta'kidlash lozimki, huddi makroiqtisodiyot kabi, makrotahlil ham pozitiv va normativ tarkibiy qismlarni o'zida mujassam etgan. Pozitiv tarkibiy qism «Nima sodir bo'layapti?» degan savolga javob beradi va prognoz qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi (bunda muayyan faktlar, nisbatlar va raqamlardan foydalaniladi). Normativ tarkibiy qism «Qanaqa bo'lishi kerak?» degan savolga javob beradi va iqtisodiy siyosat vositalarini ishlab chiqish orqali vaziyatni to'g'rilashga yordam beradi.



2.2-rasm. Makroiqtisodiy nazariya va makroiqtisodiy tahlil sohalari

Ushbu ikkita tarkibiy qismning uyg'unlashuvi siyosiy tizimdan qat'i nazar har qanday mamlakatning iqtisodiy ahvolini makroiqtisodiy tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Mamlakatlarning iqtisodiy siyosatidagi farqlar birinchi galda pozitiv va normativ tarkibiy qismlarning ulushi bilan belgilanadi. Davlat tomonidan tartibga solish tarafdorlarida normativ yondashuv yaqqol ifodalangan, liberallarda esa bilim orttirishga (pozitiv) yo'naltirilganlik ustunlik qiladi, ular ko'proq bozorning kuchiga ishonib, bozor erkinligini nazarda tutadi, davlat tomonidan ta'sir etishning bilvosita, tuzatish kirituvchi vositalaridan foydalanishni afzal ko'radi:

- iqtisodiy vaziyatni monitoring qilish;
- iqtisodiyotda amal qiluvchi sababli-oqibatli mexanizmlarni tahlil qilish;
- moliyaviy oqimlarni tadqiq etish asosida iqtisodiyot sektorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganish;
- iqtisodiy siyosatni tadqiq etish va yangi iqtisodiy strategiya variantlarini ishlab chiqish (makroiqtisodiy tuzatishlar kiritish dasturlarini ishlab chiqish);

Ma'lumki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida bir qator institutsional tarkibiy o'zgarishlarni, xususan, mavjud makroiqtisodiy imkoniyatlardan oqilona foydalanish, pul-kredit siyosati, byudjet-soliq siyosati hamda to'lov balansini, real iqtisodiy sektor va makroiqtisodiy jarayonlarning prognozlash va boshqalarga bo'lgan talabini chuqurroq o'rganish, iqtisodiy tejamkorlikni kuchaytirish masalalarini ommaviy hal qilish lozim. Maqsadga erishish uchun avvalo, har bir sektor va bo'lim faoliyatining atroflicha, chuqur tahliliga asoslanib, ichki imkoniyatlardan toboro unumliroq foydalanishga, kamroq xarajat qilib, yuqori natijalarga erishishga, ilg'or tajribalarni joriy etishga, ilg'orlarning tashabbuslarini ommalashtirishga alohida e'tibor berish, sifat ko'rsatkichlarini muttasil yaxshilab borish kerak.

Bu makroiqtisodiy jarayonlarning ish sharoitini hisobga olib, iqtisodiy qonunlarning barcha talablari to'liq bajarilishi ustidan nazoratni, shuningdek, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni izlab topib, ishga solishni aniqlashni taqozo qiladi. Bunda esa makroiqtisodiy tahlilning muhim ahamiyatini kasb etadi.

Tayanch so'z va iboralar

Makroiqtisodiy jarayonlar va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar iqtisodiy tahlilning ob'ekti sifatida. Tahlilning mohiyati va boshqarishdagi o'rni. Iqtisodiy tahlilning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish uslubiyoti. Tahlil uslubiyotini shakllantirishda tizimli yondashuv. Makroko'rsatkichlar tahlilning yuqori darajadagi murakkab ob'ekti, ularning miqdoriy jihatdan shakllanishi. Iqtisodiy tahlil usullari va ularni amalda qo'llashning asosiy tamoyillari, tahlil ob'ektining xususiyatiga qarab ularni tanlash uslubiyoti. Makroiqtisodiy tahlilning amaliy ahamiyati, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy tahlil natijalarining o'rni va ahamiyati.

MAVZU-3. MAKROIQTISODIY TAHLIL VA PROGNOZLASHNING AXBOROT TA'MINOTI

Reja:

- 1. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarning shakllanishi va ularning turlari**
- 2. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar axborot ob'ekti sifatida**
- 3. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirishda axborot texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari.**

3.1. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarning shakllanishi va ularning turlari


Makroiqtisodiy tahlilning asosiy sohasi – mamlakatda ishlab chiqarishning umumiy hajmi, inflyatsiya sur'atlari, ishsizlik darajasi, to'lov balansi salbdosi, ayirboshlash kursi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi – umumiy ko'rsatkichlar ma'lumotlarining o'zgarishini izohlash va davlat organlariga hamda jamoat tashkilotlariga iqtisodiy vazifalarni hal etishda va iqtisodiy vaziyatdagi kutilmagan o'zgarishlarga munosabat bildirishda yo'l ko'rsatishdan iborat. Quyida eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning asosiy turlarini, shuningdek, bozor va o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda inflyatsiya, bandlik, ishsizlik, real ish haqi darajasini o'lchash va tahlil qilish usullarini ko'rib chiqamiz. Ushbular esa ayni paytda axborotob'ektlari hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot o'zaro bog'liq sektorlar va tarmoqlarning murakkab yig'indisini o'zida namoyon etadi. Uning eng muhim tavsiflari - tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish hajmi, inflyatsiya va iqtisodiy o'sish sur'atlari, bandlik, ishsizlik va daromad darajalari. Ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ularning o'zgarishi haqidagi axborot milliy hisob varaqlar tizimida to'liq aks ettirilgan. Makroko'rsatkichlar tahlil va prognozlash uchun asosiy axborot ob'ekti hisoblanadi.

3.2. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar axborot ob'ekti sifatida

Milliy hisoblar tizimi (MHT) makroiqtisodiy ma'lumotlarga ishlov berish va ularni makroiqtisodiy tahlil maqsadlari uchun tizimlashtirilgan ko'rinishda taqdim etish imkonini beruvchi buxgalteriya hisobi sifatida ishlab chiqilgan. U milliy iqtisodiyot ko'rsatkichlarini tahlil



qilish, baholash va monitoringini amalga oshirishda zarur bo'lgan axborotning uzluksiz oqimini tashkil etish uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan bazani o'zida namoyon etadi.

Milliy hisoblar tizimi – muayyan davrda real ishlab chiqarish hajmini va barcha asosiy sektorlar va ishlab chiqarish omillarining mamlakatning umumiy ishlab chiqarishiga qo'shgan hissasini ko'rsatuvchi turli faoliyat turlarini hisobga oluvchi statistika tizimi.

Ta'kidlash lozimki, MHTning makroiqtisodiy tahlil uchun o'ta muhim ahamiyatga egaligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. MHT makroiqtisodiy tahlil uchun zarur baza hisoblanib, o'zining ancha moslashuvchanligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Rivojlanishning turli bosqichlarida turgan mamlakatlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun manba bo'lib xizmat qiladi, hamda tahlil va prognoz uchun axborot bazasi hisoblanadi.

2. MHT nafaqat muayyan davrda, balki dinamikada ham (muayyan vaqt qatori mobaynida) eng muhim makroiqtisodiy o'rtacha ko'rsatkichlar (masalan, ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasi) harakatini kuzatish imkonini beruvchi tizimni o'zida namoyon etadi.


3. MHT – xalqaro taqqoslashlar uchun eng muhim axborot manbai hisoblanadi, chunki xalqaro tashkilotlarga milliy hisobvaraqlar bo'yicha ma'lumotlarni, xalqaro standartlarga mos keluvchi ta'riflar va tasniflarni taqdim etishda foydalaniladi. Ushbu ma'lumotlar ko'plab holatlarda, masalan, imtiyozli yordam olish huquqini belgilashda, XVFGa a'zo mamlakatlar kvotalarini hisoblab chiqishda, shuningdek, turli mamlakatlar milliy hisoblarini taqqoslashni amalga oshirish imkonini beradi.

3.3. Makroiqtisodiy tahlil va prognozashtirishda axborot texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari.

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda makroiqtisodiy tahlil va prognozlashda kompyuter texnologiyalardan keng foydalaniladi. Hozirgi kunda texnika rivojlanishi natijasida, ko'plab murakkab va ko'plab insonlar mehnatini qiluvchi jarayonlarni birgina dastur orqali amalga oshirish imkoni mavjud bo'lmoqda. Odatda, iqtisodiy tahlil va prognozlashda matematik amaliy paketlardan foydalanib, bular quyidagilar: MS Excel, Stata, EVIEWS, Statistics va boshqalar.

Amaliyotda MS Excel, Stata va Eviews dasturiy paketlardan keng foydalaniladi. MS Excel oqali malumotlarni yig'ish, ularni qayta ishlash va statistik baholashda foydalaniladi. Ma'lumotlarni statistik baholash, tahlil qilish va ko'rsatgichlarni o'zaro bog'liqligini baholashda Stata dasturiy paketidan

foydalaniladi. Bir qancha kuzatuv vaqt ma'lumotlari asosida iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik baholash va prognoz qilishda Eviews dasturiy paketdan foydalanish qulay bo'lib hisoblanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun quyidagi bosqichlarni bajarish lozim:



- MS Excelda mavjud ma'lumotlarni yangi MS Excelga ko'chirib ushbu faylni "soxranit kak" buyrug'i yordamida MS Excel 5.0/95 shaklida saqlashimiz kerak;

- Kompyuterda o'rnatilgan Eviews dasturini ishga tushirib quyidagi jarayonni amalga oshirish kerak: "File" → "New" → "Workfile", so'ngra sizda ma'lumotlar yillik, yarim yillik, choraklik, oylik, haftalik haqidagi buyriqni tanlashiz kerak bo'ladi, keyin ma'lumotlarning boshlanish muddati va tugash muddati haqidagi ma'lumotni kiritasiz "enter" tugmasini bosgandan so'ng, yangi ish sahifsi ochiladi;

- Mavjud ma'lumotlarni Eviews dasturiga ko'chirish uchun quyidagi jarayonni amalga oshirish kerak: "File" → "Import" → "Read Text-Lotus-Excel" va Excel 5.0/95 shaklida saqlangan faylni tanlab "открыть" burug'i beriladi. So'ngra har bir ko'rsatgich nomi yozilib "ok" buyrug'i beriladi (eslatib o'tamiz, Excelda saqlangan ma'lumotlarda vergul o'rniga nuqta ishlatiladi, ko'rsatgichlarning nomi lotin alifbosida yoziladi).

- Ko'rsatgichlarni o'zgarish tendentsiyalari asosida holat qaysi funktsiya qonuniyatiga tegishligi aniqlanib, funktsiyaning parametrlari quyidagi buyruqlar orqali topiladi: "Quick" → "Equition Estimation". Olingan natijalar asosida jarayon prognozlashtiriladi.

Tayanch so'z va iboralar

Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashda axborotning zarurligi va uning mohiyati. Axborot turlari, iqtisodiy axborotlarning shakllanishi. Makroiqtisodiy tahlilning axborot bazasi – makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Axborotning sifati va ishonchliligi. Tahlil ob'ektlarining faoliyatini ifodalovchi axborot statistik ma'lumotlar. Makroiqtisodiy tahlil uchun axborotlar yig'ish, qayta ishlash, uzatishda informatsion texnologiyalardan keng foydalanish. Prognozlashda axborotlarning mohiyati, prognoz natijalarining ishonchliligiga axborot sifatining ahamiyati, iqtisodiy mohiyati. Prognozlashdagi axborot yetishmovchiligi muammosi va uni hal qilish yo'llari. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarni shakllanishi va turlari. Axborotlarning o'lchov birliklari, ularning prognozlash modellarida ifodalanish talablari va tamoyillari.

MAVZU-4. REAL SEKTORNING MAKROIQTISODIY TAHLILI

Reja:

- 1. Milliy daromadlar va mahsulotlar hisobi**
- 2. Milliy hisobot tizimini asosiy agregatlari.**
- 3. Ko'rsatkichlarni hisoblash muammolari.**

4.1. Milliy daromadlar va mahsulotlar hisobi

Asosiy makroiqtisodiy hisoblar milliy daromad, milliy mahsulot hisoblari, to'lov balansi, davlat moliya statistikasi va pul-kredit obzori hisoblanadi. Bu hisoblar umumiy maqsad uchun xizmat qiladi. Ular iqtisodiy tahlil va iqtisodiy siyosatga doir qarorlar qabul qilish uchun poydevor hisoblanadi. Iqtisodiyotning turli nuqtai-nazarlarini xarakterlashiga qaramay, ularning hammasi yagona kontseptsiyaga asoslanadi va yagona tizimni tashkil etadi. Bu bobni o'rganishdan maqsad □ shu tizimni va shu hisoblar o'rtasidagi aloqalarni o'rganishga qaratilgan.

Makroiqtisodiyotning predmeti iqtisodiy agregatlarni o'rganish hisoblanadi, chunonchi, xarajatlar, daromadlar va ishlab chiqarish hajmi umumiy darajalarini; bandlik ko'rsatkichlari;




baho va ish haqi; tashqi savdo oqimlari; soliq tushumlari va davlat xarajatlari; pul va kredit oqimlari. Amaliyotda makroiqtisodiyot uch masalani yechishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi: o'zgarishlarni iqtisodiy agregatlar orqali tushintirish; iqtisodiy o'zgaruvchilar o'zgarishi oqibatlarini bashoratlash; iqtisodiy siyosatni aniqlovchi shaxslarga u yoki bu iqtisodiy maqsadlarga erishishiga yordam berish. Milliy hisoblar asoslari makroiqtisodiy o'zgaruvchilar haqidagi zaruriy axborotlarni sistemalashtirilgan tarzda qayd qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

Bozor narxlarida hisoblangan YaIM ishlab chiqaruvchi birlik – rezidentlar xo'jalik faoliyatining oxirgi natijasini ifodalaydi. U barcha ishlab chiqaruvchi birlik rezidentlar tomonidan qo'shilgan qiymatlarning yalpi summasini aks ettiradi. U yana oxirgi tovar va xizmatlar iste'molining summasidan import tovar va xizmatlar summasini chiqarib tashlaganiga yoki bo'lmasa ishlab chiqaruvchi birlik-rezidentlar tomonidan taqsimlangan daromadlar summasiga teng.

Ishlab chiqarish rezidentlari xo'jalik faoliyati natijasida olingan daromad, asosan rezident o'rtasida taqsimlanadi. Shu bilan birga daromadlarning ma'lum bir qismi norezidentlarga to'lanishi, tashqi dunyo (norezidentlar) daromadlarining bir qismi rezidentlarga o'tishi mumkin. Rezidentlar tarafidan olingan daromadlarni hisoblash uchun YaMD, YaIMdan norezidentlarga tegishli daromadni (yollanma ishchilarga to'lovlar yoki mulkdan daromad) ayirib, unga ishlab chiqaruvchi birlik norezidentlardan kelgan daromad ko'shiladi. YaIM va YaMD orasidagi farq "sof xorij daromadi" deya nomlanadi va u musbat yoki manfiy qiymatga ega bo'lishi mumkin.

4.2. Milliy hisobot tizimini asosiy agregatlari.

"Moddiy ishlab chiqarish sof mahsulot" (MISM) markaziy reja asosida yotuvchi harajat-mahsulot jadvalidan kelib chiqqan. MISM va YaIM orasidagi farq shuki, MISM tarkibiga amartizatsiya va nomoddiy xizmat sektoriga qo'yilgan qiymatning ma'lum qismi qo'yilmaydi. MISM tarkibiga moddiy ishlab chiqarish mahsulotining taqsimoti bilan bog'liq xizmat kiradi, masalan, transportirovka, saqlash va marketing. Bunday xizmatlarga moddiy ishlab chiqarish jarayoni "davomi" deb qaralgan. Bundan tashqari MISM tarkibiga ishlab chiqarish jarayonida qo'shimcha qo'shiladigan resurslar tarkibiga kirmasa-da MISMdan chiqarib tashlanmagan. Shu bilan bir vaqtda avvallari markazlashtirilgan rejalashtirish qo'llanilgan turli mamlakatlarda nomoddiy xizmatlar orasida qaysilari kirishi amaliyotda turlicha hal qilingan.



4.2-rasm. Real sektorda makroiqtisodiy muvozanat

Korxonalar yaratgan qo'shilgan qiymat ishlab chiqarish hajmi bilan oraliq iste'mol farqiga teng. YaIMni barcha ishlab chiqarish birliklari qo'shilgan qiymati summasi kabi olish mumkin.

YaIMni yana bozor baholarida va (omillarni) qiymatlari bo'yicha o'lchash mumkin. Keyingi usul daromadlarni o'lchash bilan bog'liq. U yalpi qo'shilgan qiymatdan soliqlar minus ishlab chiqarish subsidiyasi ayrilganiga teng bo'lgan ixtiyoridagi natijani beradi. YaIM (omillar qiymati bo'yicha) = hamma omillar daromadlarning summasi (daromadlarga soliqlarni to'lashdan ilgari) = W+OS (1) YaIM (bozor baholari bo'yicha) = YaIM (omillar qiymati bo'yicha) ITS

W+OS+ITS

4.3 Ko'rsatkichlarni hisoblash muammolari.

Inflyatsiyani baholashning oddiy usullaridan biriga ko'ra xarajatlarning o'sishi prognozlarning asosi hisoblanadi. Lekin inflyatsiyani bunday baholash faqatgina taxminiy bo'lishi mumkin, sababi, vaqti kelib narxlar ko'tarilishining butun iqtisodiyotga sezilarli bilvosita ta'siri namoyon bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum davr ichidagi narxlarning o'zgarishi nafaqat shu davr ichidagi xarajatlar o'sishining o'zgarishini, balki oldingi davrlardagi xarajatlar o'sishining davomli ta'sirini ham aks ettiradi.

Бироқ, таҳлил натижалари шуни кўрсатмоқдаки, узоқ муддатда ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг юқори¹ суръатларини сақлаб қолиш катта инвестицияларни талаб қилади. Лекин а) табиий қазилмалар заҳираларининг камайиб бориши; б) хом ашё ресурсларига бўлган жаҳон бозори конъюнктураси ёмонлашиб, уларнинг нархи пасайиб бориши натижасида керакли хажмдаги инвестицияларни шакллантириш эҳтимоли пасайиб боради.

Iste'mol narxlari indeksi

(CPI) – bu, rezidentlar tomonidan iste'mol qilinadigan import va mamlakat ichida ishlab chiqarilgan tovarlarni ma'lum savatdagi narxi indeksidir. Bundan farqli ravishda YaIM deflyatori – bu, ham ichki iste'mol, ham eksport uchun ishlab chiqarilgan barcha tovarlar narxi indeksidir. Kutish mumkinki, iste'mol narxlari indeksi (INI) va YaIM deflyatorining o'zgarishidagi farqlar aks ettiradi. Agar import narxlari eksport narxlariga qaraganda ko'proq darajada oshsa, INI orqali ifodalangan inflyatsiya darajasi, boshqa sharoitlar teng bo'lganda, YaIM deflyatori orqali ifodalangan inflyatsiya darajasidan yuqori bo'ladi.

Qoida bo'yicha xarajatlar o'sishi tendentsiyasiga quyidagilarning o'zgarishi ta'sir qiladi:

- jahon savdosidagi narx darajasi (xorijiy valyutada);
- nominal almashuv kurslari;
- ish haqi miqdori;
- egri soliqlar miqdori.

Tayanch so'z va iboralar

Iqtisodiyotning real sektori tushunchasi. Real sektorning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati. Real sektor va iqtisodiy o'sish. "Milliy ishlab chiqarish sof mahsulotlari" tushunchasi. Real agregatlar. Nominal agregatlar. Iste'mol narxlar indeksi. YaIM deflyatori. Sof xorij daromadi, yalpi milliy ixtiyoridagi daromad. Tashqi balans. Xususiy sektorda kapital qo'yilmalarni aniqlovchi omillar. Joriy davr baholari. Inflyatsiyani prognozlash. Tannarx oshishi. Iqtisodiyotning real sektori tahlili, institutsional sektorlar, yuridik shaxslar. Uy xo'jaliklari. Ekonometrik modellar. Makroiqtisodiy agregatlar tushunchasi va makroiqtisodiy tahlil. Makroiqtisodiy prognozlash.


MAVZU-5. TO'LOV BALANSINING IQTISODIY TAHLILI

Reja:

1. Ikkiyoqlama yozuv asosida hisobga olish tizimi.
2. To'lov balansini hisobga olishni asosiy kontseptsiyalari
3. Transfertlar tahlili va kapital operatsiyalar hisobi

5.1. Ikkiyoqlama yozuv asosida hisobga olish tizimi.

To'lov balansi hisoblarini tuzishning asosiy maqsadlaridan biri tashqi muvozanatlikni to'g'rilash ehtiyojining paydo bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lishdir. Biroq ikki tarafdin yozuv tizimi to'lov balansida debet va kredit tengligini nazarda tutadi. Shuning uchun unda ijobiy saldo yoki defitsitni ko'rsatish uchun barcha tashqi operatsiyalarni summalash va bu guruh ichidagi operatsiyalarni moddalardan ajratish kerak (chiziq ostidan yoki ustidan).



Qiziqarli ma'lumotlar

Chiziqni tortish yerini hal qilish to'lov balansi bosh ehtiyojining a'lo darajadagi qaysi operatsiyalar doirasini ko'rsatish to'g'risidagi sub'ektiv nazarni ifodalaydi. Mustaqil hisoblangan operatsiyalarga bo'lgan yondashuvlarning biriga asosan, avtonom moddalarni kompensatsiyalash uchun ular amalga oshiriladigan operatsiyalardan ajratilishi kerak. Boshqa yondashuv doirasida asosiy e'tibor operatsiya xarakterining o'zgaruvchanligiga qaratiladi: nostabil deb qaraladigan operatsiyalar to'lov balansining umumiy holatini ko'rish uchun "chiziq ostida" belgilanadi.

5.2. To'lov balansini hisobga olishni asosiy kontseptsiyalari

Quyida u yoki bu davlatning to'lov balansini prognozlashtirishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan bir qancha qoidalar ro'yxati kiritilgan.

Jahon iqtisodiyotidagi tendentsiyalar.

Tashqi sektor prognozlari butun dunyo bilan o'zaro aloqador bo'ladi. Shuning uchun ham unda asosiy savdo hamkorlari va shuningdek, raqobatchi davlatlar iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyasi hisobga olinishi kerak.



Ichki iqtisodiy faollik va iqtisodiy siyosat. To'lov balansi prognozlari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini prognozlashtiruvchi tendentsiyalarga mos bo'lishi kerak. Unga, o'z navbatida bevosita o'tkaziladigan soliq, byudjet va pul-kredit siyosati ta'sir etadi.

Prognozlashtirish uslubiyati. Prognozlarni tayyorlashda o'zgarishni ko'rsatuvchi va asosiy o'zgarishlarni prognozlashtiruvchi ko'rsatkichlar orasidagi mustahkam aloqalarni o'rnatish maqsadga muvofiqdir.


Dezagregatsiya darajasi. Prognozlashtiruvchi operatsiya kategoriyalar tarkibida ma'lumotlarning dezagregatsiya darajasi aniqlangan bo'lishi kerak.

Buxgalteriya hisobida balansga rioya qilish. To'lov balansining alohida komponentlari alohida prognozlari barcha tashkiliy to'lovlar va tushunchalar summasi nimaga teng bo'lishi kerak, ya'ni joriy operatsiyalar hisobining saldosi kapital harakati va zahiralarning miqdorining o'zgarishi summasiga teng bo'lishi kerak, degan shartni qondirmasligi mumkin.

Joriy operatsiya hisobi defitsitining ma’qullangan miqdori. Agar joriy operatsiya hisobi defitsiti prognozlashtirilayotgan bo’lsa, defitsitni moliyalashtirishni ta’minlash va qarz berish bilan bog’liq bo’lgan muammoni chetlab o’tish imkonini beruvchi hajmdagi kapitallar oqimiga davlat kafolat bera olish o’lmasligi muhim hisoblanadi.

5.3. Transfertlar tahlili va kapital operatsiyalar hisobi

Umuman olganda xizmat ko’rsatish sohasida debet va kreditlarning asosiy kategoriyalarini savdoda kiritilgan ayni ko’rsatkichlar, ya’ni nisbiy qiymatlar bilan bog’lash mumkin. Lekin bunday yondashuvning samaraliligi xizmat moddalarining ba’zi sohalarga tavsiya etuvchi omillari murakkabligi, shuningdek, turli moddalar qiymati to’g’risidagi ma’lumotlarning yo’qligi sababli chegaralanadi. Shuning uchun, odatda, xizmat ko’rsatish sohasida debet va kreditlarning umumiy prognozlashtirish imkonini beruvchi usullardan foydalaniladi.



5.1-rasm. To’lov balansining tarkibiy tuzilishi

Kapitalli operatsiyalar hisobining ikki asosiy elementi bo’lib, to’g’ri investitsiyalar va portfel investitsiyalar hisoblanadi. To’g’ri investitsiyalarni o’lchash kapital qo’yilmalar qo’yish imkoniyatlariga bog’liq. Shuningdek, ko’proq jalb qilish muhitini yaratish uchun aniq normativ bazani mavjudligini va shuningdek makroiqtisodiy turg’unlikni ta’minlashda davlat siyosati kafolatlaridan foydalanish zarur. Portfel investitsiyalar chet el investerlariga solingan qarz majburiyatlari davlat yoki davlat tashkilotlari tomonidan chiqarilgan va shuningdek, xususiy sektorning qarz majburiyatlari va aksiyalar operatsiyalarini o’z ichiga oladi. Rasmiy o’rta va muddatli kapital oqimi prognozlar byudjetida belgilangan va rivojlanish rejasi, shuningdek, kreditorlardan olingan ma’lumotlarga asoslangan. Xususiy kapital oqimini prognozlashtirish qiyinroq, ko’pchilik mamlakatlar uchun xalqaro bank zayomlariga kirish chegaralangan.

Tayanch so’z va iboralar

To’lov balansi mohiyati. To’lov balansi hisoblarini tuzishning asosiy maqsadlari. To’lov balansi tuzulmasi. Joriy operatsiyalar hisobi. Kapital operatsiyalar hisobi. Zahira hisobi. Ma’lumotlarning asosiy manbalari. Ikki taraflama yozuv tizimi. Yalpi investitsiyalar. Sof investitsiyalar. To’g’ri investitsiyalar. Portfel investitsiyalar. Kapital oqimi. Qisqa muddatli kapital oqimi. Tashqi holatni o’lchash. Iqtisodiy siyosat qarorlari. Ma’lumotlarining asosiy manbalari. Natural ko’rinishdagi davlat importi. Barter bitimlari. Jahon iqtisodiyotidagi tendentsiyalar. Ichki iqtisodiy faollik va iqtisodiy siyosatni prognozlashtirish uslubiyati. Dezagregatsiya darajasi. Defitsitining ma’qullangan miqdori. Savdo balansi tahlili. Ichki iqtisodiy faollik. To’lov balansi. Asosiy kontseptsiyalar.

MAVZU-6. BYuDJET-SOLIQ SEKTORINING MAKROIQTISODIY TAHLILI

Reja:

1. “Davlat boshqaruv organlari” tushunchasiga izoh
2. Davlat boshqaruv organlari (DBO)ning operatsiyalar hisobi
3. Davlat boshqaruv organlari operatsiyalarining tavsiflanishi

6.1. “Davlat boshqaruv organlari” tushunchasiga izoh

Davlat boshqaruv organlari (DBO) bo'yicha qo'llanmani"ning boshidayoq davlat boshqaruv organlari funktsiyalariga izoh beriladi: imtiyozli bozor xizmatlarni taklif qilish yo'li bilan davlat siyosatini olib borish va daromadlarni, asosan, boshqa sektorga solingan soliq hisobidan qayta taqsimlash.

Qiziqarli ma'lumotlar

Davlat sektori, funktsiyalari ushbu izohga mos keluvchi tuzilmaviy birliklarni o'z ichiga oladi. Davlat boshqaruv sektorlari quyidagilardan iborat:

- huquqiy jihatdan butun davlat hududida kuchga ega bo'lgan markaziy hukumat;
- davlat hududining bir bo'lagida markaziy hukumatga bog'liq bo'lmagan holda vakolatga ega bo'lgan shtatlar, viloyatlar, regionlar hokimiyati;
- turli kichik ma'muriy birliklar hududida mustaqil vakolatga ega bo'lgan mahalliy boshqaruv organi;
- faqat davlat hududida soliqqa tortish va davlat xarajatlari sohasidagi ba'zi funktsiyalarni bajaruvchi har qanday milliy boshqarmalar.

Ijtimoiy ta'minot fondlari, yuqorida izohlangan ko'rinishda davlat sektoriga tegishli bo'ladi. Davlat tashkilotlari davlat sektoridan alohida qaraladi.

6.2. Davlat boshqaruv organlari (DBO)ning operatsiyalar hisobi

Kassa tamoyili. Davlat Moliya statistikasi ma'lumotlarini to'plash bo'yicha Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)ning normalari tomonidan davlat operatsiyalarini qayd qilishda kassa tamoyili: tushumlar va to'lovlar to'lov amalga oshirilayotgan paytda qayd qilish kerakligi uchun qo'llaniladi.

Bunday hisob-kitob asosida DBO va iqtisodiyotning qolgan qismi orasidagi fond va resurslar taqriban ifodalangan imkonining mavjudligi yotadi: unga shuningdek, moliyaviy statistikaning boshqa turlari ham bevosita to'g'ri keladi.

Yalpi va sof tushumlar, to'lovlar. Asosiy tamoyil sifatida, tushum va to'lovlarning yalpi summasi ko'rsatilishi kerak



Bu holda statistik ma'lumot milliy daromadni oshirish va uni to'latishning to'liq hajmi va ta'sirini ifoda etadi.

Konsolidatsiya. Davlat moliya statistikasi ma'lumotlari tayyorlashda davlat sektori ichidagi birliklararo operatsiyalarni va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan umumiy kategoriyalar qatorida barcha operatsiyalarni birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

6.3. Davlat boshqaruv organlari operatsiyalarining tavsiflanishi

Ushbu bo'limda DBO operatsiyalarini tasniflashning nazariy asoslari statistik tizimning asosiy kategoriyalari bo'yicha yoritilgan: daromadlar, olingan transfertlar, xarajatlar, sof kreditlash, minus qarzlar to'lovi va moliyalashtirish.

a) Asosiy chegaralanishlar

To'lov va bir yoqli operatsiyalar. To'lov operatsiyalari o'z ichiga tovar, xizmatlar to'lovi, mulkdan foydalanish yoki unga nisbatan egalik huquqning qo'lga kiritish, shuningdek, amaliy xizmatlar to'lovini oladi:


- joriy va kapital;
- moliyaviy aktivlar va passivlar;
- kassa qoldiq summalarini o'zgartirish;
- daromadlar;
- olingan transfertlar;
- davlat xarajatlari va kreditlarning bashorati;
- moliyalashtirish.

Soliq tushumlari, soliq bazasi bu, soliq solinadigan o'lchamdir.

Soliq bazasi turlariga daromadlar, ish haqi va import hajmi kiradi. Soliq turlari – soliq solinadigan bazaga bog'liq ravishda bo'ladi. Har qaysi soliqlar belgilangan tartibda soliq bozoriga mos ravishda bo'lishi shart. Ammo soliq hujjatlarining asosida soliq qonunlari turadi, soliq bazasini aniqlash murakkab. Soliq stavkalari strukturasi har xil elementlar uchun soliq ayrim hollarda qonun asosida ozod qilish.

Tayanch so'z va iboralar

Davlat boshqaruv organlari. Markaziy hukumat. Kassa tamoyili. Davlat moliya statistikasi ma'lumotlari. Tushumlar. Yalpi sof tushumlar. Transfertlar. Davlat boshqaruv sektori tushunchasi. Davlat organlari operatsiyalari hajmining miqdoriy o'zgarishi. Davlat organlari operatsiyalarini tavsiflash. Daromadlar va xarajatlar tahlili. Davlat jamg'armalari va investitsiyalari tushunchalari. Byudjet disbalansini o'lchash. Byudjet defitsitini moliyalashtirishning muqobil usullari. Makroiqtisodiy oqibatlar. Soliq tushumlari tahlili. Turli yig'img'lar. Soliq bazasi. Yalpi va sof tushumlar. Konsolidatsiya. Joriy hisob va kapital. Moliyaviy aktivlar va passivlar. Noaniq tushumlar. Davlat xarajatlari va kreditlarining prognozlarini. Moliyalashtirish. Davlat byudjeti tarmog'ida makroiqtisodiy tahlili.



MAVZU-7. PUL-KREDIT SEKTORINING IQTISODIY TAHLILI

Reja:

1. Iqtisodiy operatsiyalar
2. Milliy daromad, mahsulot va to'lov balansi hisoblari o'rtasidagi aloqa
3. Pul-kredit obzorining boshqa makroiqtisodiy hisoblar bilan o'zaro aloqasi


7.1. Iqtisodiy operatsiyalar

Iqtisodiy operatsiyalar hisobotiga makroiqtisodiy hisoblarning umumiy elementi deb qaralishi mumkin. Mulkchilik huquqi biror iqtisodiy birlikdan boshqasiga real yoki moliyaviy aktivga bo'lgan mulkchilik huquqiga o'tsa yoki biror-bir iqtisodiy birlik boshqa birlikka xizmat qilsa, iqtisodiy operatsiya sodir bo'ladi. Ko'p hollarda iqtisodiy operatsiyalar sodir bo'lganda, biror moliyaviy aktiv boshqasiga almashiladi. Ba'zi hollarda iqtisodiy operatsiyalar tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar almashuviz bo'ladi. Masalan, biron aholi punktiga bepul tibbiy xizmat ko'rsatiladi yoki davlatga soliq to'laganda. Bu operatsiyalar 2 ta komponentdan iborat:

1) tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar oqimi;

2) 2-"Bir tomonlama transfertlar".

Milliy hisoblar tizimida va to'lov balansida operatsiyalar biror passiv bo'yicha to'lov amalga oshirilganda emas, balki qachonki shunday passiv paydo bo'lganda o'tkaziladi. Davlat moliya statistikasi ma'lumotlari poydevorida, aksincha, kassa printsipli yotibdi. Pul statistikasi sohasida balansli hisobotlarga asoslaniladi.



7.2 Milliy daromad, mahsulot va to'lov balansi hisoblari o'rtasidagi aloqa

a) Milliy hisoblar kontseptsiyasi obzori.

Milliy daromad va mahsulot hisoblari poydevori mahsulotning ishlab chiqarilganligi va taqsimlanganligi birlamchidir. Tovar va xizmatlarning bir yildagi taklifini, mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahsulot yig'indisi va importni hisoblash mumkin. Mahsulotni taqsimlash rezidentlarini umumiy xarajatlarini tashkil etadi (bular iste'mol, investitsiya + eksport). Buni quyidagicha yozish mumkin:

$$Y+M=C+I+X$$

Bundan quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$Y=C+I(X-M) \quad (1)$$

U holda:

$$Y+YF=C+I+(X-M+YF) \quad (2)$$

Endi tenglamaning chap tomoni YaIMga emas, balki YaMD ga teng.

a) Davlat moliya statistikasi va milliy daromad davlat operatsiyalarining ma'lumotlarni standart ko'rsatish poydevori hisoblanadi. Bu poydevor davlat boshqaruv organlarining daromad, xarajat, kapital jamg'arish va moliyalashtirish nuqtai nazaridan operatsiya analizini yengillashtirish uchun mo'ljallangan. Milliy daromad va mahsulot hisoblari ham davlat boshqaruv organlari faoliyati to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni standart holda ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

Milliy hisoblar asosiy kategoriyalari bo'yicha operatsiyalar DMS tarmoqlari bilan bog'lanib ketishi mumkin. Markaziy hukumatning DMS metodi bo'yicha iste'moli oylik ish haqi va davlat xarajatlari uchun to'lovlarini ayiramiz.

b) Davlat moliya statistikasi. **Qiziqarli ma'lumotlar**

To'lov balans. Davlat boshqaruv organlari tomonidan va chet mamlakatlar bilan olib borilgan operatsiyalar ham DMS ham to'lov balansida o'z aksini topadi. Faqat farqlar kengligini jalb etish va hisob printsiptini hisobga olmaganda, berilgan operatsiyalar ikkala tizilmada ham bir xil namoyon bo'ladi.

Jalb etish kengligiga kelsak, bu yerda farqlar minimal. Birinchidan, to'lov balans hisobiga davlat boshqaruvi darajalari farqlanmaydi, ikkinchidan,

to'lov balansida tashqi operatsiyalar bilan milliy birlashmalar o'rtasida chegaralanish yo'q.

To'lov balans ma'lumotlar hisobi ustiga qo'yib hisoblash usuli orqali olib boriladi. DMSda esa kassa usulidan foydalaniladi. Ya'ni to'lovlar asosida. Shunday qilib DMSda faqat to'lovlar oqimi, to'lov balansida esa resurslar, to'lovlar, majburiyatlar aks etadi.


7.3. Pul-kredit obzorining boshqa makroiqtisodiy hisoblar bilan o'zaro aloqasi

Pul-kredit obzori to'lov balans bilan hisobot ma'nosida bog'liq, chet el aktivlari va pasivlari summasining o'zgarishi orqali va DMS – davlat boshqaruv organlarining bank tizimiga sof qarzi orqali.

Biroq pul-kredit obzori (tizimi) bilan milliy daromad va mahsulot o'rtasidagi bog'liqlik o'rtacha hisoblanadi: iqtisodiyotda likvidlik zahirasi o'zgarishi mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish va daromadlar hajmining o'zgarishiga olib keladi. Milliy daromad va xarajatlarning o'zgarishi esa import talabi va eksport taklifiga ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida sof tashqi aktivlar summasining o'zgarishiga va nihoyat, pul massasiga ikkilamchi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tayanch so'z va iboralar

Pul kredit sektorining tarkibi. Pul vositalarining oqimi. Tahliliy hisobot. Moliyaviy tashkilotlar. Davlatning to'lov vositalarini yaratuvchi moliyaviy muassasalar. Pul yaratmaydigan moliyaviy muassasalar. Pul-kredit nazorat qiluvchi va pul depozit banklari. Zahira pullari. Xorijiy valyuta zahiralari tahlili. Pul massasi, davlat sektorining iqtisodiy tahlili. Shaxsiy sektor. Pul depozit banki. Pul kredit masalasi. Moliyaviy agregatlar. Pul massasi miqdori tahlili. Pul-kredit passivlarini tekshirish. Aktivlar. Umumiy tashqi sal'do. Real oqimlar. Moliyaviy oqimlar. Bank tizimi aktivlari. Xorijiy valyuta depozitlari. Pul agregatlari tahlili.



MAVZU-8. ISHSIZLIK VA INFLYATSIYA DARAJASINING IQTISODIY TAHLILI

Reja:

1. Aholi bandligi siyosati, usullari va yo'nalishlari
2. Ishsizlikning kelib chiqish sabablari, turlari, asosiy mezonlari va ko'rsatkichlari
3. Inflyatsiyaning mohiyati va turlari va hisoblash usullari

8.1. Aholi bandligi siyosati, usullari va yo'nalishlari

Aholi bandligini muayyan darajada barqaror ushlab turish har qanday mamlakat oldida turgan murakkab vazifalardan sanaladi. Bandlik sohasida bozorning o'zini o'zi avtomatik suratda tartibga solish jarayoniga ta'siri har doim ham sezilmaydi. Shu sababli bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan barcha mamlakatlarda doimiy, bandlik sohasiga ta'sir ko'rsatish shakllari va vositalari jihatidan egluvchan choralarni qo'llash asosida bandlikni tartibga solish siyosati amalga oshirilmoqda. Aholining to'liq va samarali bandligini ta'minlash har qanday demokratik jamiyatning muhim vazifalaridan biridir.

Bandlik siyosati – bu jamiyat va uning har bir a'zosining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi chora tadbirlar yig'indisidir.

Bandlik sohasidagi davlat siyosati ikkita asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan: birinchidan, amalda investitsiyalanadigan kapitalning ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini qondirish. Jadal va foydali amal qiladigan kapital ishchi kuchidan samarali foydalanishning eng muhim dalilidir; ikkinchidan, mehnatga layoqatli aholini kishilarning me'yordagi hayot kechirishlarining muhim sharti sifatida ish joylari bilan ta'minlash.

Aholi farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish davlatning an'anaviy vazifasi hisoblanadi.

Davlat mehnat bozorida ikki turdagi siyosatni, ya'ni passiv va aktiv siyosatni amalga oshirishi mumkin. Passiv siyosat ish izlayotgan fuqarolarni ro'yxatga olish, ishsizlik nafaqasini tayinlash, uni taqdim qilish tizimini tashkil etish, ishsizlar va ularning oilalarini qo'llab quvvatlashning pulsiz shakllarini amalga oshirish bilan cheklanadi.


8.2. Ishsizlikning kelib chiqish sabablari, turlari, asosiy mezonlari va ko'rsatkichlari

Iqtisodchi olimlar o'rtasida ommaviy ishsizlikning haqiqiy sabablari qandayligi to'g'risida turlicha qarashlar mavjud.

Ma'lumki, J.M.Keyns «ishsizlikning davosi sifatida ish haqini pasaytirish g'oyasini qat'iy inkor etib, o'ziga investitsiyalar, davlat xarajatlari va sof eksportdan tashqari iste'mol xarajatlarini – bunda ham so'nggi – umumiy talabning asosiy qismini ham qamrab oladigan umumiy talabdan kelib chiqadi».

Fikrimizcha, O'zbekistonda ishsizlikning paydo bo'lishi va o'sish tarixi aynan Keyns qarashlarining to'g'riligini isbotlaydi. Ishsizlar rasmiy ro'yxatga olingandan boshlab, ishsizlik darajasi ma'lum darajada muntazam ortib boradi, ishga joylashtirish qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi shunchalik past bo'ladi.

Ish bilan bandlikning keskin kamayishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar (davlat sektorining kamayishi), inflyatsiya hamda xo'jalik yuritishning muqobil shakllari (xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari) yetarlicha tez o'smaganligi tufayli ko'pgina korxonalarda moliyaviy ahvol yomonlashuvi natijasida yuzaga keladi. Bularning hammasi, tabiiyki, umumiy



talab hajmida salbiy aks etadi: davlat ta'siri qisqaradi, investitsiya faoliyati sustlashadi, iste'mol xarajatlari esa inflyatsiya ta'sirida turmush darajasining yomonlashuvi tufayli birmuncha kamayadi. Demak, O'zbekistonda ishsizlik o'sishining asosiy sababi – eng avvalo ishlab chiqarishning qisqarishidir. Iqtisodiy o'sish dinamikasi bilan ishsizlik o'rtasidagi aloqa uzviy bog'liq ko'rsatkichlardir.

Qiziqarli ma'lumotlar

Qoidaga ko'ra, g'arb iqtisodchilari iqtisodiy o'sish sur'atlarini aholi ish bilan bandligining o'sish sur'atlari bilan, tanazzulni esa ishsizlik darajasining o'sishi bilan bog'laydilar. Haqiqatdan ham, industrial turdagi normal ishlayotgan bozир iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish doimo tarmoqlarning rivojlanishi va



kengayishini, demak, ish bilan bandlikning ortishini anglatadi. Shunday bo'lsada, rivojlanayotgan mamlakatlarda bunday bog'liqlik ko'zga ochiq tashlanmaydi. Masalan, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatning tez o'sishi ish bilan bandlikning muvofiq kengayishini keltirib chiqarmadi. Iqtisodchilar bu hodisani sanoatdagi o'sish sur'atlaridan ancha yuqori bo'lgan urbanizatsiya sur'atlari hamda qishloqdan shaharga ko'chib kelayotgan aholi malakasining pastligida deb izohlaydilar. Aholining ish bilan bandlik dinamikasi, YaIM bilan ishsizlik o'rtasidagi bevosita aloqaning tasdiqlanmasligi dastlabki qarashda mantiqan zid hodisadir. Ikkita dalil kishini hayratga soladi: birinchidan, ishsizlikni YaIMning o'sishiga qiyosan ilgarilovchi qisqarishi; ikkinchidan, ish bilan bandlikning kamayishi bilan birga ishsizlikning qisqarishi.

8.3. Inflyatsiyaning mohiyati va turlari va hisoblash usullari

Inflyatsiya nima? Inflyatsiyaning soddalashtirilgan ta'rifi – bu baholarning umumiy darajasining oshishi. Inflyatsiyaning to'liq ta'rifi- bu tovar aylanmasiga zarur bo'lgan pul massasi muomala vositalarining haddan tashqarari oshib ketishi, natijada pul birligi qadrining tushishi va o'z navbatiga tovar baholarning oshishi

Inflyatsiya deb pul muomalasi qonunlari buzilishi bilan bog'liq holda qog'oz pullarning qadrsizlanishiga aytiladi.

Bu yerda qog'oz pul miqdorining nisbatan ortib ketib, uning qadrsizlanishiga pulning ortiqcha emissiya qilinishi, pul emissiyasi o'zgarmasdan, uning aylanish tezligining oshishi, muomaladagi pul miqdori o'zgarmasa ham tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining kamayib ketishi, tovarlar va xizmatlar ijtimoiy qiymatining va, binobarin, narxining pasayishi va nihoyat, pul qiymatining pasayishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Qog'oz pullar inflyatsiyaga uchraganda uch xil narsaga nisbatan qadrsizlanadi:


1) oltinga nisbatan – bu oltinning qog'oz pullarda bozor narxining oshishida o'z ifodasini topadi;

2) tovarlarga nisbatan – bu tovarlar narxining oshishida o'z ifodasini topadi;

3) bardoshli chet el valyutalariga nisbatan – bu chet el valyutalariga nisbatan milliy pul kursining tushib ketishida o'z ifodasini topadi.

Inflyatsiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan o'lchanadi. Narxlar indeksi esa joriy davrdagi iste'mol narxlarini bazis davrdagi iste'mol narxlariga nisbati orqali aniqlanadi.

Иқтисодий ислохотларнинг мақсадларига ва ижтимоий барқарорликка эришиш учун меҳнат унумдорлиги ва иш ҳақи ўртасидаги фарқ 2.5 баравардан 3 бараваргача оширилиши лозим



8.1-rasm. Mehnat unumdorligi va ish haqi o'rtasidagi farq

Inflyatsiya turlari. Kelib chiqish sabablariga qarab:

Administrativ inflyatsiya «administrativ» boshqariladigan baholar tufayli paydo bo'ladi

Talab inflyatsiyasi. Ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la kondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovarlar bahosi o'sadi. Kam miqdordagi tovarlarga ko'p pul massasi to'g'ri keladi.

Taklif inflyatsiyasi, bunda baholarning o'sishiga sabab sifatida garchi resurslardan to'laligicha foydalanilmagan bo'lsada ishlab chiqarish xarajatlarini oshishini keltirish mumkin

Xarajatlar inflyatsiyasi, bunda ishlab, chiqarish omillari bahosi oshganda ishlab chiqarish xarajatlari ham oshadi va natijada ishlab chiqarish mahsulot narxi ham oshadi

Import inflyatsiyasi, bunda tashqi omillar ta'sir qilib, mamlakatga chet el valyutasining haddan tashqari oqib kelishi va import tovarlarining bahosi oshishi tufayli yuzaga keladi

Kredit inflyatsiyasi, ortiqcha kredit ekspansiyasi tufayli yuzaga keladi

Ko'rinishi jihatidan:

Ochiq inflyatsiya, ya'ni tovar va xizmatlarning erkin bozordagi inflyatsiyasi;

Yashirinchi (bosilgan) inflyatsiya, bunda davlatning baholarni bir darajada majburiy ushlab turishida paydo bo'ladi. Tovar defitsiti bo'lganda tovarlar «qora bozor»ga o'tib, u yerda ularning baholari doimiy ravishda o'sib boradi.

Ko'lamiga ko'ra: Mahalliy inflyatsiya, ayrim mamlakatlarda yuz beradigan inflyatsiya; Jahon inflyatsiyasi.

Tayanch so'z va iboralar

Ishsizlik va inflyatsiya makroiqtisodiy tahlilning asosiy ko'rsatkichlari. Ishsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida, uning turlari, shakllanish bosqichlari. Ishsizlikning YaIMga ta'siri va uni iqtisodiy tahlili. Ishsizlikni tahlil qilish usuli, uning miqdoriy me'yori. Ishsizlikni shakllantiruvchi omillar. Ishsizlik va bandlik. O'zbekistonning ishsizlikni kamaytirish siyosati. Ishsizlik darajasini iqtisodiy tahlili. Inflyatsiya va uning iqtisodiy mohiyati. Inflyatsiyani belgilovchi omillarning tahlili va ularning miqdoriy tarkibi. Mamlakat iqtisodiyotini mustaqillik yillaridagi rivojlanish davrida inflyatsiya darajasining dinamikasini iqtisodiy tarkibi, o'zgarish (kamayish) tendentsiyasi tahlili.

MAVZU-9. MAKROIQTISODIY PROGNOZLASHNING MOHIYATI, PREDMETI VA OB'YEKTI

Reja:

- 1. Iqtisodiy prognozlash tushunchasi, uning mohiyati va funksiyasi**
- 2. Prognoz, gipoteza va reja xaqida tushunchalar**
- 3. Prognozashtirish ob'ektining tizimli tahlili**

9.1. Iqtisodiy prognozlash tushunchasi, uning mohiyati va funksiyasi

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotni, kelajakni baholamasdan uning rivojlanish istiqbolini prognozlashsiz tasavvur qilish qiyin. Rejali ijtimoiy xo'jalik yuritish sharoitida iqtisodiy prognozlar jamiyat rivojlanishining mumkin bo'lgan maqsadlarni ularga erishishni ta'minlovchi iqtisodiy resurslarni, uzoq muddatli, o'rta muddatli va joriy rejalarning ehtimol bo'lishi mumkin bo'lgan va iqtisodiy jihatdan samarali variantlarni aniqlash uchun, iqtisodiy va texnik siyosatining asosiy yo'nalishlarini asoslash, qabul qilinayotgan qarorlarning natijalarini prognozlash va har bir muayyan vaqtda aniq tadbirlarni, faoliyatni amalga oshirish uchun zarur hisoblanadi. Bozor islohotlari va ilmiy-texnik taraqqiyotni takomillashtirish sharoitida prognozlash ijtimoiy rivojlanishining strategiya va taktikani shakllantirishning hal qiluvchi ilmiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Insonning aqliy faoliyati mobaynidagi eng asosiy va muhim jihatlardan biri – bu kelajakni oldindan bashorat qilishdir.

Bugungi kunda oldindan bashorat qilishning ikki xildagi ko'rinishi mavjud – ilmiy bashoratlash hamda ilmiy asoslanmagan bashoratlash. Ilmiy asoslanmagan bashoratlash – insonning topqirligi, sezgirligi bilan bog'liq bo'lgan bashoratlashlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy bashoratlashning oddiy bashoratlashdan printsiptial farqi shundaki, ilmiy bashoratlash orqali kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqea-hodisa to'g'risida ishonchliroq va aniqroq ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Bu orqali esa amaliyotda eng muhim va maqsadga muvofiq qarorlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ilmiy bashoratlashning xilma-xil shakllari orasida eng ko'p tarqalgan turlaridan bittasi prognozashtirish hisoblanadi.

Prognoz shu paytgacha hech bir til tizimida hali kuzatilmagan ehtimolli voqeani atamalar orqali qayd etishga, biror bir ob'ekt, jarayon, hodisaning holatini uzoq yoki yaqin kelajak uchun qayd etishga yordam beradi.

Prognozni ishlab chiqishda tekshirilgan, aniq va ziddiyatga uchramaydigan prognozashtirish metodidan foydalanish lozim. Ana shundagina, prognozni shaxsiy intuitiv tarzda emas, balki ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqilganligini etirof etish mumkin. Qolaversa, prognozashtirilgan voqea-hodisaning realizatsiyasini kelajakda tekshirish usullari ham aniq bo'lishi shart.

Shunday qilib, prognoz – bu kelajakda, ma'lum bir muddat oralig'ida ob'ekt, hodisa yoki jarayonlarning rivoji samarasi hamda ularning ehtimolli yo'nalishlari to'g'risidagi ilmiy-uslubiy asoslangan mulohaza hisoblanadi.

Prognozashtirish sohasi keng qamrovli va xilma-xildir. Bugungi kunda geografik, geologik, ekologik, tibbiy prognozashtirish, ilm-fan va texnika prognozi, iqtisodiy, sotsiologik, harbiy prognozashtirish, tashqi-siyosiy, yuridik, madaniy-estetik va boshqa turdagi prognozashtirish sohaslarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

9.2. Prognoz, gipoteza va reja xaqida tushunchalar

Gipoteza umumiy nazariya dairasidagi ilmiy bashoratni tavsiflaydi. Bu shuni anglatadiki, gipotezani tuzish dastlabki bazaviy nazariya va u asosida tadqiq etilayotgan ob'ektlarning

faoliyat ko'rsatishi va rivojlantirishning ochilgan qonuniyatlari hamda sabab-oqibat aloqalarini tashkil etadi. Gipoteza darajasida harakatlarning umumiy qonuniyatlarini ifodalovchi ushbu ob'ektlarning sifat jihatidan tafsiloti beriladi.


Prognoz gipotezadan farqli ularoq yanada yuqori aniqlikka ega, chunki nafaqat sifat o'lchamlariga, balki miqdoriy o'lchamlarga asoslanadi, shu bois ob'ektning kelajakdagi holatini miqdoriy jihatdan ham tavsiflashga imkon beradi. Prognoz aniq amaliy nazariya darajasida bashoratlashni nazarda tutadi. Shunday qilib, prognost gipotezadan noaniqlik darajasi past hamda yuqori darajali haqqoniyligi bilan farq qiladi. Shu bilan birga prognostning tadqiqot qilinayotgan ob'ekti, hodisa bilan bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi mavjud emas: prognost ehtimollik tavsifiga ega.

Reja aniq muayyan maqsadlarni qo'yish va tadqiq etilayotgan ob'ektning aniq hodisalarini bashoratlashni ko'zda tutadi. Unda belgilangan vazifalarga muvofiq tarzda rivojlanishning yo'llari va vositalari qayd etiladi, qabul qilingan boshqaruv qarorlari asoslanadi. Uning eng asosiy farq qiluvchi jihati - topshiriqning aniqligi va ko'rsatmali ekanligidadir. Shunday qilib, rejada bashoratlash yanada aniq holda namoyon bo'ladi. Prognost kabi reja ham aniq amaliy nazariya natija va yutuqlarga asoslanadi. **Qiziqarli ma'lumotlar**

Prognostlash shakllari o'z mohiyatiga ko'ra boshqarish va rejalashtirish tizimida bir-biri bilan va tadqiq etilayotgan ob'ekti bilan uzviy bog'liqlikda bo'lib, ob'ektning o'zining aniqliligi bilan istiqboldagi harakatlarini bilish bosqichlarining ketma-ketligini ifodalaydi. Ushbu jarayonning dastlabki qadami - ob'ektni u uchun yangi belgilangan holatiga o'tkazish rejasini tuzish hisoblanadi. Buning uchun eng muhim vositasi umumilmiy bashoratlash va reja o'rtasida bog'lovchi zanjir sifatida ishtirok etuvchi prognost xizmat qiladi.

Gipoteza umumiy tavsilotiga ega bo'lsa ham, usiz hech qanday ilmiy boshqarish va rejalashtirishni amalga oshirib bo'lmaydi. Gipoteza ushbu jarayonga ta'sir etib, uni tuzish uchun muhim axborot manbasi hisoblanadi. Ko'p holatlarda gipoteza bevosita rejalarni ishlab chiqishda ham huddi shu vazifani bajaradi.


Rejalashtirish bilan prognostlash bir biri bilan chambarchas bog'liq. Reja va prognost o'z mohiyatiga ko'ra rejaning ijtimoiy ishlab chiqarishini boshqarishda yetakchi bug'in sifatida hal qiluvchi rol uynayotgan sharoitda bir-birini o'zaro to'ldiruvchi rejalashtirish bosqichlarini ifodalaydi. Bunda prognost mavjud amaliyotning istiqbolda rivojlanish imkoniyatlariga qaratilgan omil sifatida xizmat qiladigan bo'lsa, prognostlash - rejalarni ishlab chiqish dastagi sifatida namoyon bo'ladi.



9.3. Prognozlashtirish ob'ekting tizimli tahlili

Prognozlashtirish jarayonida, prognoz uchun kerakli bo'lgan topshiriqlarni ishlab chiqish, har tomonlama prognozlashtirish ob'ekti tahlilini amalga oshirish shart. Ushbu analiz ob'ekting aniqlanishi va tadqiqot predmetini, uning prognozlashtirish maqsadi va vazifasini, tashqi manbalarga bog'liqligini, tuzilishini, ishlash mexanizmi hamda ular ustidan boshqaruv kabilarni o'zida mujassam etadi. Rasmiy nuqta'i nazardan qaraganda, ob'ektni izchil tadqiq qilish – optimal alternativ tanlovni amalga oshirishga hamda ob'ektni boshqaruvchi alternativ ta'sirlarning namoyon bo'lishiga, shuningdek, uning kelgusi korrektirovkalangan modellarining tuzilishiga olib keladi.

Biz ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni ko'rib chiqamiz, ularning tahlili esa prognozlashtirish ob'ekti sifatida qaralganda ancha murakkab, chunki ular murakkab tizimlar toifasiga kiradi.



9.1-rasm. Prognozlash jarayonlarining evolyutsiyasi

Tizim bir-biriga o'zaro ta'sir etuvchi elementlari, ularning xossalari va aloqalari mavjud bo'lgan butun bir kompleks sifatida qaralishi mumkin. Umuman olganda tizim – bu moddiy dunyoda elementlari mavjud bo'lgan, butun bir kompleksning ob'ektiv mavjudligiga asoslangan ilmiy abstraktsiya. Tizimning murakkabligiga oid faraz faqatgina uning elemenlariga emas, balki ular o'rtasidagi ko'p tarmoqli hamda ko'p qirrali aloqalarga, tizimning butunligiga doir maxsus xususiyatlarning namoyon bo'lishiga va uning kutilayogan holatiga bog'liq. Bu orqali murakkab tizimni ham elementlarning katta miqdori, ham ularning xilma-xil aloqalari aniqlaydi.

Murakkab tizimning xususiyatlarini ta'riflashda, avvalo, uning yaxlitlik xususiyatidan boshlaymiz. Murakkab tizim tarkibidagi biror bir element (qism)larda mavjud bo'lmagan xususiyatlarni namoyon qiladi. Demak, murakkab tizim uning tarkibini tashkil etuvchi qismlar va ularning xususiyatlari miqdoriga qaraganda ko'proq jihatlarni namoyon etadi. Murakkablik va yaxlitlikning o'zi tizimning yangicha xususiyatlarini vujudga keltiradi.

Tayanch so'z va iboralar

Prognoz va uning iqtisodiy mohiyati, prognoz turlari. Gipoteza, prognoz va reja haqida tushuncha. Makroiqtisodiy jarayonlar, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar prognozlash ob'ekti sifatida. Prognozlashtirish tamoyillari. Prognozlashtirishda iqtisodiy matematik usullardan foydalanish zaruriyati. Prognozlash natijalarining ishochliligi, sifat va ularga qo'yilgan talablar. Prognozlashtirishda axborot texnologiyalardan dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish shartligi.

MAVZU-10. IJTIMOIIY-IQTISODIY JARAYONLARNI PROGNOZLASH USULLARI

Reja:

1. Prognozlashtirish usullaridan samarali foydalanish.
2. Prognozlashtirish usullarining klassifikatsiyasi.
3. Prognozlashtirishda ekspert baholash usullari.
4. Korrelyatsiya va regressiya tahlili usuli
5. Regression tahlil.
6. Iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning matematik formulalar orqali ifodalanishi.

10.1 Prognozlashtirish usullaridan samarali foydalanish.

Hozirgi kunda olimlarning baholashicha 150 dan ortiq turli xil prognozlash usullari mavjud. Ammo amaliyotda asosiylari sifatida 15-20 tadan foydalaniladi. Mavjud manbalarda prognozlash usullarining turli tasnifiy tamoyillari keltirilgan.

Prognozlash usulining eng muhim tasnifiy belgilaridan biri prognostik usullarni to'liq qamrab oladigan rasmiylilik darajasi hisoblanadi. Ikkinchi tasnifiy belgilari sifatida prognozlash usuli amal qilishining umumiy tamoyili, uchinchi esa prognoz axborotini olish uslubi hisoblanadi, to'rtinchi asosiy belgisi esa prognoz ob'ektlarini o'ziga xos xususiyatlaridir.


Prognozlash usullarning tasnifiy guruhlarini batafsilroq ko'rib chiqishga o'tishdan oldin iqtisodiy va ijtimoiy prognozlash usuli yoki usullari tushunchasini aniqlash lozim. Ularga prognozlash ob'ektining retrospektiv ma'lumotlarni tahlil qilish, ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) aloqalar hamda ko'rib chiqilayotgan hodisa yoki jarayon doirasida ularning o'lchamlari asosida uning (ob'ektining) kelgusi rivojlanishiga nisbatan muayyan ishonchlilik to'g'risida mulohaza qilishga imkon beradigan fikr yuritishning uslub va usullar yig'indisi tushuniladi.

10.2. Prognozlashtirish usullarining klassifikatsiyasi.

Ilmiy asoslangan tasnif tasniflashning quyi pog'onasida (ularga yangi unsurlar kiritishi mumkin) uslub (modifikatsiyalar) sonini oshirishga imkon beradi. 1-rasmda prognozlash usullarning tasnifiy chizmasi keltirilgan. **Qiziqarli ma'lumotlar**

Rasmiylilik darajasi (birinchi tasnifiy belgi) bo'yicha iqtisodiy prognozlashning usullarini intuitiv va rasmiylashgan usullarga bo'lish mumkin. Prognozlashning intuitiv usullardan prognozlash ob'ektining juda murakkab bo'lganligi tufayli ko'plab omillarning ta'sir etishini hisobga olish imkoniyati bo'lmaydigan hamda prognoz ob'ekti bo'yicha yetarli axborot bo'lmagan holatlarda foydalaniladi. Bu holda ekspert baholashdan foydalaniladi va ular yakka va jamoa ekspert usullari guruhlaridan tashkil topadi.





10.1-rasm. Rasmiylilik darajasi bo'yicha prognozlash usullari

Yakka ekspert baholash tarkibiga quyidagilar kiradi: "intervъyu" usuli, ya'ni ekspert bevosita mutaxassis bilan "savol-javob" sxema bo'yicha suhbat quradi; tahliliy usul, ya'ni qandaydir prognoz qilinayotgan vaziyat mantiqiy tahlil qilinadi, tahliliy yozma ma'ruzalari tayyorlanadi; stsenariyni yozish usuli, ya'ni u turli sharoitlarda vaqt makonda jarayon va hodisalarning mantiqini aniqlashga asoslangan.

10.3. Prognozlashtirishda ekspert baholash usullari.

Prognozlarni ishlab chiqish uchun jamoa ekspert baholash usulining mohiyati ayrim mutaxassislar ilgari izohlab bergan prognozlash ob'ektini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ekspertlar fikrlarning muvofiqligini aniqlashdan hamda boshqa usul (masalan, tahlili hisob-kitob, sinov va h.k.) bilan aniqlashga imkon bo'lmaydigan ob'ektni rivojlantirish jihatlarini baholashdan iborat.

Jamoa ekspert baholash usulining mazmuni quyidagilardan iborat.

Birinchiidan, ekspert baholashni olib borishni tashkil etish uchun ishchi guruh tuzilib, ularning vazifalari so'rovnova o'tkazish, materiallarni qayta ishlash va jamoa ekspert baholash

natijalarini tahlil qilishdan iborat bo'ladi. Ishchi guruh mazkur sohaning rivojlanish istiqbollari ta'alluqli savollarga javob berishga ma'sul bo'lgan ekspertlarni taynlaydi. Prognozni ishlab chiqish uchun jalb qilinayotgan ekspertlar soni ob'ektning murakkabligiga qarab 5 tadan 50 tagacha bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, ekspertlarni so'rovnomaga o'tkazishni tashkil etishdan oldin ob'ektni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashtirish va bosh maqsad, unga erishish vositalarini aks ettiruvchi matritsani tuzish lozim. Bunda dastlabki tahlil qilish chog'ida mutaxassislar guruhi bilan hamkorlikda qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun eng muhim maqsadlar aniqlanadi. Maqsadga erishish vositasi deganda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning yo'nalishlari tushunilib, ularning natijalari prognozlash uchun amalda bevosita foydalanilishi mumkin. Bunda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning yo'nalishlari bir-biri bilan kesishmasligi mumkin, ushbu holatda o'zaro kelishuvga yuqori qo'yilmaydi, fikrlar alohida bo'lishi shart.

Jamoa ekspert baholashning keyingi bosqichi savollarni tuzishdan iborat. Ular keyinchalik ekspertlarga taqdim etiladi. Savollarning shakli jadval ko'rinishida ishlab chiqilishi mumkin, ammo ularning mazmuni prognoz qilinayotgan ob'ekt yoki tarmoqning ixtisosligiga mos kelish kerak. Bunda savollar muayyan tarkibiy-ierarxiya chizmasi bo'yicha tuzilishi, ya'ni keng savollardan tor savollarga, murakkab savollardan oson savollarga o'tilishi lozim.

Uchinchidan, ekspertlarni so'rovdan o'tkazish paytida alohida savollarning bir martadayoq tushunish hamda ekspertlarning fikr yuritish erkinligini ta'minlashi lozim.

To'rtinchidan, ekspertlarning umumiy fikrlari va shaxsiy baholashning muvofiqlik darajasini tavsiflab beruvchi jamoa ekspert baholash materiallarni qayta ishlash ishlari olib boriladi. Ekspertlarning baholash ma'lumotlarini qayta ishlash prognozli gipoteza va sohaning rivojlanish variantlarini sintez qilish uchun boshlang'ich material sifatida xizmat qiladi.

Yakuniy baholash barcha ekspertlarning o'rtacha fikrlari bilan, yoki o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi bilan yohud baholashning o'rtacha me'yorlashgan amalangan ko'rsatkich bilan aniqlanadi.

10.4. Korrelyatsiya va regressiya tahlili usuli

Umumlashgan katta sonni tahlil qilish va konkret kuzatishda u yoki bu qonuniyatlarni aniqlash zaruriyatligi ko'pgina iqtisodiy tadqiqotlarning harakterli xususiyati hisoblanadi. Real borliqda hech bir iqtisodiy zaruriyat bevosita sof holda namoyon bo'lmaydi.


Bir qiymatni o'zgartirish boshqasining o'rtacha qiymatining o'zgarishiga olib keladigan hollarda bog'lanishni o'rganish katta qiziqish uyg'otadi. Mana shunday bog'lanishga korrelyatsion bog'lanish deyiladi. Korrelyatsiyani tahlil qilishdan maqsad, hodisalar o'rtasidagi bog'lanishning zichligini o'rganishdir. Bog'lanishlar o'z mohiyatiga ko'ra sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Ijtimoiy hodisalar, shu jumladan, iqtisodiy hodisalar odatda murakkab bog'lanishga ega bo'ladi.

Korrelyatsion tahlil hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlaydigan usullardan biri hisoblanadi. Lekin faqat korrelyatsion tahlil bog'lanishning zichligi haqida oddiy baho bera oladi. Bu holat iqtisodiy tadqiqotlarda korrelyatsion tahlilni keng qo'llash imkoniyatini beradi. Korrelyatsion tahlil haqida gapirganda regression tahlilni unutmaslik kerak. Regression tahlil hodisalar o'rtasidagi bog'lanishning statistik tahlil usuli bo'lib, bog'lanish shakllarini tahlil qiladi. Regression tahlil natijalari regressiya tenglamalari va koeffitsientlarida sifat ifodasiga ega bo'ladi.

Korrelyatsion bog'lanishlar tasnifi quyidagi 1-chizmada keltirilgan. Korrelyatsion va regression tahlilning samaradorligi ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Korrelyatsion va regression tahlil qilishdan oldin o'rganilayotgan hodisalar

o'rtasida bog'lanish har tomonlama sinchiklab tahlil qilinishi lozim. Haqiqatan ham bog'lanish mavjud bo'lsa, korrelyatsion va regression tahlil usulidan foydalanish hamda real ahamiyatga ega bo'lgan natijalarni olish mumkin bo'ladi.

Korrelyatsion tahlilning birinchi vazifasi, korrelyatsion bog'lanish shakllarini, ya'ni regressiya funktsiyasi ko'rinishlarini (chiziqli, darajali, logarifmik va boshqalar) aniqlashdan iborat. Bog'lanish shakllarini tanlash regression tahlil va tanlanayotgan funktsiya haqidagi ma'lum gipotezalarni ishlab chiqish hamda tahlil qilishdan boshlanadi.



10.2-rasm. Korrelyatsion bog'lanish tasnifi

Regressiyalarni tenglashtirish korrelyatsion modellarning tarkibiy qismi bo'lib, uni to'g'ri tanlay bilish, modellashtirishning eng mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi.

10.5. Regression tahlil.


Iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarning murakkabligi ko'pincha mavjud hodisalar butun kompleksini tahlili bilan qamrab olish mumkin bo'lmagan holatni keltirib chiqaradi. Regressiyalarni konkret tenglashtirish har doim ma'lum darajada abstraktlash asosida quriladi. Regressiya tenglamalarini qurish hodisalar o'rtasidagi bog'lanish konkret shaklini aniqlashda gipotetik eksperiment hisoblanadi.

Regressiya tenglamasi shaklini tanlashda quyidagilarga rioya qilish lozim:

1. Bog'lanishning umumiy shakli, bog'lanishning tabiati va harakteriga nisbatan professional tushuncha mos kelishi kerak.

2. Imkoni boricha interpretatsiya va amaliy qo'llashda oson bo'lgan tenglamalarning eng sodda shakllaridan foydalanish lozim. Boshlang'ich ma'lumotlarning grafik tasviri - tarqoq diagramma va regressiyalarning empirik chiziqlari regressiyalarni tenglama shakllarini tanlashda yordam ko'rsatadi.

Odatda to'plamli korrelyatsiya bevosita to'plamli regression tahlil bilan bevosita aloqada tahlil qilinadi. To'plamli regressiya tenglamasi oddiy masshtab, ya'ni regressiya tenglamalariga kiruvchi o'zgaruvchi bir maromdagi normal va normallashtirilgan masshtabda yoki qiyoslash birligida ifodalangan o'zgaruvchilar shaklida tuzilishi mumkin.



Regressiya tenglamasi sifatida ko'pincha chiziqli:

$$\hat{y} = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n$$

va darajali funktsiyalardan foydalaniladi:

$$\hat{y} = a_0x_1^{a_1}x_2^{a_2}\dots x_n^{a_n}$$

Ushbu tenglama parametrlari odatda eng kichik kvadratlar usuli bilan aniqlanadi.

Umumiy holda normal tenglamalar tizimi quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{cases} na_0 + a_1 \sum x_1 + a_2 \sum x_2 + \dots + a_n \sum x_n = \sum y \\ a_0 \sum x_1 + a_1 \sum x_1^2 + a_2 \sum x_1x_2 + \dots + a_n \sum x_1x_n = \sum x_1y \\ \dots \\ a_0 \sum x_n + a_1 \sum x_1x_n + a_2 \sum x_2x_n + \dots + a_n \sum x_n^2 = \sum x_ny \end{cases}$$

Model darajalari parametrlarini aniqlash uchun oldingi modelni logarifmik-chiziqli ko'rinishga qayta o'zgartirish lozim:

$$\ln \hat{y} = \ln a_0 + a_1 \ln x_1 + a_2 \ln x_2 + \dots + a_n \ln x_n$$

Shundan so'ng normal tenglamalar tizimini tuzishda logarifmlardan foydalanamiz.

$$\begin{cases} n \ln a_0 + a_1 \sum \ln x_1 + a_2 \sum \ln x_2 + \dots + a_n \sum \ln x_n = \sum \ln y \\ a_0 \sum \ln x_1 + a_1 \sum \ln x_1^2 + a_2 \sum \ln x_1 \ln x_2 + \dots + a_n \sum \ln x_1 \ln x_n = \sum \ln x_1 \ln y \\ \dots \\ a_0 \sum \ln x_n + a_1 \sum \ln x_1 \ln x_n + a_2 \sum \ln x_2 \ln x_n + \dots + a_n \sum \ln x_n^2 = \sum \ln x_n \ln y \end{cases}$$

Bog'lanishning zichligi korrelyatsiyalar indeksiga o'xshash bo'lib, to'plamli korrelyatsiya koeffitsienti yordamida baholanadi:

$$R_{yx_j} = \sqrt{1 - \frac{\sum (y - \hat{y})^2}{\sum (y - \bar{y})^2}}$$

bu yerda, \hat{y} - regressiya tenglamasi yordamida aniqlangan natijaviy ko'rsatkichning nazariy qiymati;

- \bar{y} natijaviy ko'rsatkichning o'rtacha arifmetik qiymati.

To'plamli regressiyalar chizig'idan natijaviy ko'rsatkich qiymati qanchalik kam darajada chetlansa, ma'lum intervalda absolyut qiymat bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan korrelyatsiya koeffitsienti katta qiymatga ega bo'lishiga bog'liq bo'ladi. To'plamli korrelyatsiya koeffitsienti quyidagi oraliqda o'zgaradi:

$$. 0 \leq |R| \leq 1$$

10.6. Iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning matematik formulalar orqali ifodalanishi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda qo'llanilayotgan korrelyatsion formulalar turli shaklga ega. Iqtisodiy qatorlar dinamikasi o'rtasidagi bog'lanishlar chizig'i shaklini aniqlayotganda, ko'pchilik hollarda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

Chiziqli - $y = a_0 + a_1x$

Ikkinchi darajali parabola - $y = a_0 + a_1x + a_2x^2$

Uchinchi darajali parabola - $y = a_0 + a_1x + a_2x^2 + a_3x^3$

n - darajali parabola - $y = a_0 + a_1x + a_2x^2 + \dots + a_nx^n$

Ikkinchi darajali giperbola - $y = a_0 + \frac{a_1}{x}$

b - Ikkinchi darajali giperbola - $y = a_0 + \frac{a_1}{x^b}$

Logarifmik - $\log y = a_0 + a_1x$

Yarim logarifmik - $y = a_0 + a_1 \ln x$

Ko'rsatkichli funktsiya - $y = a_0 a_1^x$

Darajali funktsiya - $y = a_0 x_1^{a_1}$

Logistik funktsiya - $y = \frac{a_0}{1 + a_1 e^{-bx}}$

Tayanch so'z va iboralar

Prognozlashtirish usullaridan samarali foydalanish. Usullarni tasniflash belgisiga ko'ra prognozlashtirish. Prognozlashtirish usullarining klassifikatsiyasi. Intuitiv va formal usullar. Prognozlashtirishda ekspert baholash usullari. Ekstropolyatsiya usullari. Korrelyatsiya va regressiya tahlili usuli. Iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari. Prognozlashtirishning normativ usuli. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy prognoz qilish zarurati. Asossiz qarorlar qabul qilinishidan ko'riladigan zararlar. Iqtisodiy prognozlar qilishning uzoq muddatli, o'rta muddatli va kundalik rivojlanish yo'llarining eng samarali variantlarini aniqlash. Ob'ekt va muammolarni tahlil qilish. Ob'ektning rivojlanish tendentsiyasi. Regression tahlil. O'rganilayotgan ob'ektning tasodifiy xarakterga bog'liqligi. Matematik apparatdan iqtisodiy tadqiqotda foydalanish. Iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning matematik formulalar orqali ifodalanishi

MAVZU-11. MAKROIQTISODIY PROGNOZLASH MODELLARI

Reja:

1. Iqtisodiy-ijtimoiy prognozlashtirish modellarining klassifikatsiyasi.
2. Ekonometrik modellar.
3. Makroiqtisodiy modellar.
4. Iqtisodiyotni rivojlantirish modellari.
5. Tarmoqlararo dinamik balans modeli
6. Prognozlashtirishni mukammallashtirishning muhim yo'nalishlari.
7. Mahsulot xom ashyo nomenklaturasiga asoslangan modellar.

11.1. Iqtisodiy-ijtimoiy prognozlashtirish modellarining klassifikatsiyasi.

Model iqtisodiy prognozlashning, tadqiqot qilinayotgan jarayonlarni ilmiy jihatdan bilish dastaklardan biri hisoblanadi. Modellashtirish jarayonining mazmuniga ob'ekt yoki jarayonni dastlab o'rganib olish, uning muhim tavsilotlarini yoki belgilarini aniqlash asosida modellarni tuzish, modellarni nazariy va sinovli tahlil qilish, modellashtirish natijalarni ob'ekt yoki jarayon to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlar bilan taqqoslash, modelni to'g'rilash va aniqlashtirish kabilar kiradi.

Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar rivojlanishining qonuniyatlarini o'rganish vositasi iqtisodiy-matematik modeli hisoblanadi. Iqtisodiy-matematik modeli o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy tizimni hosil qiluvchi elementlarining asosiy o'zaro aloqasini izohlab beruvchi rasmiylashgan nisbatlar tizimini ifodalaydi.

Iqtisodiy va ijtimoiy parognozlash modellarining ayrim turlari optimallashtirish mezonini yoki eng yaxshi kutilayotgan natijaga qarab tasniflanishi mumkin. Xususan, iqtisodiy-matematik modellar (unda xarajatlar minimallashtiriladi) va masalan imkon qadar ko'p mahsulot olishga qaratilgan modellar ajratiladi.

Qiziqarli ma'lumotlar

Vaqt omilini hisobga olgan holda modellar statistik (ya'ni modelda rejali davr mobaynida muayyan bir vaqt kesimi uchun chegaralar qo'yilgan va bu sharoitlarda xarajatalar minimalashtiriladigan yoki yakuniy natija maksimalashtiriladigan holatlar mavjud) yoki dinamik (bu holatda chegaralar butun rejali davr uchun samarani huddi shunday minimallashtirish yoki makismallashtirish sharoitida bir nechta vaqt kesimi uchun o'rnatilgan).



Chiziqli, nochiziqli turdagi ko'p omilli modellar prognoz qilinayotgan ko'rsatkichning darajasi va dinamikasiga bir vaqtning o'zida bir nechta omillarning ta'sir etishini hisobga olishga imkon beradi. Ushbu modellar jumlasiga makroiqtisodiy ishlab chiqarish funktsiyalarni tavsiflovchi modellar, aholi daromadlari, narx, to'yinganlik darajasi, unumli iste'mol me'yorlari va h.k. ga qarab alohida iste'mol buyum uchun talabni tahlil qilish modellari kirishi mumkin.

11.2. Эконометрик modellar.

Quyidagi ekonometrik modellarni ajratib olish mumkin: omilli, tarkibli va kombinatsion. Bitta model turi turli iqtisodiy ob'ektlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Agregirlashgan darajasiga qarab iqtisodiyotni rivojlanishining ko'rsatkichlarini makroiqtisodiy, tarmoqlararo, hududlararo, tarmoqli, hududiy modellarga bo'linadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish jihatlari bo'yicha asosiy fondlarni, mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish, moliya tizimi va narx shakllantirish hamda boshqa modellar ajralib turadi.

Ekonometrik modellarning o'zgaruvchan ko'rsatkichlari ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) modellarga bo'linadi. Masalan modeldagi ekzogen omillar korxonaga uchun yetkazib berishlarning jo'shqinligini, endogen omillar esa korxonada mehnat resurslarining mavjudligini ko'rsatib berishi mumkin.

Omilli modellar o'zgaruvchi ko'rsatkichlarning turli miqdorini va ularga mos ravishda o'lchamlarini o'z tarkibiga olishi mumkin. Omilli modelning sodda turi bir omilli model

hisoblanadi. Unda omil sifatida biron bir vaqt ko'rsatkichi xizmat qiladi. Bu holatda u yoki bu ko'rsatkichni tahlil va prognoz qilish vaqtning xronologik qatoriga nisbatan bog'liqlikda amalga oshiriladi va shu yo'l bilan trendlar (u yoki bu dinamik qatori o'zgarishining umumiy tendentsiyani tavsiflovchi bog'liqlik) aniqlanadi.

Tarkibiy modellar bir butun yoki agregatni shakllantiruvchi alohida unsurlar o'rtasidagi nisbatlarni, aloqalarni izohlab beradi. Ushbu modellar tarkibiy-balans turdagi modellar sirasiga kiradi, ya'ni unda u yoki bu agregatni tarkibiy qismlarga bo'lish bilan bir vaqtda ushbu unsurlarning o'zaro aloqalari ko'rib chiqiladi. Bunday modellar matritsali shaklga ega va tarmoqlararo hamda hududlararo aloqalarni tahlil qilish va prognozlash uchun qo'llaniladi. Ular yordamida oqimlarning, o'zaro aloqalari masalan mahsulotni sohalararo yetkazib berish izohlanadi. Tarkibiy-balans modelining eng keng tarqalgan shakli ishlab chiqarishning tarmoqlararo balansini va mahsulotlarni taqsimlash hisoblanadi.

11.3. Makroiqtisodiy modellar.

Tarmoqlararo modellar majmuasi yiriklashgan dinamik va kengaytirilgan tabiiy-qiyamli modellarni o'zi ichiga oladi. Tizimning hamjihatligi milliy daromad, uni taqsimlash tuzilmasi hamda moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining sarmoya qo'yilmalarga bo'lgan ehtiyojlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va boshqalar kabi yiriklashgan dinamik modelining asosiy ko'rsatkichlarning tabiiy-qiyamli tarmoqlararo balansini tuzish uchun qo'llanilishi bilan ta'minlanadi.



Zamonaviy dinamik tarmoqlararo modellar iqtisodiy rivojlanishning sur'atlari va nisbatlarini aniqlovchi uchta asosiy omillar guruhi bo'yicha iqtisodiyotning rivojlanish istiqbolini bashoratlashga imkon beradi. Xususan ular quyidagilar: rejali davr boshiga yig'ilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarnimiyyosi va tarkibi bilan tavsiflanadigan iqtisodiy salohiyatning boshlang'ich darajasi; mehnat resurslaridan unumli foydalanish ko'rsatkichlar o'zgarishining istibolli tendentsiyalar; jamiyatning yakuniy ehtiyojlarining istiqbolli tarkibi.

11.4. Iqtisodiyotni rivojlantirish modellari.

Iqtisodiy-matematik modeli masalan quyidagicha ifodalanilishi mumkin . $Z = aX$ Bu model misol tariqasida u yoki bu buyumni tayyorlash uchun talab qilinadigan materiallarga bo'lgan prognoz talablarini aniqlashda qo'llanilishi mumkin. Bu holatda X – buyumlar soni, a – bitta buyum uchun material sarflanish me'yori, Z –materiallarga bo'lgan umumiy ehtiyoji.

Iqtisodiy-matematik modeli, agar bir nechta tur buyumlarni tayyorlash uchun materiallarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash kerak bo'lsa, murakkab ko'rinishga ega bo'ladi: $Z = a_1X_1 + a_2X_2 + a_3X_3 + \dots + a_nX_n$ yoki $= \sum_{i=1}^n a_i X_i$, bu yerda $n = 1, 2, 3, \dots, n$. Ushbu model materiallarga bo'lgan ehtiyojning ikki guruh omillarga bog'liq ekanligini ko'rsatib turibdi: tayyorlanayotgan buyumlar soni va buyum uchun materiallar sarflanish me'yori. Bunday model deskriptiv (lotincha “desckribo”)deb ataladi.

Bir mahsulotli model nafaqat bir mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sohalarda, balki bir qator holatlarda agar ishlab chiqariladigan mahsulotlar iste'mol qilinishda bir-birini o'rnini bosadigan bo'lsa yoki ularni mutlaq ko'rsatkichlar qo'llanilishi mumkin. Ko'p mahsulotli modellarda butun tarmoq ishlab chiqarayotgan mahsulotga va xomashyo yoki boshqa qandaydir resurslarni iste'mol qilishga bo'lgan talab bo'yicha ikkita yoki undan ham ko'p chegaralar ko'rib chiqiladi. Ushbu modellarda turli mahsulotlarni iste'molida o'rnini bosadigan xususiyatini hisobga olgan holda turdosh mahsulotga keltirish imkoniyatidan unumli foydalanilishi mumkin.

11.5. Tarmoqlararo dinamik balans modeli

Tarmoqlararo balans modellari iqtisodiyotni va uning tarmoqlarini prognozlash aloqalarini ta'minlash, ularni miqdoriy bog'liqligini ta'minlash, iqtisodiy tahlil qilish va shular asosida prognozlashtirish hamda rejalashtirish uchun asosiy vositalardan bo'lib hisoblanadi.

Tarmoqlararo balans ishlab chiqarishni va barcha tarmoqlar hamda mahsulotlarning aniq belgilangan turlarini prognozlashda, rejalashtirishda investitsiyalarni, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tahlil qilish mehnat miqdorini rejalashtirishda, ishlab chiqarishni hududlar bo'yicha tashkil qilishda keng qo'llanilmoqda.

Tarmoqlararo balanslar modelining amalda keng qo'llanilishi makroiqtisodiy tahlil yanada ilmiy asosli o'tkazilishi, prognozlarni ilmiyligini va real rejalashtirishni ta'minlaydi.

Tarmoqlararo balans kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishning o'zaro aloqalar tizimi va proportsiyalarini o'rganishda, tahlil qilishda, prognozlashda eng ixcham, amalda keng qo'llash mumkin bo'lgan vositalardan, mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu balans yordamida makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan hisoblangan yalpi ichki mahsulot pirovard ya'ni yakuniy mahsulot va milliy daromad tuzilishini, mahsulotlarni takror ishlab chiqarish fondlari o'rtasida taqsimlanish strukturasi va ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlarini tuzilishini har tomonlama tahlil qilish va tegishli xulosalar asosida samarali boshqaruv yechimini qabul qilish mumkin.

Tarmoqlararo balansning oddiy ko'rinishi statistik model asosida ifodalanib, ma'lum davrdagi resurslar va ehtiyojlarning miqdoriy jihatdan o'zaro moslashishini ta'minlaydi, ishlab chiqarish resurslarining cheklanganlik shartlari, ishlab chiqarish bilan mahsulotlardan foydalanishning balans munosabatlari, zarur texnik texnologik shartlar va boshqalarni bajarilgan holda prognozlash va uning asosida rejaning mumkin bo'lgan variantlarini topishga imkon yaratadi.

Tarmoqlararo balansning statik modeli bir yillik davr uchun tuziladi, bir yillik holatdan tashqaridagi o'zgarishlar inobatga olinmaydi. Amalda esa ishlab chiqarish doim rivojlanib, kengayib boradi. Ushbu holat statik tarmoqlararo balansda o'z aksini topmaydi. Bu kamchilikni yo'qotishning ob'ektiv yo'li doimiy harakatdagi o'zgarishlarni inobatga oluvchi, kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishni ifodalovchi dinamik tarmoqlararo balans tuzishdir.

11.6. Prognozlashtirishni mukammallashtirishning muhim yo'nalishlari.


Prognozlash bu kelajakni, harakatdagi hatosini baholash, shuning uchun makroiqtisodiy jarayonlarni, tarmoqlarni o'zaro aloqadagi holatlarini prognozlashda ko'proq dinamik tarmoqlararo balans modellardan foydalanish maqsadiga muvofiq hisoblanadi.

Prognoz natijalarning sifatini oshirish uchun prognoz ob'ektning xususiyatlarini chuqur o'rganib, uning har bir elementini vaqt birligida o'zgarishini chuqur o'rganish, tadqiqot qilish zarur. Iqtisodiyotning makrodarajasi o'ta murakkab tizim hisoblanadi. Chunki barcha tarmoqlar bir biri bilan bevosita ajralmas holda bog'liqdir. Alohidabir tarmoqning rivojlanishini prognoz qilmoqchi bo'lsak, uning boshqa tarmoqlar bilan bog'liqlik darajasini inobatga olmaslik prognoz natijalarini talablarga o'liq javob bermaydi.

Prognoz asosida makrodarajada shakllantirilgan rejani amalda bajarilishini ta'minlash, tarmoqlar o'rtasida disproportsiya bo'lmasligi, tarmoqlararo materiallar xarajatlari qanday bo'lishi kerakligi, yakuniy, yalpi va materiallar xarajatlari o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni aniqlash faqat tarmoqlararo balans modellari asosida amalga oshirilishi mumkin.

11.7. Mahsulot xom ashyo nomenklaturasiga asoslangan modellar.

Ishlab chiqarish jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin. (shartli bir yillik holat)



11.1-Rasm. Oddiy ishlab chiqarish jarayoni

Oddiy ishlab chiqarish jarayonida ni miqdordagi ishlab chiqarish resurslarni ishlab chiqarish jarayoniga kiritildi va j-turdagi N miqdorli mahsulot ishlab chiqarildi. Ushbu jarayon iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini o'zaro bog'liqda va bevosita o'zaro aloqada bo'lgan holda amalga oshiriladi. Tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish xarajatlari harakatini, natijada yakuniy va yalpi ichki mahsulotlar ishlab chiqarish holatini quyidagi statik tarmoqlararo balans orqali ifodalash mumkin.

Statik tarmoqlararo balans ustunlarida moddiy xarajatlar tuzilmasi va har bir tarmoqning sof daromadi aks ettirilgan.

Moddiy xarajatlar va sof daromad jami tarmoqning yalpi mahsulotiga teng. Birinchi iste'molchi tarmoqning yalpi mahsuloti quyidagicha bo'ladi:

$$X_1 = X_{11} + X_{21} + X_{31} \dots + X_{n1} + V_1 + m_1 = \sum_{i=1}^n x_{i1} + V_1 + m_1,$$

Barcha tarmoqlar uchun ham quyidagi tenglik o'rinli.

$$X_j = \sum_{i=1}^n x_{ij} + V_j + m_j \text{ bu yerda } j=1, n$$

Statik tarmoqlararo balans qatorlarida har bir moddiy ishlab chiqarish tarmog'i bir yillik mahsulotining taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

N-jadval bo'yicha birinchi qator quyidagi tenglama orqali ifodalanishi mumkin, ya'ni:

$$X_1 = X_{11} + X_{12} + X_{13} \dots + X_{1n} + Y_1 = \sum_{j=1}^n x_{1j} + Y_1$$

Shuningdek boshqa tarmoqlar bo'yicha quyidagi umumiy tenglamani asos qilib olish mumkin.

$$X_i = \sum_{j=1}^n x_{ij} + y_i, (i=1, 2, 3, \dots, n)$$

Tarmoqlararo balans parametrlari o'rtasidagi bevosita aloqalarni iqtisodiy baholash uchun turli ko'rinishdagi koeffitsientlardan foydalanish mumkin. Hisobot davridagi tarmoqlararo balans ma'lumotlaridan foydalanib bevosita moddiy xarajatlar koeffitsientlarini (a_{ij}) tarmoqlararo material oqimlari miqdorini iste'mol qiluvchi tarmoqlar yalpi ichki mahsuloti nisbati orqali hisoblash mumkin, ya'ni

$$a_{ij} = \frac{X_{ij}}{X_j}$$

Bevosita xarajatlar koeffitsientlari kvadrat matritsani tashkil etadi.

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} & \dots & a_{2n} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} & \dots & a_{3n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & a_{n3} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}$$

Agar a_{ij} ning qiymati aniq bo'lsa tarmoqlararo xarajatlar oqimi quyidagicha topiladi.

$$X_{ij} = a_{ij} X_j$$

Yuqoridagi formuladan qator bo'yicha tarmoqning yalpi ichki mahsulotini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$X_i = \sum_{j=1}^n a_{ij}X_j + Y_i$$

Tayanch so'z va iboralar

Iqtisodiy-ijtimoiy prognozlashtirish modellarining klassifikatsiyasi. Ekonometrik modellar. Makroiqtisodiy modellar. Iqtisodiyotni rivojlantirish modellari. Tarmoqlararo dinamik balans modeli. Tarmoqlar va hududlar rivojlanishidagi iqtisodiy modellar. Tarmoqlararo balansda sanoat, kapital qo'yilmalar, mehnat resurslari balansi. Tarmoqlar orasidagi o'zaro bog'liqliklar. Hisobga olingan davr uchun qator yillarda mahsulot ishlab chiqarilishi va taqsimlanishi ko'rsatkichlarini hisoblash. Prognozlashtirishni mukammallashtirishning muhim yo'nalishlari. Iqtisodiy o'sishning asosiy parametrlarini prognozlashtirishda verifikatsion-statistik yondashish. Dinamik vaqt qatori ma'lumotlaridan maksimal foydalanishga asoslangan holda ularning haqiqiy iqtisodiy jarayonlar bilan moslangan chiziqli va chiziqsiz tipdagi ko'p omilli modellari. Tarkibiy modellar. Mahsulot xom ashyo nomenklaturasiga asoslangan modellar. Mahsulot talabiga ko'ra ikki yoki undan ortiq modellar, tarmoqli va optimal rejalashtirish modellari. Milliy daromadni taqsimlash modellari. Aholi turmush darajasi modeli. Iste'mol tarkibi modeli. Ekosiyosat modeli. Ish haqi va daromadlarni taqsimlash modellar.

MAVZU-12. IQTISODIY O'SISHNI PROGNOZLASH


Reja:

1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi.
2. Iqtisodiy o'sish turlari, ularning prognozlashtirishda ishlatilishi.
3. Iqtisodiy o'sishni prognozlashtirishda ishlab chiqarish funksiyasi.
4. Ekstropolyatsiya usuli, korrelyatsion analiz usuli.
5. Makroiqtisodiy o'sishni prognozlashtirish.

12.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi.

Economic Growth

- Economic growth is the increase in value of the goods and services produced by an economy over a period of time
- It is conventionally measured as the per cent rate of increase in real GDP
- Growth is usually calculated in real terms, i.e. inflation-adjusted terms, in order to net out the effect of inflation on the price of the goods and services produced
- In economics, "economic growth" typically refers to growth of potential output i.e., production at full employment, which is caused by growth in aggregate demand or observed output (GDP).



Iqtisodiy o'sish tushunchasining mohiyati ishlab chiqarish hajmining kengayishi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi va milliy daromadning ko'payishi bilan ifodalanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning rivojlanishi va funktsionallashtirish qonuniyatidir. Shu bilan bir qatorda bozor iqtisodiyotida, jamiyat talabini to'la to'kis kondira oladigan va ishlab chiqarish kuchlari yuqori darajada rivojlangan, bilimlar asosida iqtisodiyotni boshqarish natijasida iqtisodiy o'sishga erishish talab qilinadi. Iqtisodiyotni tahlil qilish va prognozlash nazariy va amaliy jihatdan 2 xil bo'ladi: moddiy, omilli va narxli; milliy daromadni iste'molga va jamg'arishga taqsimlanish nuqtai nazardan. Ishlab chiqarishni bunday tashkil etilishi iqtisodiy o'sishga olib keladi, u mamlakat iqtisodiyoti darajasida milliy daromadlar ko'rinishida yoki yakuniy yalpi mahsulot ko'rinishida ko'rib chiqish qulay bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy darajalarinig umumiy sifatidan kelib chiqib iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari quyidagilarga bo'linadi:

- u ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liqligini va ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ko'rsatib beradi;
- korxonalar faoliyati va tarmoqlarning ob'ektiv va subektiv farqini ko'rsatib, ularni butun xo'jalik mexanizmini bir qismi sifatida ko'rib chiqadi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini bir maromda o'sishi ishchi kuchi va ishlab chiqarish jihozlariga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ular o'zaro o'rin bosuvchi omillar bo'lib hisoblanadi. Lekin har bir omilning talab qilinadigin me'yorlari mavjudki, ushbu me'yor bajarilmaganda nafaqat iqtisodiy o'sish bo'lmasligi, balki umuman ishlab chiqarish jarayonini to'xtashiga olib kelishi mumkin. Ushbu bog'liqlik darajasidan va yakuniy mahsulot hajmining o'sish ko'rsatkichi orqali, ishlab chiqarishni kengayishi va iqtisodiy o'sishning turi aniqlanadi. Iqtisodiy o'sishda real milliy daromad oshish sur'atlari aholi o'sishi sur'atlarini oshiradigan milliy iqtisodiyot rivojlanishi nazarda tutiladi. Bu o'sish muammolarini tashqi kuzatuvchi nuqtai nazaridan emas, mamlakat aholisi pozitsiyasidan turib ko'rib chiqishni taqozo etadi. Iqtisodiy o'sishni ishlab chiqarish real hajmining oshish sur'atlari nuqtai nazaridan qarab chiqishda odatda (aniq va noaniq shaklda) iqtisodiyotda chuqur tuzilmaviy va institutsional o'zgarishlari yuz bermasligi tahmin qilinadi. Ishlab chiqarish tuzilmasi va institutsional muhit murakkab va o'zgarimas hisoblanadi. Bunday rivojlanish karakteri tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirda balanslangan va yaxlitlik xususiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy tizim uchun o'ziga xos.

12.2. Iqtisodiy o'sish turlari, ularning prognozashtirishda ishlatilishi.



Iqtisodiy o'sish yuz berishi uchun bozor talabiga muvofiq tovar va xizmatlarni yaratish kerak bo'ladi. Biz bilamizki, iqtisodiy o'sish YaIM ko'payishini anglatadi. YaIM esa tovar va xizmatlarning bozordagi qiymati, agar ular sotilmasa bozor qiymati yuzaga kelmaydi. Shu sababli bozorbop tovar va xizmatlarni yaratish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Resurslar kamyob bo'lganidan, ulardan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning asosiy shartiga aylanadi.

Iqtisodiy o'sishning o'sish sur'atiga(dinamikasiga) qarab milliy iqtisodiyotning darajasi hamda resurslarning chegaralanganlik muammolari tahlil etiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu tushunchaga alohida talqin berilmagan.

Ba'zi iqtisodchilar(Makkonnell, Bryu) iqtisodiy o'sishni 2 xil usul bilan xisoblash mumkin, deb hisoblaydi, ya'ni:

1. Yalpi milliy mahsulotning umumiy o'sishini hisoblash orqali (yoki sof milliy mahsulotni);
2. Yuqorida hisoblangan ko'rsatkichlarni aholi jon boshiga taqsimlash orqali xisoblaydi. Iqtisodiy o'sishni 3 xil ko'rinishi farqlanadi: ekstensiv, intensiv va aralash (xaqiqiy).



12.1-Rasm. O'zbekistonda YaIM va bandlik tuzilmasidagi o'zgarishlar

Makrodarajada YaIM ning o'sish sur'ati, aholi jon boshiga YaIM taqsimotining yillik o'sish sur'ati, YaIM yillik o'sishini keltirish mumkin.

- YaIMning yillik usish sur'ati $= (YaIM2 - YaIM1) * 100;$
- YaIM aholi jon boshiga taqsimotining yillik o'sish sur'ati $= YaIMning yillik qo'shimcha o'sish sur'ati / Aholi soni;$
- YaIMning yillik usishi $= (YaIM2 / YaIM1) * 100;$

Yuqoridagilardan qaysi ko'rsatkich zarurligi to'grisida fikrlar yuradi. Mumkin bo'lgan variantlar:


- a) yuqori o'sish sur'ati;
- b) nol holidagi o'sish;
- c) manfiy o'sish sur'ati;
- d) optimal o'sish sur'ati.

12.3. Iqtisodiy o'sishni prognozlashtirishda ishlab chiqarish funktsiyasi.

Ishlab chiqarish funktsiyasi – bu, iqtisodiy-matematik tenglama bo'lib, ishlab chiqarish o'sishi bilan harajat o'sishining o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Matematik ishlab chiqarish funktsiyasi turli xil shakllarda bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish natijalari chiziqli bog'lanishga o'xshagan 1 tadan 8 tagacha murakkab ishlab chiqarish funktsiyalari bir necha omillarga bog'langan darajali funktsiyalardir.

Birgina iqtisodiy o'sishning omillari modellari ishlab chiqarish ob'ektini prognozlashning sistemasiga, uning hajmiga bog'liq bo'lgan dinamikasiga va boshqa biror omilning dinamikasiga asoslangan.

Iqtisodiy o'sishga ko'p omillar ta'sir etadi, shulardan asosiylari: taklif omili, talab omili va taqsimot omili.



Omillar ta'siriga qarab iqtisodiy o'sish modellari tuziladi. Ularning 2 xil ko'rinishi mavjud, ya'ni 2 omilli va ko'p omilli.

Ishlab chiqarish funktsiyasi shaklidagi model: $Y=A_0 KL$

Y= ishlab chiqarish hajmi

K=kahital

L=mehnat sarfi

A_0 -parameter (ishlab chiqarish hajmini necha barobar oshisini bildiradi) iqtisodiyotda eng ko'p tarqalgan.

Iqtisodiy o'sishni prognozlashtirish ekonometrik modeli quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Y= a_0 X1_{21} X2_{22} X3_{23}$$

Ko'rsatkichlar dinamikasi qatorining o'zgarish tendentsiyasini izlash turli xil vaqtinchalik funktsiyalar yordamida o'tkaziladi.

Kelajakda iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini saqlab qolish uchun vaqtinchalik funktsiyalar bilan ishlab chiqarish dinamikasini prognozlashtirishda topilgan baholar yoki alohida omillar ekstrapolyatsiya qilinadi. Ekstrapolyatsiya modellarini 5 yildan 7 yilgacha qo'llanilishi ko'proq foydali va yaxshi natija beradi. Bu usullar uzoq muddatga qo'llanilganda aniqlik darajasi kamayadi.

12.4. Ekstrapolyatsiya usuli, korrelyatsion analiz usuli.

Ekstrapolyatsiya yordamida jarayonlar yuzaga kelishida, odatda, u yoki bu ko'p miqdoriy ob'ekt tavsifi statistik tendentsiyalarini yigishda, o'zgarish nuqtasidan boshlanadi. Ekstrapolyatsiya usullari eng ko'p tarqalgan va barcha prognozlash usullari orasida nisbatan ko'p ishlab chiqilgan usullardan hisoblanadi.

Ekstrapolyatsiya usulining maqsadi quyidagicha hisoblanadi:

Prognozlash ob'ektini xarakterlovchi o'tgan davrga nisbati, tadbiri qilish qonuniyatlari aniqlanadi va mos xolda bu ma'lumotlarning o'sish potentsiallari to'grisidagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, so'ngra tashqi muxitda emperik yoki dinamik qatorda bo'lgan prognozlovchi kattaliklarning qiymatlari aniqlanadi.

Regretsion taxlil - o'rganilayotgan tasodifiy xarakterning tasodifiy me'yorini va o'rganilayotgan miqdoriy o'zaro munosabatlar o'rtasidagi boglanishni ishlash uchun ko'llaniladi. Ya'ni, tasodifiy va iqtisodiy me'yorlar o'rtasidagi boglanish regretsiya deb ataladi. Regretsion taxlil-ushbu boglanishning taxlili usulidir.

Regressiya o'rtacha natija belgilarining omil belgilari bilan bogliqligini ko'rsatadi.

Prognozlash uchun regression taxlil usuli ko'llanilayotganda matematik formula tuziladi. U formula prognozlashtirish ob'ekti bilan birga unga ta'sir etuvchi bitta yoki bir nechta omillarning boglanishini o'zida aks ettiradi. Bu usul ishlatilayotgan ob'ektning xususiyatini taxlil qilishga imkon beradi. Bunda namuna tuzilib, undan so'ng namunadagi bir ko'rsatkichning axamiyatini boshqa ko'rsatkichga bogliqligi xisoblanadi.

Regressiya.

Juft korrelyatsiya koeffitsientining axamiyati-tanlanish xajmiga bogliq tasodifiy me'yordir.


Nazorat soni pasaygan sari korrelyatsiya koeffitsientining ishonarliligi pasayadi.

Korrelyatsiya koeffitsientining kvadrati determinatsiya koeffitsienti deb ataladi va nazariy moxiyati o'zgaruvchining xaqiqiy moxiyatiga mos kelishini ko'rsatadi.

Ko'plik korrelyatsiya koeffitsienti (R) bo'yicha argument va funktsiya omillari o'rtasidagi bogliqlik muxokama qilinadi.

12.5. Makroiqtisodiy o'sishni prognozlashtirish.

Ko'rsatkichlar dinamikasi qatorining o'zgarish tendentsiyasini izlash turli xil vaqtinchalik funktsiyalar yordamida o'tkaziladi. Masalan, bunga oxirgi umumiy mahsulotni, fondlar qiymatini va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.



12.2-Rasm. Mamlakatlar bo'yicha mehnat unumdorligi

Kelajakda iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini saqlab qolish uchun vaqtinchalik funktsiyalar bilan ishlab chiqarish dinamikasini prognozlashtirishda topilgan baholar yoki alohida omillar ekstrapolyatsiya qilinishi mumkin.

Takror ishlab chiqarish sharoitlari o'zgarishi bilan ekstrapolyatsiya usullari uzoq muddatga qo'llanilganda, aniqlik darajasi kamayadi. Strategik nuqtai nazardan bu prognozlashtirishning real jarayonlarini orqaga surish chora - tadbirlari kabi dispersiyaning o'sishini anglatadi. Bunday usullarning biri MGUA va korrelyatsion analiz usullari bo'lib, bu usullarda ularning shart - sharoitlari kuzatilishi shart.

Tayanch so'z va iboralar

Iqtisodiy o'sish tushunchasi. Iqtisodiy o'sish turlari, ularning prognozlashtirishda ishlatilishi. Iqtisodiy o'sishning ikki jihatdan tahlil qilinishi. Resurslarning intensiv ishlatilishi. Fond intensivligi, fond sig'imi, mehnat sig'imi, iqtisodiy o'sish modellarining maqsadi. Iqtisodiy o'sishni prognozlashtirishda ishlab chiqarish funktsiyasi. Iqtisodiy o'sishni prognozlashtirishda darajali va ko'p omilli funktsiyalar. Multiplikativ ishlab chiqarish funktsiyasining afzalliklari. Ekstrapolyatsiya usuli, korrelyatsion analiz usuli. Iqtisodiy o'sishni ifodalovchi ko'rsatkichlar. Makroiqtisodiy o'sishni prognozlashtirish. Bir yoki bir necha omilli modellar. Ko'p chiziqli, darajali, ko'rsatkichli, ko'p o'zgaruvchili modellar. Matematik ishlab chiqarish funktsiyasi. Ekonometrik modellar. Dispersiyaning o'sishi.

Reja:

1. Ilmiy tadqiqot natijalari prognozlash ob'ekti sifatida.
2. Ilmiy tadqiqot turlari.
3. Fundamental tadqiqotlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, samaradorligini ob'ektiv baholash usuli va umumiy tadqiqotlardagi ulushining salmog'i.
4. Ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonini prognozlashning xususiyatlari va tamoyillari.
5. Innovatsion tadqiqot loyihalari va ularning natijalarini prognozlash.

13. 1. Ilmiy tadqiqot natijalari prognozlash ob'ekti sifatida.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada ilmiy texnika taraqqiyoti yuqori darajadagi murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi, u mamlaat iqtisodiyotining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ilmiy texnika taraqqiyoti ta'sirida ishlab chiqarish kuchlarining barcha elementlari unumdarlighi oshadi, masalan: mehnat predmetlari, ishchi kuchlari, mehnat mahsuli, texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va boshqalar. Ilmiy texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanib, u aholining turmush darajasining barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Осиё мамлакатларида корхоналар ҳажмига боғлиқ ҳолда инновациялар киритиш (М-кичик, С-ўрта, К-йирик),%

	I. Шарқий ва Жануби-Шарқий Осиё			II. Жанубий Осиё		
	М	С	К	М	С	К
Янги маҳсулот линияларини ривожлантиришмоқда	32,4	45,6	56,9	36,2	49,3	60,8
Мавжуд маҳсулот линияларини янгилашмоқда	53,4	63,3	72,2	58,3	70,9	75,4
Янги технологиялар киритишмоқда	27,0	41,3	54,3	12,9	25,9	37,3

ПИзоҳ: I гуруҳга Камбоджа, Хитой, Корея, Вьетнам, Лаос, Индонезия, Малайзия, Филиппин, Таиланд киради.
II гуруҳга: Бангладеш, Ҳиндистон, Покистан, Шри Ланка.
Манба: Enterprises in Asia: fostering dynamism in SMEs, 2009, World Bank Enterprises Survey database.

13.1-Rasm. Innovatsion salohiyat

Ilmiy taraqqiyot konsepsiyasi mehnat qurollarni o'zgartirishni talab qiladi, ya'ni, mashina, ishlab chiqarish jihozlari, transport vositalar, barcha turdagi mashina texnikasi, mehnat vositalaridan-yonilg'i, xom ashyo, energiya, hamda texnologik jarayonlarni yaxshilash, ishchi xodimlar malakasini oshirish, ishlab chiqarishni samarali boshqarish va tashkil qilishni taqozo qiladi.

Ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish qo'l mehnatini yengillashtirish omili bo'lib xizmat qiladi, uning doimiy takomillashuvi ushlab ishchilarning moddiy ta'minlanganlik va ma'naviy dam olish imkoniyatlarini yaratadi.

Ilmiy texnik taraqqiyoti, iqtisodiyotning moddiy texnik bazasining shakllanishiga va uning asosida ilm-fan va texnika rivojlanishiga zamin yaratadi. Ilmiy texnika taraqqiyoti tovar mahsulotlarning kengayishi va nomenklaturasining yangilanishi va ishlab chiqariladigan mahsulot assortimentiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sanot mahsulotlarining yangilanish ko'rsatgichi maamlakatning ishlab chiqarish potentsialini rivojlanishini ko'rsatadi. Ilmiy texnika taraqqiyoti ta'sirida maishiy xo'jalik mahsulotlari doimo yangilanib turadi, bu bilan aholining maishiy xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabi qondiriladi.

13.2. Ilmiy tadqiqot turlari.

Ilmiy texnika taraqqiyotini shakllanishi va ularning natijalarini amalga oshirish 5 ta bosqichdan iborat bo'ladi, ya'ni fundamental tadqiqotlar, amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar, ishlab chiqarishga tayyorlash va ekspluatatsiya.

Fundamental tadqiqotlar - bu olib boriladigan tadqiqotning mavjudligi tahlili, tabiiy rivojlanish qonun va qonuniyatlarini aniqlash, jamiyat, inson, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ochib berish, mavjud qonun va qonuniyatlar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishdan iborat.

Amaliy tadqiqotlar mohiyatan ikki vazifasi mavjud: birinchidan, u fundamental tadqiqotlarni tahlil qilish yangi ish qurollari (texnika, texnologiya, materiallar va boshqalar) yaratish maqsadida uni rivojlantirish; ikkinchidan ishlab chiqarish jarayoni holatini tahlil qilish, hamda mavjud texnika asosida yangi texnika asosini yaratish va ularni amaliyotga keng joriy etishdan iborat. Amaliy tadqiqotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma, normalar, uslubiyot, me'yorlar, me'yor aktlarning asosligi bilan yaratilgan amaliy ilmiy tadqiqot natijalari va ularni bevosita amaliyotga joriy qilishdan iborat bo'lib ob'ekt sifatida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab oladi.

Amaliy tadqiqotlarni prognozlashning asosiy belgilari quyidagilar: tadqiqotga ketgan xarajatlar hajmi, kerakli materiallar miqdori, moliyaviy resurslar miqdori, ilmiy xodimlarning malakasining oshishi, yangi mutaxassislariga bo'lgan talab, tadqiqotning moddiy ta'minlanganligi, tadqiqotga bo'lgan talab va ehtiyoj.

Ilmiy ishlanmalar deganda konstruktorlik, texnologik, loyihalar asosida yangi texnikalar, texnologiyalar, mahsulotlar, hamda ishlab chiqarilgan mehnat jihozlari va qurollarini modernizatsiyalash ularni tajribalardan o'tkazish tushiniladi. Ishlanmalar amaliy tadqiqotlarga o'xshab ketadi, lekin u davlat standartlariga javob berishi kerak. ularni amalga oshirishda quyidagi talablar mavjud: konstruktorlik va texnologik ishlanmalar ustidan ishlash tartibi, tajriba namunalari, tajriba partiyasi, ommaviy ishlab chiqarish uchun tayyorligini tekshirish. Konstruktorlik- tajribaviy ishlanmalar tarmoq ilmiy tekshirish tashkilotlari



konstruktorlik loyiha tashkilotlar hamda konstruktorlik va texnologik ishlab chiqarish byurolar birlashmalar tomonidan sanoat tashkilotlari tarkibida amalga oshiriladi.

Ekspluatatsiya bosichida yangi texnika ishlab chiqaruvchilar iste'moli mumkin bo'ladi. Yaratilgan mahsulot va texnika, ma'naviy va jismoniy eskirgandan so'ng, u seriyali ishlab chiqarish va ekspluatatsiyadan chiqariladi. Shu bilan ixtironing hayotiy sikli tugaydi. Zamonaviy ilmiy taraqqiyoti shartlaridan biri nafaqat tadqiqot ishlanmalarining tadqiqot davrining qisqa bo'lishi, balki uning iste'mol davrini ham qisqartirishdan iboratdir. Rivojlangan mamlakatlarda texnika texnologiyalarni ma'naviy eskirish davri 3-5 yilni tashkil qiladi.

13.3. Fundamental tadqiqotlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, samaradorligini ob'ektiv baholash usuli va umumiy tadqiqotlardagi ulushining salmog'i.

Fundamental tadqiqotlar natijasida yangi qonun va qonuniyatlar, yangi kategoriyalar paydo bo'lishiga, ularning amaliyotda qo'llanish yo'llari va tamoyillari ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ladi.

Izlanuvchi mehnati mahsuli, kollektiv faoliyati va fundamental izlanuvchilar ijrochilarining tadqiqot natijalari yangilik yaratganliklari haqidagi rasmiy xujjatlar, mualliflik huquqini tasdiqlovchi patentlar, monografiyalar, maqolalar, o'quv qo'llanmalar, hisobotlar va ilovalarda o'z aksini topadi. Bu ishlar ilm-fanni bevosita ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun ishlatiladi, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda, amaliy ish sifatida ko'rib chiqilib, ushbu nazariyalarni kelajakda rivojlantirib, ularni amaliyotga qo'llashga harakat qilinadi.

Ilmiy – texnika taraqqiyotini, umuman ilmiy tadqiqotni amalga oshirish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ob'ekni prognozlash uchun eksper usullaridan keng qo'llaniladi. Ayni vaqtda usul tanlash ob'ektning xususiyatidan kelib chiqadi.


Fundamental tadqiqotlarni prognozlashda ishlab chiqarishda hozirgacha bo'lgan holat tahlil qilinadi, hal etilmagan muammolar ko'rsatiladi, mavjud muammolarni echimi yo'llari va vujudga kelgan yangi muammolar ko'rsatiladi, ular ilm, fan tadqiqotlar yordamida o'z yechimlarini topadilar. Shuni hisobga olish kerakki, fundamental izlanishlarni prognozlashda, har 5 yilda natijalarni yangilash, prognoz qilingan natijalarni joriy natijalar bilan taqqoslash kerak, prognoz qilingan natijalarga amaldagi natijalarni sun'iy ravishda tenglashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki fundamental tadqiqotlar ilm fanning o'zagi, asosiy tayanchi hisoblanadi.

13.4. Ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonini prognozlashning xususiyatlari va tamoyillari.

Ilmiy-texnik taraqqiyotni prognozlash yuqori darajada murakkab bo'lganligi uchun kollektiv ekspertlar usullaridan ko'proq foydalaniladi. Ilmiy texnika ishlanmalarini prognozlashtirishning asosiy vazifasi bu mavjud ishlanmalar o'rtasidagi eng yaxshisini tanlash, uning mehnat samaradorligiga ta'siri, har bir mahsulotga bo'ladigan xarajatlarning kamayishi, ishchi xizmatchilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirilishi, tabiiy resurslardan ratsional foydalanish, atrof muhitga ta'siri kabilarni o'z ichiga oladi.

Seriyali ishlab chiqarish yalpi mehnat qurollari va jihozlarni ishlab chiqarish nazarda tutiladi. Bu bosqichda yaratilgan yangilik, oldingi bosqichlarni o'tib bo'lgandan so'ng amalda keng qo'llaniladi.

Ишлаб чиқариш таркиби ва ИТТКИ (R&D) соҳасига ҳаражатлар ўртасидаги боғлиқлик



bo'lib hisoblanadi.

Ilmiy texnika taraqqiyotini prognozlashda seriyali ishlab chiqarish quyidai vazifalarni bajaradi: yangi texnika, texnologiya, materiallarni amaliyotga tadbiiq etilishi, iqtisodiyotni barcha sohasida mehnat samaradorligini oshirish, energiyadan, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqariladigan mahsulot sifati yaxshilanishi kabi vazifalarni qamrab oldadi.

13.5. Innovatsion tadqiqot loyihalari va ularning natijalarini prognozlash.

Ilmiy texnika taraqqiyotining bosqichlarini tahlil qilish, ularni bir biridan farqi va vazifalarini aniqlab beradi. Ular nafaqat maqsadi balki faoliyati ko'rsatgichlari mohiyati bilan ham farqlanib turadi.

Ilmiy texnika taraqqiyotini har bir bosqichini prognozlashda quyidagicha ketma-ketlikka amal qilinishi lozim: fundamental va amaliy tadqiqotlarni prognozlashda tizimli tahlil va sintez usulidan, ekspert baholash usulidan, stsenariylardan, "maqsadlar daraxti"ni tuzishdan, morfologik tahlillardan foydalanish kerak. Bu muammolarni bir tizimga keltirish, qarorlarni maqsadli natijalarini topish, ko'p sonli baholash variantlarini tuzish, tadqiqotning eng maqbul yo'nalishini tanlash va boshqa bir qator imkoniyatlar yaratadi. Bu bosqichda ma'lumotlarning yetarli bo'lmaganli sababli statistik usullardan foydalanish qiyinchilik tug'dirishi mumkin va prognozlashtirilayotgan jarayon qanday xususiyatga ega ekanligini aniqlash qiyin bo'ladi. Ushbu holatda bevosita ekspert usullaridan keng foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ishlanmalarni prognozlash. Bu bosqichni prognozlashda, iste'mol hajmini aniqlash, shu jumladan tarmoqlar aro balans usulidan ham foydalaniladi. Yangi mahsulotning texnik iqtisodiy

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zlashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun, ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi barcha omillar barqaror bo'lishi kerak. Ishlab chiqariladigan yangi mahsulot esa korxonaning barcha ko'rsatgichlarini tubdan o'zgartirishi mumkin, ya'ni ajratilgan resurslarni taqsimlanishi, ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o'zgarishi va boshqalar. Prognozlashtirish jarayonida bular asosiy omillar

Иновацион режим - селектив саноат сиёсатидан (айрим тармоқларга эътибор қаратиш) ривожланиш институтларини шакллантириш орқали иқтисодий ўсиш омилларини рағбатлантириш (қандай соҳага мансублигидан қатъи назар) сиёсатиға ўтишни назарда тутмади

ko'rsatkichlarini prognozlashda ektropolyatsiya, petentni hujjatlashtirish va ilmiy texnika axborot tahlili, ekspert baholash usullari kombinatsiyasi usullaridan foydalaniladi. ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlov, seriyali ishlab chiqarish va ekpluatatsiya bosqichlarini prognozlashda ekspert baholash usulidan, ekstropolyatsiya usulidan, omillar tahlilidan, imitatsion usulidan foydalaniladi. Bu bosqichni prognozlashdi, balanslashtirilgan hisob kitoblar tizimi asosiy o'rinda turadi. Uning tarkibiy qismi quyidagilar iborat: iste'mol qilinadigan va jamg'ariladigan mahsulotlarning ishlab chiqarish balansi; milliy daromadning taqsimlanishi va ishlatilishi bo'yicha ishlab chiqarish balansi; ishlab chiqarish tarmoqlar aro balansi va mahsulotlarning taqsimlanishi; mehnat resurslar balansi; asosiy fonlar balansi; ishlab chiqarish quvvati balansi; umumiy moddiy va asosiy turdagi mahsulotlar balansi; moliviy balanslar; barcha turdagi resurslar va me'yorlari.

Tayanch so'z va iboralar

Ilmiy tadqiqot natijalarini prognozlash ob'ekti sifatida. Ilmiy-texnik tadqiqotlarning xususiyatlarni amalga oshirish ketma-etligi, murakkabligi, tasodifligining darajasining yuqoriligi. Ilmiy tadqiqot turlari. Fundamental tadqiqotlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, samaradorligini ob'ektiv baholash usuli va umumiy tadqiqotlardagi ulushining salmog'i. Ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonini prognozlashning xususiyatlari va tamoyillari. Ilmiy-texnik taraqqiyotning prognozlash usullari, evristik-logistik usullar.

MAVZU-14. IJTIMOIIY JARAYoNLAR VA AHOLI TURMUSH DARAJASINING O'SISHINI PROGNOZLASH

Reja:

1. Ijtimoiy jarayonlarning xususiyatlari va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar.
2. Ijtimoiy sohalarni prognozlash usullari va modellari, ularning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Aholi turmush dinamikasini baholovchi ko'rsatkichlar, ushbu ko'rsatkichlarni o'zgarish dinamikasi.

14.1. Ijtimoiy jarayonlarning xususiyatlari va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Asosiy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajalari aholining turmush darajasi orqali ifodalanadi, bu tushuncha o'zida kishining ham moddiy, ham maъnaviy jihatdan qoniqishi tushuniladi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning asosiy ajralmas qismi bu isteъmol hajmi harakatini baholash va ilmiy texnik taraqqiyotining o'rnini aniqlashdir.

Isteъmolning o'sishini tahlil qilish aholi turmush darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.



Aholi isteʼmoli tarkibidan kelib chiqib, ularga taʼsir koʻrsatuvchi omillarni aniqlash, omillar va isteʼmolning oʻzaro taʼsiri sabab-oqibatlarini aniqlash, hozirgacha boʻlgan davr mobaynida isteʼmol tarkibining oʻzgarishi sabablarini tahlil qilish, prognoz qilinadigan asosiy koʻrsatkichlarni aniqlashda mamlakatning ijtimoiy rivojlanishi va aholi turmush darajasida katta oʻrin egallaydi. **Qiziqarli maʼlumotlar**

Bu sohani prognozlashtirishning asosiy vazifasi avvalo kelajakda aholi isteʼmolini aniqlash va ularni qondirish imkoniyatlarini izlashdan iborat. Masalan: yuqori sifatli va turli xil oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar, uy-joylar va boshqalar.

Qulay sharoitda inson har tomonlama rivojlanar ekan, unga nafaqat moddiy balki maʼnaviy talab ham oshib boradi. Inson rivojlanishi bilan oʻz yaxshi ish sharoitini tashkil etishga, tibbiy xizmatlarni va dam olish sharoitlarini yaxshilashga harakat kiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi isteʼmolining oʻsishini prognozlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu bilan kelajakdagi isteʼmol hajmining rivojlanish tendensiyasini bilish mumkin.

14.2. Ijtimoiy sohalarni prognozlash usullari va modellari, ularning oʻziga xos xususiyatlari.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohani ananaviy prognozlashtirishda ayrim kamchiliklar bor, chunki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya, ilmiy texnik taraqqiyot va boshqa ekzogen omillarni hisobga olish qiyin. Shuning uchun prognozlashtirish jarayonida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va bu sohaga oid dastur va rejalardan kelib chiqib, ularni taʼsirini inobatga olib prognozlash zarur boʻladi.

Prognozlashni bu tarzda tashkil etish ijtimoiy-iqtisodiy soha rivojlanishi va uni butun mamlakat miqyosida koʻrib chiqish qulay boʻlib hisoblanadi. Bu bilan aholi turmush darajasining holati va uning istiqboldagi natijalari haqida maʼlumotlarga ega boʻlamiz.

Aholi turmush darajasini prognozlashning uch tarkibiy qismi mavjud.

1. Milliy daromadning oʻsishi,
2. Aholi isteʼmol hajmining oshishi,
3. Kelajakda isteʼmol qilinadigin resurslarning oʻsishi.

Isteʼmol uchun resurslar oʻsish surʼatini prognozlash ishlab chiqarish jamgʻarmasinin unumdorligini prognozlashda asos boʻladi.

Соғлиқни сақлашга сарфланган ўртача харажатлар 2030 йилгача 4 баравар ошиши керак



14.1-Rasm. Sog'liqni saqlash xarajatlari

Ijtimoiy rivojlanishni va aholi turmush darajasini prognozlashda iqtisodiy-matematik usullar va modellardan, me'yor va boshqa usullardan foydalaniladi. Iqtisodiy matematik modellar, ijtimoiy rivojlanish va aholi turmush darajasini prognozlashda qo'llaniladi, u aholi ehtiyojini ortib borish tendensiyasini ifodalaydi. Kelajakdagi o'sish dinamikasini hisobga olish ijtimoiy rivojlanishni va aholi turmush darajasini sifati va miqdorini yaxshilashdan iborat.

Ijtimoiy rivojlanishni va aholi turmush darajasini prognozlashning kamchiligi shundaki u nomoddiy ishlab chiqarish jarayonidagi holatlarni to'liq ifoda etolmaydi. Modellar va prognozlar tizimi butunlay ishlatilsa ham, murakkab iqtisodiy kategoriya, turmush darajani faqatgina ma'lum jihatlarini ko'rsatib tahlil qilishga yordam beradi. Ijtimoiy rivojlanishni va aholi turmush darajasini prognozlashning rivojlanishini o'rganuvchi jamiyatning ijtimoiy institutlarini rivojlantirib, hozirgi kundagi muammolarni yechimlarini kelajakdagi holatini baholamay xulosa qilish mumkin emas.

14.3. Aholi turmush dinamikasini baholovchi ko'rsatkichlar, ushbu ko'rsatkichlarni o'zgarish dinamikasi.

Aholi turmush darajasini baholashda turar joylar bilan ta'minlanganligi, komunal xizmatlarning sifat darajasi, maktabgacha ta'lim muassasalarining soni, sanatoriya-profilaktikalarning va turistik xizmatlarning mavjudligi ko'rsatkichlari muhim rol o'ynaydi. Shahar va qishloqlar o'rtasidagi turmush darajasidagi tafovutni kamaytirish va barcha hududlarda yashash sharoitlarini tenglashtirish va ularni prognozlashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi (aholi jon boshiga nisbatan). 10 ming kishiga to'g'ri keladigan vrachlar nisbati, shahar va qishloq axolisining uzoq muddatli maishiy-texnika vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi 100ta oilaga nisbatan va ming kishiga to'g'ri kelishi hisoblanadi.

Ijtimoiy o'sishni va aholi turmush darajasini prognozlashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Uy xo'jaliklarida uzoq muddatli ratsional foydalaniladigan uy anjomlarining har 100ta oilaga nisbati aniqlaniladi, so'ngra prognoz qilingan talabga qarab ushbu anjomlarni ishlab chiqarish uchun resurslar ajratiladi. Rivojlanishni rejalashtirishda ishlab chiqarish sohasi va tarmoqlarni rivojlantirishning eng maqbul omillarini ishlab chiqish zarur, u aholi turmush darajasini ko'tarishga xizmat qilishi kerak.

Prognoz qilingan vaqt dinamikasini ishlab chiqarish va no ishlab chiqarish sohasidagi jamg'armaning hajmi va tarkibini aniqlashda quyidagi iqtisodiy matematik modellar prognozlashda foydalaniladi. Ishlab chiqarishda jamg'arma normasini, iste'mol uchun resurslar o'sish suratlarning me'yor miqdorlari va noishlab chiqarish sohasidagi qurilish, noishlab chiqarish fondi dinamikasi va noishlab chiqarish kapital quyilmalarini muomalaga chiqarish modellari alohida ahamiyatga egadir.

Bu modellar olib boriladigan hisob- kitoblarning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlaydi. Masalan: ishlab chiqarish jamg'armasi dinamikasini tahlil qilish prognozlanayotgan vaqt oralig'ida aholi turmush darajasining o'sishiga ta'sirini ifoda etadi, hamda milliy daromodda, ishlab chiqarish jamg'armasining ulushini, iste'mol uchun resurslar o'sish surati va noishlab chiqarishdagi qurilishni ko'rsatadi.

Prognozlashirilayotgan jarayonni yechimlarini, ko'plab variantlarini ishlab chiqish kerak. Noishlab chiqarish jamg'armasi haqidagi axborot noishlab chiqarish fondini dinamikasini tuzish, noishlab chiqarish sohasida kapital quyilmalarni prognozlash imkonini beradi.

Ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish kelajakda aholi turmush darajasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. U quyidagilarga bog'liq: madaniyatning rivojlanishi, sog'liqni saqlash, ta'lim sohasi aholiga pullik xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, aholining real daromadlarining o'sishi, butun ijtimoiy infratuzilmasining jadal rivojlanishi asos bo'la oladi. Shuning uchun prognozlashda aholining iste'molining doimo o'sib borishi hisobga olinishi kerak bo'ladi.

Ijtimoiy rivojlanish va aholi turmush darajasini prognozlashda, iqtisodiyotni boshqa ko'rsatkichlarini prognozlashda ularning o'zaro aloqasi va bog'liqligini inobatga olish zarur bo'ladi.

**Соғлиқни сақлашда
молиялаштириш
моделини мажбурий
тиббий суғурта
tizimini asta-sekin
tatbiq этиш ва
2030 йилга келиб иш
билан таъминланган
аҳолининг 58 фоизини
мажбурий тиббий
суғурта тизимига
жалб қилиш мақсадга
мувофиқдир**

Tayanch so'z va iboralar

Ijtimoiy jarayonlarning xususiyatlari va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar. Mamlakat byudjetidan ijtimoiy jarayonlarni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar, ularning o'zgarish dinamikasi, O'zbekiston ijtimoiy sohalarni rivojlantirish siyosati. Ijtimoiy sohalarni prognozlash usullari va modellari, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Aholi turmush dinamikasini baholovchi ko'rsatkichlar, ushbu ko'rsatkichlarni o'zgarish dinamikasi. Aholi turmush darajasini belgilovchi me'yoriy miqdorlar. O'zbekistonda ularning amaldagi miqdori prognoz uchun asosiy axborot bazasi. Maishiy xizmatlar sohasini prognozlash, chakana savdo aylanmasi va unga bo'lgan talabni prognozlash. Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimining tarkibiy o'zgarishei prognozlash.

MAVZU-15. DEMOGRAFIK JARAYONLARNI PROGNOZLASH

Reja:

1. Prognozlash ob'ekti demografik jarayonlarning xususiyatlari, o'zagrish tendentsiyasi, o'sish dinamikasi
2. Mamlakat aholisining tarkibiy tuzilishi
3. Ishchi kuchi, shahar va qishloqlarda ularning tarkibiy tuzilishi
4. Demografik jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni belgilovchi omillar.

15.1. Prognozlash ob'ekti demografik jarayonlarning xususiyatlari, o'zagrish tendentsiyasi, o'sish dinamikasi

Demografik prognozlar aholining harakatini va mehnat resurslarining takror ishlab chiqarilishini, mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasini, uning malaka va kasbiy tarkibini o'z ichiga oladi. Demografik prognoz aholining dinamikasini uning yosh va jins tarkibini, tug'ilish va o'lim darajasi, aholining xududiy joylashishi xaqidagi ma'lumotlarni tahlildan o'tkazish asosida ko'rib chiqadi. Demografik prognoz kelajakda oilalarning soni, ularning o'rtacha kattaligi, migratsiya jarayonlarining yo'nalishi va jadalligi, faol mehnat faoliyatining uzunligi, mehnat faoliyatini boshlash va tamomlash, pensiyaga chiqishning o'rtacha yoshlari, aholi umrining o'rtacha uzunligi xaqida zarur ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Qiziqarli ma'lumotlar

Demografik prognozlar asosida aholi ehtiyojlarining xajmi va tuzilishi, shaxsiy iste'mol mollari ishlab chiqarish, ma'orif, sog'liqni saqlash va xokazolarni rivojlantirish rejalashtiriladi. Xullas, demografik prognozlar ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasini oshirish prognozlari bilan uzviy bog'liq.

Ijtimoiy rivojlanish prognozlari aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini, turmush tarzining o'zgarishi tendentsiyalarini aniqlash sohasidagi murakkab tadqiqotlar kompleksini o'z ichiga oladi. Bu kompleksga quyidagilar kiradi: mehnat resurslarining bandligi va ularning foydalanish, milliy boylikni takror ishlab chiqarish, noishlab chiqarish ehtiyojlarini shakllantirish, aholining turmush darajasi, iqtisod tarmoqlarini rivojlantirish, xududiy o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish, iqtisod mexanizm iva boshqaruv tizimini rivojlantirish, jaxon xo'jaligi va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish prognozlari ishlab chiqish va boshqalar.



15.2. Mamlakat aholisining tarkibiy tuzilishi

Demografik prognozlar aholi dinamikasini uning jinsiy yosh strukturasi, tug'ilish, xududiy harakati tugrisidagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida kurib chiqdi. Demografik prognozlash oilalarning kelajak sonini ularning urtacha kattaligi, aholi ko'chma oqimlarining

intensivligi, yunalishlari, faol mehnat faoliyati, davomiyligi va boshqalar tugrisida prognoz axborot olish imkoniyatini beradi.

Demografik prognozlar asosida jamiyat ehtiyojlari xajmi va strukturasi, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash tizimi taraqqiyoti va boshqalar rejalashtiriladi. Shu tahlil demografik prognozlar ijtimoiy taraqqiyot va xayot darajasini oshirish prognozlari bilan izchil bog'langan. Demografik prognozlarni amalga oshirishda usullarni tanlash muhim jihat hisoblanib, ularning yordamida aholining kelajakdagi sonini yanada aniqroq belgilash mumkin. Aholi sonini prognozlashning asosiy usullaridan biri komponentlar usuli hisoblanib, uning mohiyati asosiy komponentlarning kelajak dinamikasi, ya'ni tug'ilishlar va o'lishlar soni, xududga kuchib kelishlar va kuchib ketishlar sonini jamlashdan iborat. Butun mamlakat miqyosida aholi sonini prognoz qilishda dastlabki ikki komponent yetarlidir.

15.3. Ishchi kuchi, shahar va qishloqlarda ularning tarkibiy tuzilishi

Demografik prognozlashning yetakchi o'rinlaridan biri mehnat resurslari sonining perspektiv baholanishi hisoblanadi. Uning negizi aholining jinsiy yosh strukturasi bo'yicha sonining prognozi sanaladi, buning asosida mehnatga layoqatli 16—55 (59) yoshdagi aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi.

Prognozlashda eng avvalo mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning barcha tomonlarini qamrab oluvchi mavjud qonuniyatlar va ularning shakllanishi, takomilashishi va qo'llanilishi bo'yicha o'rganish lozim. Bularning barchasi shunga muvofiq statistik yoki boshqa axborot to'planishini talab qiladi.

Aholi sonini prognozlashda ekstrapolyatsiya va matematik modellash usullaridan keng qo'llaniladi. Immigratsiya usuli asosida dinamik qatorlardan foydalangan holda aholi harakatining turli komponentlari prognozlari aniqlanadi. Bu prognoz o'rta va uzoq muddatli davr uchun yaratiladi. Hozirgi paytda matematik modellash usullari va birinchi navbatda omilli tahlil usuli keng qo'llanilmoqda.

Aholi sonini prognozlash modeli tenglamalar tizimi ko'rinishida tuziladi.

$$Y = a_0 + a_1x_1 - a_2x_2 + a_3x_3$$

Бу ерда: x_1 — tug'ilishi, x_2 — o'lim, x_3 — migratsiya.

$$X_1 = b_0 + b_1z_1 + b_2z_2 + b_3z_3 \dots$$

$$X_2 = c_0 + c_1z_1 + c_2z_2 + c_3z_3 \dots$$


$$X_3 = d_0 + d_1z_1 + d_2z_2 + d_3z_3 \dots \text{ va hokozolar.}$$

15.4. Demografik jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni belgilovchi omillar.

Yaxlit holdagi aholi prognoz soni va strukturasi dastlab tashqi migratsiyani hisobga olmagan holda amalga oshiriladi, chunki uning xissasi uncha katta emas, biroq xududlar uchun demografik prognozlar aholi migratsiyasini hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Migratsiya nafaqat aholining umumiy soniga ta'sir qiladi, balki uning nisbiy va yosh strukturasi ham o'zgartiradi. Shuning uchun bu omil tug'ilish bilan bir qatorda asosiy omil hisoblanadi. Migratsiya koeffitsientini hisoblash uchun dastlab xududning har 1000 kishisiga to'g'ri

**Бандлик
тузилмасининг
узгариши
умумий бюджетнинг
солиқ юкени
2013 йилдаги 30
фоиздан 2030 йилда
21,7 фоизгача
камайтиради**

keladigan ko'chib kelishlarning o'rtacha soniga teng bo'lgan ko'chib kelish koeffitsientini hisoblash lozim. Har 1000 kishiga xududdan ko'chib ketish va kelishlar koeffitsienti beriladi. So'ngra ko'chib ketishlar va kelishlar o'rtasidagi farq hisoblanadi. Bu farq sof migratsiya koeffitsientini yoki migratsiya solbdosi koeffitsientini hisoblanadi.



15.1-Rasm. Jamiyat ijtimoiy tuzilmasining o'zgarishi, mln.kishi

Demografik prognozlar aholining harakatini va mehnat resurslarining takror ishlab chiqishi, mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasi, uning malakaviy va kasbiy tarkibini o'z ichiga qamrab oladi. Demografik prognoz aholining dinamikasini uning jins va yosh bo'yicha tarkibi, tug'ilishi va o'lishi, aholining hududiy joylanishi bo'yicha ma'lumotlar asosida ko'rib chiqiladi. Demografik prognozi oilaning kutilajak soni, uning o'rtacha miqdori, aholining migratsion oqimining yo'nalishi va intensivligi, faol mehnat faoliyatining davomiyligi, mehnat faoliyatining boshlanishi va yakunlanishi, nafaqaga chiqish o'rtacha yoshi, o'rtacha hayot kechirish to'g'risida prognoz axborotini olishga imkon beradi.

Demografik prognoz asosida aholining ijtimoiy ehtiyojlarining hajmi va tarkibi, shaxsiy iste'mol buyumlarni ishlab chiqarish, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash rivojlanishini va h.k rejalashtiriladi. Demografik prognozlar ijtimoiy rivojlanish prognozlari va turmush darajasini oshirish bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar

Prognozlash ob'ekti demografik jarayonlarning xususiyatlari, o'zagrish tendentsiyasi, o'sish dinamikasi. Mamlakat aholisining tarkibiy tuzilishi. Aholi migratsiyasi, tarkibiy o'zgarishi. Ishchi kuchi, shahar va qishloqlarda ularning tarkibiy tuzilishi. Demografik jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni belgilovchi omillar. Aholi sonini prognozlash, demografik ko'rsatkichlarni prognozlash usullari va modellari. O'zbekistondagi mehnat resurslarining tarkibi va ularni prognozlashning o'ziga xos xususiyatlari.

MAVZU-16. TARMOQNING IQTISODIY RIVOJLANISHINI PROGNOZLASH

Reja:

1. Tarmoqdagi mahsulot talabini prognozlashtirish

2. Talab doiralari va ularning talabdagi ulushini aniqlash, retrospektiv ma'lumot to'plash, prognozlashtirish usulini tanlash, tarmoq mahsulotiga bo'lgan ehtiyoj bo'yicha talab modelini ishlab chiqish

3. Ishlab chiqarish resurslari talabini prognozlashtirish.

4. Tarmoqning prognozlashtirish tarkibi

16.1. Tarmoqdagi mahsulot talabini prognozlashtirish

Iqtisodiyot tarmoqlarini prognozlashning qiyinchiligi shundaki, tarmoqlar mahsulotiga bo'lgan iste'mol hajmini aniqlashdadir. Shuning uchun bunday prognozlashni ishlab chiqishda uning barcha komponentlari yaxshilab baholash kerak. iqtisodiyotdagi aniq bir mahsulotga bo'lgan iste'molni aniqlash, bu sohani prognozlashning asosidir. Buning uchun sohaning butun iqtisodiy tahlil qilish, va iqtisodiyot tarmoqlari qonuniyatlarini ko'rib chiqish kerak. jamiyatda ushbu mahsulotga bo'lgan iste'mol talabini qondirilishi va ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash kerak. samaradorlikni baholashda bir qator ko'rsatgichlar tizimidan foydalaniladi, ular ishlab chiqarish omillari holatini ko'rsatib beradi, ular quyidagilar; mehnat unumdorligi, fond qaytimi, kapital quyilmalar qaytimi ko'rsatgichi, material sig'imi

Ishlab chiqarish resurslarini prognozlashtirishda asosiy fond va ishlab chiqarish kapital quyilmalarga kerak bo'ladigan mehnat va moddiy resurslarga bo'lgan talabni aniqlashdan iboratdir. **Qiziqarli ma'lumotlar**

Ushbu prognozning aniqligiga qarab tarmoq ishlab chiqarishini rivojlanish darajasi va hajmi rejalashtiriladi. Iqtisodiyotda mavjud iste'mol hajmi bilan ishlab chiqarishning umumiy hajmi teng bo'lishi kerak. Buning uchun tarmoqlarning ishlab chiqarish imkoniyati va foydalanish darajasini bilish kerak. Ushbu ko'rsatgichni prognozlashtirish tarmoqning ishlab



chiqarish kuchini va undan ma'lum muddat mobaynida foydalanishini aniqlash imkonini beradi. Bir paytning o'zida ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar tarmoq yo'nalishi, tarmoqda ilmiy texnika taraqqiyoti darajasi, boshqa tarmoqlar bilan aloqasi va boshqa omillar inobatga olinadi.

16.2. Talab doiralari va ularning talabdagi ulushini aniqlash, retrospektiv ma'lumot to'plash, prognozlashtirish usulini tanlash, tarmoq mahsulotiga bo'lgan ehtiyoj bo'yicha talab modelini ishlab chiqish

Tarmoq iqtisodiy rivojlanishini prognozlash uchun avvalo o'sha tarmoqning mahsulotga bo'lgan uzoq muddatli talabini aniqlash kerak.

Talab (ehtiyoj)ni prognozlash jarayoni qo'yidagi bosqichlardan iborat:

- Prognoz ob'ektini belgilash.
- Prognozdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni aniqlash.
- Prognozlash vaqtini aniqlash.

- Talab doiralari va ularning talabdagi ulushini aniqlash.
- Retrospektiv ma'lumot to'plash.
- Prognozlash usulini tanlash.
- Tarmoqning mahsulotga bo'lgan ehtiyoji (talabi) bo'yicha model va xisob ishlab chiqish.

Talab ishlab chiqariladigan va noishlab chiqariladigan shaklda bo'ladi.

Xar bir yo'nalish xisob-kitob qilinadigan, talab aniqlanadigan tarmoq va ishlab chiqarish guruxlariga ajratiladi. Talabning aniqlanishi uchun turli xil usullardan foydalaniladi. Bular normativ usul, oddiy-o'rtacha usul, ekstropolyatsiya usuli, morr-regress usul va boshqalar.

Normativ usul bilan talab aniqlanishida eng asosiysi normativlarning aniqlanishidir. Ogoxlantirishdan kelib chiqqan xolda bularning qisqa davr ichida ilmiy asoslangan talab normativlari asos qilib olinadi. Uzunroq davr uchun normativlarning o'zi eng avvalo ilmiy - texnikaviy rivojlanish, ishlab chiqarish strukturasi va boshqa ko'pgina omillar ta'sirida funktsiyalar sifatida o'rtaga chiqadi. Normativlar aniqlanganda maxsulot talabini hisoblab chiqish qiyin emas.

$$\sum_{i=1}^n a_{ij} - B_i = \prod i \text{ talab (ehtiyoj)}$$

Aij-talab normasi ij maxsulot, i talab

Bi-i talab

Qisqa muddatli prognozlashda ba'zan oddiy-o'rtacha usul xam ishlatiladi. Bu usulda talab o'tgan yillardagi realizatsiya xajmidan kelib chiqqan xolda aniqlanadi.

Bu usulda ko'rib chiqilayotgan davr ichidagi realizatsiya xajmlari qo'shilib, davrlar soniga bo'linadi:

$$\prod = \sum_{j=1}^m \prod j / n \quad \prod t = \prod t - 1 + \prod$$

16.3. Ishlab chiqarish resurslari talabini prognozlashtirish.

Tarmoqning uzoq muddatli (perspektiv) talabi, hajmi va ishlab chiqarish strukturasi belgilashda ular uchun kerakli bo'lgan xom ashyo, mexnat va moliyaviy resurslarni prognoz qilish kerak.

Ushbu talab hisobining asosini tarmoq maxsulot biriligi, resurs xajmi, mexnat xajmi va jamgarma xajmi kabi ko'rsatkichlar (koeffitsient) tashkil etadi. Xisobotlar natural xamda qiymat shaklida ko'rsatiladi.

Tarmoqning xom-ashyo resurslariga talabi maxsulot ishlab chiqarilishi uchun kerakli moddiy resurslarning qiymat shaklidagi xarajatlarini o'z ichiga oladi.


$$\sum_{j=1}^n a_{ij} x_j = B_j$$

Prognozlash davri ichida Lt tarmogida maxsulot birligi uchun mexnat xarajatining kamaytirilganligi xisoblanishi:

$$L_t = L_0 E$$

L₀- maxsulotning bazaviy mexnat xajmi (sanoatdagi mexnat resurslarining o'sish sharoitida IT ning oshib ketishi muammosi muxim ahamiyat kasb eta boshlaydi)

1-расм. Меҳнатга лаёқатли аҳолининг сони 2030 йилга келиб кескин ортади ва 22.1 млн. кишини ташкил этади.




16.1-Rasm. Mehnatga layoqatli aholi soni

Bu holda ishchi kadrlarga bo'lgan talab

TtqLtXt Xt- prognoz qilinayotgan maxsulotning ishlab chiqarish xajmi.

16.4. Tarmoqning prognozashtirish tarkibi

Tarmoq haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun prognozashtiriladigan ob'ektning barcha tashkil etuvchilari faoliyati haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak, masalan, ilmiy texnik va konstruktorlik tajribalar holati; ishlab chiqarish texnik bazasining rivojlanishi; ishlab chiqarishning tashkiliy texnik darajasi; mahsulotning iste'mol darajasi va uning qondirilishi darajasi; tashkilotning xo'jalik boshqaruvi rivojlanishi va ishlab chiqarishning ijtimoiy sharoiti va boshqalar. Prognozashtirishning barcha turlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ular tarmoq prognozashtirish strukturasi shakllantiradi.



Iqtisodiy prognoz ob'ektlariga qo'yiladigan talab bu prognoz srukturasi va tashkil etuvchilarini tuzish. Har bir iqtisodiy prognoz o'zida: qisqa prognoz yo'nalishi tahlili; uning zamonaviy holati; kelajakda rivojlanish yo'nalishi; prognozlash davrida sodir bo'ladigan muammolar va ularning yechimlari natijalarini amaliyotga tadbiiq etish; olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, tajriba izlanishlar va ularni prognozlash davrida va undan tashqarisida kutilayotgan natijalar; fundamental tadqiqotlarni baholash; berilgan vaqt oralig'ida prognoz natijalari, takliflarini ko'rib chiqish, ushbu natijalarni ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini baholash. Prognoz qilingan natijalarni amaliyotga tadbiiq etish uchun har bir prognozga quyidagilar zarurdir:

berilgan davr mobaynida sodir bo'layotgan asosiy voqealarni aniqlab, prognoz natijalariga ta'sirini aniqlash; prognoz natijalarini eng yaqin va eng uzoq amalga oshish davrini va ushbu vaqt o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash; prognoz jarayonini ishlatilish sohasini yoki umumiy sohasini prognozlatirilayotgan ob'ektga boshqa ob'ektlar tomonidan ichki va tashqi ta'sirini sifat va miqdor jihatdan aniqlash; prognoz natijalarini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan xom-ashyo, energiya, mehnat va moliyaviy resurslar hajmini aniqlash; prognozlash natijalarini texnik iqtisodiy va boshqa ko'rsatgichlar bo'yicha baholash.

Tayanch so'z va iboralar

Tarmoqdagi mahsulot talabini prognozlashtirish. Prognozlashtirish ob'ektini belgilash. Prognozlashtirishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni aniqlash. Prognozlashtirishning vaqtini aniqlash. Talab doiralari va ularning talabdagi ulushini aniqlash, retrospektiv ma'lumot to'plash, prognozlashtirish usulini tanlash, tarmoq mahsulotiga bo'lgan ehtiyoj bo'yicha talab modelini ishlab chiqish. Uzoq muddatli talab. Prognoz ob'ekti. Prognozlashtirish vaqti. Tarmoq iqtisodiy rivojlanishida ko'zda tutilgan maqsad. Ilmiy texnikaviy rivojlanish. Ishlab chiqarish tuzilmasi. Qisqa muddatli prognozlashtirish. Rejalashtirilayotgan davr prognozi. Resurslar sig'imini prognozlashtirish. Normativ usul. Oddiy o'rtacha usul. Ekstrapolyatsiya usuli. Regressiya usuli. Ishlab chiqarish resurslari talabini prognozlashtirish. Tarmoqning prognozlashtirish tarkibi. Talabni prognozlashtirish jarayoni. Iste'molning me'yori, resurslarga talabni prognozlashtirish.

AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA O'QUV MATERIALLARI

**AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR, KEYS STADI,
VAZIYATLI MASALALAR VA TESTLAR**

**1-Mavzu: "Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash" fanining mazmuni, vazifalari va
predmeti**

**Topshiriqlar
1-masala**

Quyidagi maʼlumotlar berilgan: joriy yilda davlatning yalpi ichki maxsuloti $YaIM=120$ mln. Oʻtgan yilgi pul massasi $M=18$ mln va shu yildagi pulning aylanish tezligi $V=8$ boʻlsa muomiladan qancha pul chiqarildi?

2-masala

Tovar birligini ishlab chiqarish uchun bir guruh tovar ishlab chiqaruvchilar 15, ikkinchi guruh – 20, uchinchi guruh – 30, toʻrtinchi guruh 25 soat vaqt sarflaganlar. Agar birinchi guruh barcha tovarlarning 50, ikkinchi – 15, uchinchi guruh – 25, toʻrtinchi 10% ni ishlab chiqargan boʻlsa, tovar birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnatning miqdorini aniqlang.

3-masala

Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun «A», «B», «V», «G» va «D» tovarlardan 100 mln. soʻmlik ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Agar «A» va «B» tovarlardan teng miqdorda, «V» tovardan «A» tovarga nisbatan 50 foiz kam, «G» tovardan «A» tovarga nisbatan 75 foiz kam, «D» tovardan 1 mln. soʻmlik ishlab chiqarilsa, talab bilan taklif oʻrtasidagi muvozanat taʼminlanadi. Narxlar oʻzgarmagan sharoitda har bir tovardan necha soʻmlikdan ishlab chiqarish zarurligini aniqlang.

4-masala

Noshirlarning ish haqisi oshirildi. Bir paytning oʻzida boshqa sohalarda ish haqi kamaytirildi. Natijada aholining oʻrtacha daromadi oʻzgarishsiz qoldi. Shundan soʻng oʻrtacha narx va chop etilgan gazetalar soni 10%ga oʻzgardi. Agar hamma ishlab chiqarilgan gazetalar sotilsa, noshirlarning daromadi qanday oʻzgaradi?

5-masala

1784 yilda Angliyada 1 funt qoʻlda yigirilgan ip 130,4 pens turgan. 1823 yilda yigiruv mashinasining ixtiro qilinishi mehnat unumdorligini 11,7 marta oshirishga imkon berdi. Mashina ishlatilgandan keyingi 1 funt ipning qiymatini aniqlang.

2-mavzu. Makroiqtisodiy tahlilning uslubiyoti va usullari


Topshiriqlar

1-masala

Diagrammada mahsulot bozori, resurslar bozori va toʻrt oqim koʻrsatilgan.

Har bir oqimning mazmunini oching:

- a) _____
- b) _____
- c) _____
- d) _____



2-masala

Qaysi fundamental savollarni ("nima, qanday, kim uchun ishlab chiqarish?") echishda davlat siyosati taʼsir koʻrsatadi:

- ish haqining eng kam miqdori toʻgʻrisidagi qonunni kiriting.
- soliqlardan ozod boʻlgan yangi temir yoʻl qurilishi.
- shaxar aholisining boy tabaqalari sotib olish qobiliyatini tushirish uchun progressiv soliq solishni kiriting.

3-masala

Iqtisodiyotda 3 tovar ishlab chiqariladi va isteʼmol qilinadi. Jadvalda ularning ikki yildagi miqdori va narxi koʻrsatilgan. YaIM deflatorini va isteʼmol narxlar indeksini aniqlang.

Yillar	2000	2000	2001	2001
	narx	miqdor	narx	miqdor
Soatlar	20	15	25	12
Futbolkalar	10	25	8	30
Sovutgichlar	750	5	950	8

4-masala

A, B, V, G nuqtalar bitta ishlab chiqarish imkoniyatlar egri chizigʻida yotadi. Bunda A(400;1000), B(700;300), V(600;X), G(300;Y) x va y kattaliklari oʻrtasida imkon boricha munosabatni aniqlang.

3-mavzu. Makroiqtisodiy taxlil va prognozlashning axborot taʼminoti

Topshiriqlar

1-masala

Quyidagi maʼlumotlarga asosan yalpi ichki mahsulot va takroriy hisob qiymatini aniqlang:

Iqtisodiy jarayon bosqichlari.	Qiymat (pul birl.)
«1-firma» xomashyo topadi	200
«2-firma» xomashyoni qayta ishlashga etkazadi	250
«3-firma» xomashyoni konstruksiyali matoga qayta ishlaydi	400
«4-firma» matoni yakuniy mahsulot tayyorlovchiga etkazib beradi	500
«5-firma» yakuniy mahsulotni ishlab chiqaradi	800
«6-firma» yakuniy mahsulotni ulgurji sotuvchiga etkazib beradi	900
«7-firma» mahsulotning chakana savdosini amalga oshiradi	1000
Umumiy savdo qiymati	4050

2-masala

Firma 7 investitsion loyihani koʻrib chiqayapti, deb faraz qilamiz. Har bir loyiha boʻyicha kutiladigan foyda normasi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar quyidagi jadvalda berilgan.

a) agar firma 10% kredit olsa, unda bu loyihalardan qaysi biri foydasiz bo'ladi?

Jadval

Loyihalar	Kutiladigan foyda normasi, %
A	12
B	8
V	7
G	15
D	25
E	11
J	9

b) Agar kredit uchun protsent stavkasi 13% gacha oshsa, unda qanday loyixalar foydasiz bo'ladi?

3-masala

Uch investitsion loyiha mavjud:

A. Xarajatlar 150 ming so'm. Kutiladigan yillik foyda 1 ming so'm.

B. Xarajatlar 150 ming so'm. Kutiladigan yillik foyda 15 ming so'm.

C. Xarajatlar 1000 ming so'm. Kutiladigan yillik foyda 75 ming so'm.

		Protsent stavkalari				
		5%	7%	9%	11%	
A.						
B.						
C.						

a) Har bir loyiha uchun (A,B,C) foyda normasini hisoblang.

b) Agar kreditga olingan kapital protsenti darajasi 5%, 7%, 9% va 11% ga teng bo'lsa, unda bu protsent stavkalarining qaysi birida A, B, C loyihalarini amalga oshirish tadbirkor uchun qulay (Q) yoki noqulay (N).

4-masala

Ishlab chiqarish funksiyasining ko'rinishi $Y = K^\alpha L^{1-\alpha}$, $\alpha = 0,5$, mehnat birliklarning miqdori 16, kapital birliklarning miqdori esa 9. Mehnat va kapital egalarining daromadini aniqlang.

4-mavzu. Real sektorning makroiqtisodiy tahlili

Topshiriqlar

Vaziyatli topshiriq
Iste'mol, investitsiya va xukumat.

Topshiriqda aniq misolda J.Keynsning tanikli «Iste'mol-investitsiyalar - xukumat» modelini kullash imkoniyatlari kurib chiqiladi. Multiplikator, iste'molga cheklangan moyillik, soliq-iqtisod makrodarajasida daromad shakllanishi va uzgarishi ta'sir muvozanatini ta'minlash buyicha davlat tadbirlari mantiki ko'rsatiladi. Bundan tashqari Keynsning «asosiy psixologik qonuni» va «tejamkorlik samarasi» aks ettirilgan.

Topshiriqda uch guruh qatnashdi: a) shaxsiy foydalanish uchun maxsulot va xizmatlarni sotib olishga pulni sarflaydigan iste'molchilar; b) investorlar – investitsion maxsulot sotib oladigan xususiy ishlab chiqaruvchilar; v) davlat xarajatlarini amalga oshiradigan va umumiy iktisodiy xolatni boshkaradigan xukumat.

Topshirik kuyidagicha o'tkaziladi – avval sof milliy maxsulotning boshlingich darajasi belgilandi (daromad darajasi). U iste'molchilar, investorlar va davlat xarajatlari yigindisidan iborat. Bundan tashkari xukumat tula bandlikka mos keladigan daromad xajmini aniklaydi. So'ng bozor xolati o'zgaradi. Investorlar kapital q'o'yilmalarni oshiradilar. Bu jarayon daromadga multiplikativ ta'sir etadi. Iste'molchilar tomonidan xisoblangan iste'molga cheklangan moyillik asosiy investorlar tomonidan multiplikator miqdori aniqlanadi.

Shunday qilib, SMM (daromad)ning yangi saxni belgilanadi. Xukumat xisobot bo'yicha u to'la bandlik saxnidan kam, ya'ni deflyatsion farkni tashkil etadi. Uni bartaraf etish uchun investitsiya va iste'molni ragbatlantirish buyicha tadbirlar q'o'llanadi: soliqlar kamaytiriladi, ish xaqi oshiriladi. Bu tadbirlar ishlab chiqarishni va xaridorni oshishiga olib keladi, lekin deflyatsion farqlarning daromadga multiplikativ ta'sirini oshiradi. Shu bilan yillik kamayishi va natijada, multiplikator parametrlari o'zgarishini e'tiborga olish kerak. Xamma kerakli xisoblarni o'tkazib, xukumat tula bandlikka erishish uchun o'z xarajatlarini oshirish saxnini aniqlaydi.

Xamma guruhlar xarakati grafiklarda ifodalanadi. Grafiklar absissa o'q'i – SMM saxni, ordinatalar o'q'i – xarajatlar xajmi (iste'mol, investitsiya, xukumat xaridorlar) aks ettirilgan koordinatalar tizimida tuziladi. Bunda muvozanat saqlanishi uchun, xarajatlar daromatlarga teng bulishi kerak. Bu talabga javob beradigan nuqtalar to'plami koordinatalar boshidan 45 li burchak xosil kiladi. Shuning uchun, muvozanat nuktalari funksiya grafigi bilan yuqorida aytilgan tug'ri chiziq kesmasida joylashgan bo'ladi. Endi topshiriq to'g'risida umumiy tushuncha olgandan so'ng, har bir guruhning ketma-ket xarakatiga o'tish mumkin.

Iste'molchilar.

Iste'mol funktsiyasi $C=(CMM/2)+3$ tenglamasida beriladi, bu yerda: C-iste'mol xarajatlari, shartli pul birligida, CMM – sof milliy maxsulot, shartli pul birligida.

1. C grafigini tuzing, muvozanat nuktasini – ya'ni iste'mol darajalari iste'mol mollari ishlab chiqarishda olinadigan daromadga teng buladigan nuktani toping.

Ishlangan chizmani xukumatga keyingi amallar uchun uzating.

2. Investorlar ishlab chiqarishga kuyilamalarni oshiradilar va xukumat bu investitsiya o'zgarishiga qanday daromad usishi mos kelishini bilishi kerak. Buni xisoblash uchun iste'molga cheklangan moyillik ko'rsatkichi zarur. U q'o'yidagicha aniqlanadi.

Iste'molchilar butun daromadi ikki kismga bulinadi. Bu jamgarma (xaridga ketmayadigan, jamgariladigan daromad kismi) va iste'mol (maxsulot sotib olishga sarflanadigan daromad). Agar iste'molchilar daromadi, masalan, 1000 dan 1100 pul birligiga ohsa, unda ana shu usuv xam kushimcha jamgarma va iste'molga taksimlanadi. Iste'molga cheklangan moyillik kushimcha iste'molning daromad usuviga bulgan nisbati sifatida aniklanadi. Yoki daromad birligi oishishidan kelib chikadigan iste'molning oshishini kursatadi.

$$MPC=\Delta C/\Delta DI$$

MPC - iste'molga cheklangan moyillik;

ΔC - iste'mol usuvchi;

ΔDI – daromad usuvchi.

Agar, masalan, kushimcha 100 pul birligidagi daromaddan iste'molga 80 pul birligi sarflansa, unda MPC 8/10 ni tashkil etgandi. (jamgarmaga cheklangan moyillik MPS – 2/10).

Bizning uyinda 5 pul birligidagi daromaddan 4 pul birligi iste'molni tashkil etganligi ma'lum; 8 pul birligi daromadda u 6 pul birligiga teng. Iste'molga cheklangan moyillikni xisoblash va mikdorni investorlarga mul'tiplikator darajasini aniklash uchun yetkazing.

3. Davlat tulovga kobil talabni ragbatlantirish uchun iste'molchilar daromadini oshirish buyicha tadbirlar utkazadi. Xukumat sizga oshgan daromadlar mikdorini xabar kiladi. Lekin gap shundaki, real iste'mol C shaxsiy daromadlarga nisbatan kam mikdorda oshadi, chunki mablagning bir kismi jamgariladi. Bu yerda yana shuni xisobga olish kerakki, daromad usishi bilan iste'molga cheklangan moyillik kamayib boradi.

Kuyidagi shartni kabul kilamiz: Iste'molchilar daromadining 4 pul birl. oshishi MPC 1/6 ga kamayishiga olib keladi. Ya'ni iste'molga cheklanagan moyillikni MPC 2 xisoblang. Shundan keyin daromadlar ohsa iste'molning uzi ΔC kanchaga kupayishini aniklash mumkin. MPC2 va daromad usuvi ΔDI ni oshgan xolda ΔC ning kupayish mikdorini toping. Bu mikdorni - ΔC ni – xukumatga yetkazing.

4. Iste'mol grafigi OY ukida C ni, xamda kupaygan ΔC darajasiga mos C1 nuqtani belgilang.

5. Nima uchun iste'molchilar daromadi usganda MPC kamayishini tushuntirib yozing (Keynsning «asosiy psixologik qonuni»).

Investor

1. Investitsiya funktsiyasi kuyidagicha aniklandi:

$$I=(CMM/2) - 2$$

Bunda I – investitsiyaga xarajatlar, shartli pul birligi;

CMM – sof milliy maxsulot, shartli pul birligi

I grafigini tuzing, OX ukida I ni belgilang, I_0 – investitsion tovarlarga xarajatlarning va ularning ishlab chiqarishdan olinadigan daromadlar tengligi nuktasini belgilang. Bu bundan tashkari ularning ishlab chiqarish xajmini xam beradi.

Bajarilgan chizmani xukumatga keyingi amal uchun berib yuboring.

2. Bozor kon'yukturasi shunday xolatdaki, investorlar kelajakda maxsulotga bulgan talabni oshishini xakli ravishda kutishlari mumkin. Bu kuprok foyda olish imkoniyati borligini va ishlab chiqarishga kushimcha mablag solish zarurligini bildiradi.

3. Investitsiyalar usuvi ishlab chiqarish xajmiga mul'tiplikativ ta'sir etadi, ya'ni daromad usuvi kuyilmalar mikdori uzgarishiga nisbatan yukori buladi.

Sizga mul'tiplikator mikdorini aniklash zarur. Mul'tiplikator (**MULT**) – bu investitsiyalarning aynan shu usishida daromadning necha martaga oshishini kursatadigan koeffitsiyent.

MULT iste'molga cheklangan moyillikka boglik – MPC (iste'molchilar topshirigida berilgan).

Masalan, agar ishchilarga 100 pul birligida xak tulab investitsiyalansa, unda iste'molga cheklangan moyillik 8/10 bulgan takdirda odamlar maxsulot xaridiga 80 birl. sarflaydilar. (Kolgan 20 birl. Jamgarmaga ketadi). Bu tovarlar sotuvchilari, uz navbatda, 80 x 0,8-64 pul birligi sarflashadi va xokazo. Jami daromad $DI=(1/1 - MPC) \times 100-500$. Ya'ni mul'tiplikator $MULT=500/100=5$ ni tashkil etadi.

$$MULT= 1/1MPC$$

Shunday kilib, kanchalik kushimcha iste'mol xarajatlari kup bulsa, shunchalik mul'tiplikator kup buladi.

Iste'molga cheklangan moyillikni bizning uyinimizda iste'molchilar xisoblanadi. Shu mikdordan foydalanib, oxirgi keltirilgan formulalar buyicha **MULT** ni xisoblang.

4. Multiplikator mikdorini aniklangandan sung investitsiyalar oishishi natijasida CMM usuvini topish kerak.

$$\mathbf{CMM_1 - MULT \times I_1}$$

bunda CMM_1 - sof milliy maxsulot usuvi, shartli pul birligida, I_1 – investitsiyalar, shartli pul birligi, I_1 . CMM_1 ni aniklab, xukumat organlariga yangi muvozanat daromad darajasini aniklashlari uchun shu mikdorni yetkazing.

5. Xukumat ishlab chiqarishni va ishsizlikni kiskartirishni ragbatlantirish maksadida foydaga solinadigan solikni 2 foizga tushiradi. Bunday sharoitda maxsulot ishlab chiqarishni oshirish foydali bulib koladi. Solikning bu kamayishiga investitsiyalarning yana 1 pul birl. usuvi mos keladi. Kuyilmalar xajmini tariflaydigan yangi nuqtani belgilang $-I_2$.

6. Investitsiyalarning q`o`shimcha o`shishi – I_2 yana CMM ning oshishiga olib keladi. Lekin kuyidagini xisobga olish zarur iste'molchilar daromadi davlat tadbirlari ta'sirida oshdi. Lekin daromadlarning oshishi daromad usuvida jamg`armalar qismining ko`payishiga va natijada, iste'mol salmogining kamayishiga olib keladi. Ya'ni iste'molga cheklangan moyillik tushadi. Iste'molchilardan yangi MPC_2 miqdorini talab qiling.

MPC_2 ni xisobga olgan xolda uzgargan mul'tiplikator koeffitsiyentini aniqlang – $MULT_2$.

7. $MULT_2$ va I_2 ni bilgan xolda CMM ning investitsiyalarning I_2 mikdordagi o`zgarishi natijasida yangi usvini – CMM_3 – anikqash mumkin.

$$\mathbf{CMM_3 = MULT_2 \times I_2,}$$

CMM_3 parametrini xukumat organlariga yetkazing.

Xukumat.

1. Siz iste'molchilar va investorlardan grafiklar yunalishlari va iste'mol va investitsiyalarning muvozanatij xajmlari tugrisidagi ma'lumotlarini olasiz. Umumiy xarajatlar uzgarish grafigini tuzing (iste'mol (C) plyus investitsiya (I) plyus davlat xarajatlari) (G). G kuyidagi funktsiya bilan beriladi:

$$G - (CMM/2) - 1,$$

Bunda G – davlat xarajatlari, shartli pul birligi:

CMM – sof milliy maxsulot.

Bu grafik S, I, G funktsiyalariga parallel, lekin ulardan yukori buladi, chunki jamiyat xarajatlarining aloxida qismlari emas, balki jami mikdori olinadi.

E_0 - daromadining muvozanat darajasi nuktasini aniklang. U (CMM_0) – koordinatalar ukiga – 45 li kiyalikdagi tugri chizik va C plyus I plyus G grafigi kesishmasida joylanadi. Bu nuktada umumiy xarajatlar daromadga teng buladi.

2. Investorlar ishlab chiqarishiga q`o`yilmalarni oshiradilar. Muvozanat umumiy nuqtasi siljiydi, chunki qo`shimcha investitsiyalar daromadning o`shishiga olib keladi. Lekin bu o`shish I lar usishiga mos emas. Kuyilmalar ishlab chirkarish xajmiga kupaytirilgan, mul'tiplikativ ta'sirida kursatadi. Siz investorlardan CMM usuvi tugrisidagi ma'lumotni talab kilasiz – CMM_1 . Bu ma'lumotlar asosida CMM_1 ning yangi darajasini aniklang. Uzgargan shartlariga mos va oshgan umumiy xarajatlar xajmi, xamda CMMni aks ettiruvchi E_1 nuqtani belgilang.

3. Xukumat boshkarishining maksadi tula bandlikka erishgan xolda daromadning muvozanat darajasini ta'minlashdir. Shuning uchun chizmada tula bandlikka mos keladigan ishlab chiqarish (daromad) darajasini aks ettirish zarur. Uyinda u CMM – 20 pul birligini tashkil etadi. Bu nuktani 450 li burchak bilan koordinatalar ukidan utadigan tugri chizikda belgilang (B).

4. E_1 va B nuktalarida ishlab chiqarish xajmlarini takkoslang. Ular tugri kelmaydi, ular urtasida fark mavjud. Ye1 B ga nisbatan kam SMM da urnatiladi. Ya'ni ishlab chiqarishda bozoriy muvozanat tula bandlikdan kam bandlikda sodir buladi. Firmalar uchun kushimcha ishchilar jalb etishning ma'nosi yuk, chunki aynan shu xarajatlarda talab va ishlab chiqarishning muvozanati ruyob topgan. Bandlikni oshirish asosida kushimcha maxsulot ishlab chiqarish ortikchalik kiladi, u iste'molni topmaydi. Bunday xolatlar «deflyatsion fark» degan nomni olgan. Uning absalyut mikdori B va E_1 nuktalariga mos bulgan CMM darajasi urtasidagi fark sifatida aniklanadi. (Iktisodiyotda inflyatsion fark xam uchrashi mumkin – teskari xolat bulib, kachon tula muvozanat ishlab chiqarish xajmi bandlik nuqtasidan yukori bulganda sodir buladi.)

Deflyatsion fark mikdorini aniklang.

5. Deflyatsion farkni bartaraf etish, ishsizlikni kamaytirish uchun kuyidagi tadbirlarni kullash zarur. Iste'molchilar talabi va xarajatlarni ragbatlantirish bilan birga investitsiyalarni xam ya'nada kupaytirish lozim. Bu xolatda daromadning ishlab chiqarish umumiy kupayish tomonga siljiydi.

Iste'mol S funktsiyasi kup omillarga boglik, lekin birinchi navbatda – shaxsiy daromadlar (DI) va iste'molga cheklangan moyillik (MPC) kulamiga boglik. Bevosita MPC ga ta'sir etish kiyin chunki u kupincha psixologik vajlar bilan aniklanadi. Shuning uchun davlat daromadlar mikdoriga kuprok samara bilan ta'sir etish mumkin. Ularning oshishiga (shu bilan birga iste'mol talabining oshishiga) xukumat minimal ish xaki stavkasini konuniy oshirish, shaxsiy daromadlarga solikni kamaytirish kabi tadbirlarga ega. Lekin bu tadbirlar cheklangan, chunki daromadlarning keskin usishi nazorat kilib bulmaydigan «ish xaki - narx» inflyatsiya spiralinig paydo bulishiga turtki bulishi mumkin. Shuning uchun bizning uyinda xukumat yukorida aytilgan tadbirlar yordamida iste'molchilar daromadini fakat 4 pul birligiga oshiradi. Bu sonni iste'molchilarga yetkazing.

Daromadlarning oshishi iste'molning xam shu mikdorda oshishini bildirmaydi, chunki olingan kiymatning bir kismi jamgariladi va bozorga kelib tushmaydi. Shuning uchun iste'molchilar kerakli xisoblarni kilib sizga iste'mol usuvi – ΔC mikdorini yetkazishlari kerak. Iste'molning oshishi xuddi shunday CMM usishiga olib keladi, ya'ni $\Delta C = \Delta CMM_2$ Bu C sof milliy daromadning bir kismi bulganligi sababli sodir buladi va shu bilan birga iste'molning usishi, xususiy investitsiyalar va davlat assignatsiyalaridan farkli ularok, bevosita CMM ning oshishini bildiradi. Bu xolatda multiplikativ samara yuk.

Shuning uchun umumiy grafigingizda oshgan iste'molga mos va CMM_2 usishiga teng yangi nuktani – E_2 ni belgilashingiz mumkin.

Deflyatsion fark kiskardi, lekin xali xam ancha katta. Xukumat uz xarakatlarini davom ettiradi.

6. Keyingi tadbir – foydaga solingan solikni kamaytirish yuli bilan xususiy investitsiyalarni ragbatlantirish. Bu xolatda maxsulot ishlab chiqarish ancha kulay bulib koladi va investorlar ishlab chiqarishga kushimcha mablag kuyadilar. Lekin bu yerda xam chegaralar mavjud. U – soliklarning sezilarli darajada kamayishi, byudjetga tushadigan mablaglarni kamaytirib yuborishi mumkinligi bilan boglik. Bu byudjet defitsitini va davlat karzlarining oshish extimolini oshiradi va bu xam inflyatsiyaga turtki sifatida xizmat kiladi. Shuning uchun

investorlar foydasiga solingan solik stavkasi fakat 2 protsetga tushiriladi. Bu xakida investorlarga xabar kiling. Ularning xisobidan keyin kapital kuyilmalar oshishi natijasida ishlab chiqarish xajmi usuvi tugrisidagi ma'lumotni talab kiling.

7. Umumiy grafikda oshgan ishlab chiqarishga CMM_3 mos muvozanat nuktasini E_2 bilan belgilang. ($CMM_3 - CMM_2 = \Delta CMM$). Agar deflyatsion fark saklanib kolsa, unda maxsulot ishlab chiqarishni oshirish va kushimcha ish kuchi jalb etish uchun davlat xarajatlarini kupaytirish zarur. Vazifa shundaki, davlat xaridorlarining usuvi D shundayt ishlab chiqarishni oshirishga (CMM_4) olib kelinsinki unda xama tadbirlardan keyin saklanib kolgan deflyatsion fark (F) bartaraf etilsin ($f - CMM_4$).

Buning uchun avval F mikdorini aniklang. U tula bandlik darajasi va CMM_3 urtasidagi farkka teng.

8. Davlat assegnatsiyalari xususiy investitsiyalar kabi, mul'tiplikativ samara berdi. ($MULT$) investorlar topshirigida berilgan CMM usuvi (CMM_4) $MULT_2$ va davlat xarajatlari G ning kupaytmasiga teng buladi. Shuning uchun xukumat G ni kuyidagicha aniklashi kerak.

$$G = CMM_4 / MULT_2$$

($MULT_2$ mikdorini investorlar xisoblashdi).

Iktisodga G pul birligidagi mablagni kuyib xukumat deflyatsion farkni bartaraf etadi va Tula bandlikni ta'minlaydi. Bu uyinda davlat tadbirlari ma'nosi va bozor konuniyatlari xamda omillari xarakatini aks ettiradigan oddiy model' keltirilganligini xisobga olish kerak. real xayotda Tula bandlikka erishish juda kiyin, chunki konyuktura uzgaruvchan, davlat organlarining kelajakdagi xisoblari kupincha extimollik xarakteriga ega. Shunday kilib uyin bozor iktisodining bir kancha konuniyatlarini va makrosoxada ishtirokchilari xarakterlarining mantikini tushuntirib beradigan modeldan iborat.

5-mavzu. To'lov balansining iqtisodiy tahlili

Topshiriqlar

1-masala

Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan:

Tovarlar eksporti	29700 mln.so'm.
Tovarlar importi	31700 mln. so'm
Xorijdagi qo'yilmalardan foiz ko'rinishida olingan daromadlar	4600 mln. so'm.
Xxorijiy investorlarga foiz to'lovlari	2400 mln. so'm.
Mamlakatning turizmdan daromadlari	2700 mln. so'm
Mamlakatning bir tomonlama transfertlari	3500 mln. so'm.
Mamlakatdan kapital chiqib ketishi	5200 mln. so'm.
Mamlakat rezidentlarining xorijiy turizmga xarajatlari	2800 mln. so'm
Mamlakatga kapital oqimi	8600 mln. so'm.

Mazkur ma'lumotlar asosida to'lov balansining joriy operatsiyalar schyoti qoldig'ini aniqlang.

2-masala

Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar yordamida berilgan:

Tovarlar eksporti	29700 mln.so‘m.
Tovarlar importi	31700 mln. so‘m
Xorijdagi qo‘yilmalardan foiz ko‘rinishida olingan daromadlar	4600 mln. so‘m.
Xxorijiy investorlarga foiz to‘lovlari	2400 mln. so‘m.
Mamlakatning turizmdan daromadlari	2700 mln. so‘m
Mamlakatning bir tomonlama transfertlari	3500 mln. so‘m.
Mamlakatdan kapital chiqib ketishi	5200 mln. so‘m.
Mamlakat rezidentlarining xxorijiy turizmga xarajatlari	2800 mln. so‘m
Mamlakatga kapital oqimi	8600 mln. so‘m.

3-masala

Nemis markasiga nisbatan dollar kursi 3:1 ni tashkil etadi. Bir xil tovar AQShda 400 doll., Germaniyada esa 1200 marka turadi deb tasavvur qilamiz. Agar dollar kursi sun'iy tarzda 1:2 gacha pasaysa, qaysi eksportchi qo‘shimcha daromad oladi (AQShmi, yoki Germaniyami). Qo‘shimcha daromad qiymatini aniqlang.

4-masala

B mamlakat hukumati A mamlakatning valyutasiga nisbatan milliy valyuta kursini barqarorlashtirishni maqsad qildi deb faraz qilaylik. A mamlakatda inflyatsiya sur'ati bir yilda 5%ni tashkil etadi.

- B mamlakatda bunday maqsadga erishish uchun inflyatsiya qanday bo‘lishi kerak?
- Uzoq muddatda ishlab chiqarishning o‘shish sur'ati 3% va pulning aylanish tezligi o‘zgarimas bo‘lganda valyuta kursini barqarorlashtirish uchun pul massasining o‘shish sur'ati qanday bo‘lishi kerak?

6-mavzu. Byudjet-soliq sektorining makroiqtisodiy tahlili

Topshiriqlar

1-masala

A va B mamlakatlarning iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar bilan yoritib berilgan:

Ko‘rsatkichlar	A mamlakat	B mamlakat
1.Moliyaviy yil boshida davlat qarzi qiymati (mln. dol.da)	2000	2000
2. Moliyaviy yil davomidagi nominal davlat xarajatlari(mln.dol.da)	200	200
3. Narx darajasi (yil boshida)	1,0	1,0
4. Inflyatsiyaning yillik sur'ati	0,0	0,1
5. Davlat qarzi bo‘yicha nominal foiz stavkasi	0,03	0,13
6. Davlat byudjetiga nominal soliq tushumlari (mln.dol.da)	260	260

Hisoblang:

- Mamlakatda davlat qarzlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha foiz to‘lovlarining nominal miqdori qanday?
- Har bir mamlakatda byudjet defitsitining rasmiy bahosi qanday?
- Har qaysi mamlakatda davlat qarzining nominal va real qiymati qanday (yil oxirida)?

2-masala

Resurslar to‘liq band bo‘lgan iqtisodiyotda hukumat davlat xarajatlarini 15 mlrd. so‘mga oshirishga qaror qildi. Daromadlarning muvozanatli darajasi 500 mlrd. so‘m, iste'molga

chegaraviy moyillik 0,75, davlat byudjetiga sof soliq tushumlari avtonom, ya'ni daromadlar darajasiga bog'liq emas. Ortiqcha yalpi taklifni yuzaga keltirmaslik va baholar darajasining barqarorligini saqlab turish uchun byudjetga soliq tushumlarini qanchaga ko'paytirish lozim?

3-masala

Real daromadning darajasi $Y = 4000$, iste'molga bo'lgan me'yoriy moyillik $MPC = 0,8$, potentsial daromad $Y^* = 4200$. Mamlakat iqtisodiyoti to'la bandlik sharoitidagi daromadga erishishi uchun hukumat soliq tushumlarini qanshaga o'zgartirishi kerak.

4-masala

2000 yilda YaIM – 2300, xususiy investitsiyalar – 200 ni tashkil etgan. 2001 yilda bu ko'rsatkichlar muvofiq tarzda 2550 va 250 tashkil etdi. Avtonom soliqlar 120, davlat xarajatlari – 100 ga teng. Iqtisodiyotda haqiqiy ishsizlik tabiiy ishsizlik darajasidan 2% yuqori, YaIMning davriy ishsizlikka ta'sirchanlik koeffitsiyenti 3 ga teng. Avtonom xarajatlar, muvozanatli va potentsial YaIM, inflyatsion (retsession) farq, shuningdek farqni bartaraf etish uchun davlat xarajatlarini qanchalik o'zgartirish kerakligini aniqlang.

Vaziyatli topshiriq

Bank tizimi va bozorni tartibga solish.

Topshirikda bozor iqtisodiyotini boshkaruvchi markaziy organlar - moliya vazirligi va davlat bank tizimi – faoliyati modellashtirilgan. Solik siyosatini utkazish maksadida va mexanizmi, diskont stavkalarining uzgarishi, bank rezervlari me'yori, markaziy bankning bozordagi operatsiyalari kurib utiladi. «Laffer egri chizigi» konuniyatlari va bank «marji»lari shakllanishi jarayonlari kursatilgan.

Topshirik sharti

Davlatning kishlok xujalik korxonlari ishlab chikarish va daromadi xajmiga ta'sir imitatsiya kilingan.

Ukuv guraxi 4 kismga bulinadi: a) markaziy bank (MB), b) moliya vazirligi (MV), v) xususiy tijorat banklari boshkaruvchilari (TB), g) bugdoy yetishtiruvchi fermerlar uyushmasi (F).

Xar bir gurux uyin davomida uz vazifasini bajardi, lekin xar bir gurux imitatsiyalashtirilgan xolatni va boshka guruxlar xarakati ma'nosini tushuntirishi kerak. Shartlar kuyidagicha.

Bugdoy yetishtirish buyicha mamlakatda shunday xolat vujudga kelganki, uning mavjud ishlab chikarish xajmlari bu maxsulotning sezilarli ortib kolishiga olib kelishi mumkin (jaxon bozori, eksport va import ta'siri uyinda xisobga olinmaydi). Bu sharoitda davlat ishlab chikarishni kamaytirish tadbirini kullaydi. Bugdoy yillik extiyojlarini aniklab. Davlat MV orkali F daromadiga belgilangan solikni oshirish yuli bilan bu tarmokka xususiy kuyilmalarni kamytiradi. Lekin solikni xaddan tashkari oshirish mumkin emas, uning chegaraviy darajasi foydadan 50% mikdorda olindi. Ammo bu, MV xisoblariga kura, investitsiyalarni tuxtatish uchun yetarli darajada emas.

Shuning uchun, solik orkali ta'sir kursatish uslubiga kushimcha ravishda kredit uslubu xam kullanadi. MB tijorat banklaridan ortikcha kredit resurslarini iste'moldan chikarish banklaridan ortikcha kredit resurslarini iste'moldan chikarish niyatida obligatsiyalar chikaradi. Shu bilan birga MB xususiy banklarga beriladigan kreditga tulanadigan xisob protsent stavkalarini oshiradi. Uz navbatida, TB kishlok xujaligi uchun kredit protsenti darajasini oshirishga majbur. TB dan katta mikdorda kredit olishni muljallagan F, protsent stavkalari oshgandan sung, bankdan olinadigan karzni cheklab kuyadilar. Xamma kullangan tadbirlar kishlok xujaligiga kuyilmalarni davlat organlari xisobiga olgan, ortikcha ishlab chikarishning

oldini oladigan va don bozorida talab va taklif muvozanatini tiklashga olib keladigan darajaga kamaytiradi.

Topshirik tartibi shundan iborat. Anik xisoblar uchun katnashchilar quyidagi ma'lumotlarni xisobga olishlari kerak. Yil davomida kutiladigan bugdoyga talab – 10 mln. tonna, 1 t. bugdoy urtacha narxi – 2,5 ming sum. Tarmokda foyda normasi – 10%. Foydaga solik – 40%. Davlat organlari ma'lumotiga kura, fermrlar 15 mln.t bugdoy yetishtirish imkoniyatiga ega. Xullas, mumkin bulgan ishlab chikarish xajmini 1,5 marotabaga kamaytirishni ragbatlantirish kerak. Bunday xolatda xar bir guruxning xarakati kanday?

Moliya vazirligi.

Foyda normasi 10% (R/K-0,1) va bir tonna bugdoy narxi (N – R - K) 2,2 ming sumligini xisobga olgan xolda 15 mln. t. ishlab chikarish sharoitida foyda R1 va investitsion resurslar K1 (kapital) mikdorini xisoblang.

Xuddi shunday mikdorlarni R1 va K2 ishlab chikarish 10 mln.t. bulganda xisoblang. Bu xisob bozorni muvozanat xolatga keltirish uchun kapital mablaglar kanchaga kamayishi kerakligini kursatadi. Bu mikdorni aniklang: K1-K2 – ortikcha kapital kuyilmalar.

Amaldagi foydaga solik darajasi 40% MV xisoblariga kura solikni 2% ga kutarish kapital kuyilmalarni 2% ga kamayishiga olib keladi. Lekin solik darajasini % 50 dan oshirish mumkin emas, chunki bu uta keskin xolda investitsiyalarni kamytirishi va tadbirkorlikni sundirishi mumkin. MV solikni 40% dan 50% gacha oshirganda investitsiyalar kancha mikdorgacha kamyishini xisoblang. Bu kapital kuyilmalar (K3) xajmi kerakli bulgan K2 dan ortikmi? Ortik balsa, K3 va K2 ni MB ga yetkazing. Keyingi xarajatlar MB tomonidan amalga oshiriladi.

40% solik stavkasi va 15 mln.t. ishlab chikarish xajmi bulgan xolda va 50% solik stavkasi va 10 mln.t ishlab chikarish xajmi bulgan xollarda byudjetga tushishi mumkin bulgan soliklar mikdorini xisoblang.

Nima uchun solik stavkalari yukori bulganda byudjetga tushadigan mablag oshmay, aksincha kamayishi sababini tushuntirib bering.

Markaziy bank

MB MV dan solik ta'siri natijasida KB va F dan kolgan kapital resurslarni (K3) va bozor muvozanatiga erishish uchun kerakli bulgan kapital kuyilmalar xajmi (K2) tugrisidagi ma'lumotlarni oladi.

MB KB lardagi ma'lumotlarni suraydi: a) KB tizimida kancha bush pul vositalari borligi (uni D1 bilan ifodalaymiz); b) F bankdan olishni muljallagan kredit xajmi kanchaligi (uni D1 bilan ifodalaymiz); b) F bankdan olishni muljallagan kredit xajmi kanchaligi (uni D2 bilan ifolaymiz).

F da kancha uz xususiy kapital resurslari (XK) borligini xisoblang. XK-K3-D2.

MB uz xarajatlari natijasida, birinchidan, TB dagi kredit resurslari mikdorini kamaytirishi va ikkinchidan, fermerlar (umuman ishlab chikaruvchilar), tomonidan kredit omilini kiyinlashtirish kerak. Buning uchun MB yukori protsentli obligatsiyalar chikaradi. Ularni TB sotib oladi, chunki bu ularga foydali. Davlat obligatsiyalariga kapital kuyish, ishlab chikarishga kuyishga nisbatan kup foyda beradi. Buning natijasida TB fermerlarga kredit sifatida bershi mumkin bulgan pul mikdori kamayadi. Lekin obligatsiyalar mikdori 4 mlrd. sumdan oshmasligi kerak, bulmasa davlatga obligatsiyalar buyicha protsent tulash kiyin bulib koladi. TB da kancha pul kolishini xisoblang

(D3-D1-4) mlrd.sum).

Bu bank kredit resurslarning kamayishi F kapital kuyilmalari XK va D3 jamiyat uchun zarur investitsiyalar xajmidan ortik bulmasligini ta'minlash yetarlimi? Agar XK-D3 yigindisi K2 dan kup bulsa, unda kredit olishni kiyinlashtirish tadbirlarini kullash lozim.

MB xususiy banklarga beradigan kredit uchun tulanadigan xisob stavkasi protsentini oshiradi. Bunday xolatda TB xam F ga berilgan kredit % ni oshirishlari kerak bulmasa ular xonavayron buladilar. Kuyidagi shartni kabul kilamiz: a) MB-TB kredit xisob stavkasining 1 protsentli usishi TB-F kredit stavkasining 1 protsentga oshiradi; b) bank xisoblash shuni kursatadiki, TB-F kredit protsenti 1% ga oshganda, F bankdan oladigan karzlarni 2,5 mld sumga kamaytirishadi.

Xususiy banklar TB-F krediti protsenti XK-D3 ning K2 dar ortik mikdordagi F oladigan karzni kamaytirish uchun kanchaga oshishi kerakligini xisoblang.

MB-TB kreditlari buyicha xisob stavkalari (X1) 60%, TB-F kredit buyicha protsent (P1)-7%. X2 va P2- markaziy va xususiy banklar stavkalari oshirilgandan keyin kancha buladi?

Shunday kilib, kredit uslublari yordamida ishlab chikaruvchilardagi kapital massasi kamayadi va buning okibatida ishlab chikarish xajmi kamyadi.

Tijorat banklari

TB umumiy kapitali xajmi 21,4 mlrd. sumni tashkil etadi. Lekin uning bir kismini TB markaziy bankda rezerv sifatida saklashlari zarur. MB bu xissani kapitalning 1/10 mikdorida belgilangan.

TB bush pul vositalarini xisoblang – D1. bu mikdorni MB ga yetkazing.

F sizni kredit olish uchun t murojaat etish. Kanday mablagni ular talab etishiyapti? Bu rakamni (D2) MB ga yetkazing.

MB 4 mlrd. sumga obligatsiyalar chikaradi. Ular buyicha protsent, siz beradigan kredit buyicha protsentdan yukori bulganligi uchun, ya'ni obligatsiyalar kup foyda keltirishi uchun ularni sotib olasiz. Bu xariddan sung TB da kancha pul koladiganligini xisoblang (D3). D3-D1-4mlrd.sum

MB TB ga beradigan kredit uchun xisob stavkasi protsentini (X) oshiradi. Oshish mikdorini protsentini (P) oshirishi kerak. X ning xar bir protsentli oshishiga banklar P ning bir protsentli oshishi bilan javob berishadi. Agar P1-7% va X1 6% bulganda, P2 protsent stavkasini xisoblang.

F sizdan talab etgan kreditni D4 mikdorgacha kamaytirishga majbur. TB bu mikdorni yangi P2 stavkasi buyicha berishadi. Ishlab chikaruvchilarning sizning kreditingiz buyicha protsent tulangandan keyin pul olishingizni xisoblang.

Fermerlar

F 15 mln.t. bugdoy yetishtirishni muljallagan. Buning uchun kancha kapital K1 kerakligini va undan kancha foyda R1 olishingizni xisoblang. Bu xisoblarda foyda normasi 10% (R/K-0,1) va 1t. bugdoy narxi N-R-K-1,2 ming.sum ekanligidan foydalaning.

MB foydaga belgilangan solikni oshiradi. Avval F foydadan 40% byudjetga tulgan bulsa, endi 50% tulaydi. Bu sharoitda siz kapital kuyilmalarni kamaytirishga majbursiz. Agar solikning 2% kamytiradigan bulsa, yangi kapital kuyilmalar (K3) mikdorini aniklang.

Kerakli bulgan kapital resurslari mikdorini (K3) aniklang va uni sizda mavjud bulgan uz xususiy kapitalingiz (XK-7 mlrd. sum) bilan takkoslang. Agar XK K3 dan kam bulsa, F kommertsiya banklaridan karz olishlari kerak. Bu talab etiladigan mablagni (D2) aniklang. (D2-K3-XK). Sizga kerak bulgan kredit (D2) mikdorini KB ga yetkazing.

TB obligatsiyalar sotib olishganligi sababli kredit resurslari kamaygan va ular sizga kancha kredit D3 berishlari mumkinligini xabar kiladilar. Siz bu kredit xajmining xammasini

Tabiiy va haqiqiy ishsizlik darajasini hisoblang. Ouken qonunidan foydalanib, agar potensial YaIM 4 mlrd. pul birligini tashkil etgan bo'lsa, YaIMning uzilishini aniqlang.

3-masala

Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan: aholining umumiy soni 650 kishi, mehnatga layoqatli bo'lmagan yoshdagi aholi soni 140, ishsizlar soni 19, ishchi bilan band aholi soni 380 bo'lsa ishsizlik darajasini toping.

4-masala

Aholi soni 200 mln kishi. Ish bilan bandlar soni 112 mln. kishi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 160 mln. kishi, friksion ishsizlar 6 mln. kishi, tarkibiy ishsizlar 2 mln. kishi, davriy ishsizlar esa 5 mln. kishini tashkil etgan. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 4 %ga yuqori. Potensial YaIM 2500 shartli birlikka teng. YaIMning siklik ishsizlik dinamikasiga ta'sirchanlik koeffitsienti 2,5.

Topilsin:

a) ishsizlikning haqiqiy darajasi;

b) haqiqiy YaIM hajmi.

16-mavzu. Tarmoqning iqtisodiy rivojlanishini prognozlash

Topshiriqlar

1-masala.

Iqtisodiyot 3 sektordan tashkil topagan deb tasavvur qilsak R_1 -qishloq xo'jaligi, R_2 -sanoat, R_3 -transport sektorlaridan, quyida berilgan ma'lumotlar asosida balansni to'ldiring.

Тармоқлар	P_1	P_2	P_3	Σ	Y	X
P_1	20	50			200	300
P_2	10	-	40			500
P_3	-				240	
Σ				310		
V		390				
X						

2-masala.

Quyida berilgan ma'lumotlar asosida:

1. a_{ij} ni toping
2. balansning tanglamalar sistemasini tuzing
3. $Y = (10, 20)$ vektori orqali X vektor kordinatalarini toping
4. $X=(50,100)$ bo'lsa, Y vektor kordinatalarini toping

	P_1	P_2	Σ	Y	X
P_1	5	12	17	23	40
P_2	6	12	18	32	50

3-masala.

Agar to'g'ridan-to'g'ri material xarajatlari koeffitsiyenti, mehnat sarfi koeffitsiyenti va yakuniy mahsulot vektori berilgan holda kadrlarga bo'lgan talab topilsin.

$$A = \begin{pmatrix} 0,0 & 0,2 & 0,1 \\ 0,3 & 0,0 & 0,1 \\ 0,2 & 0,1 & 0,0 \end{pmatrix}, \quad f = \begin{pmatrix} 10 \\ 20 \\ 30 \end{pmatrix}, \quad Y = \begin{pmatrix} 200 \\ 100 \\ 200 \end{pmatrix}$$

4-masala.

Soluning iqtisodiy o'sish modelida ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega: $y = 0.64\sqrt{k}$ Kapitalning chiqib ketish normasi 5%, aholi soni yiliga 1 %ga ko'payadi. Texnologik taraqqiyot sur'ati 2 %. U holda "oltin qoida"ga mos keluvchi jamg'arish normasi miqdorini toping.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Асосий адабиётлар

1. Michael Wickens. Macroeconomic Theory: A Dynamic General Equilibrium Approach. Princeton and Oxford Copyright 2008 by Princeton University Press.

2. Andrew B. Abel, Ben S. Bernanke, Dean Croushore, Macroeconomics Sixth edition. Copyright 2008 Pearson Education, Inc.

3. Абдуллаев А.М., Абдурахманов О.К., Зокирова Н.К. Прогнозирование и моделирование национальной экономики. Учебник. Т.: Фан ва технология, 2010. –575 стр.

4. Абдуллаев А.М., Ирматов М.М., Ҳайдаров М.Т., Ашурова Д.С. Иқтисодий ва ижтимоий ривожланишни прогнозлаштириш. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006. – 249 б.

5. Махмудов Н.М., Асқарова М.Т., Умаров И.Ю. Макроиқтисодий таҳлил ва прогнозлаш. Дарслик. Т.: “Фан ва технологиялар”, 2014 – 338 б.

Қўшимча адабиётлар

6. Ш.М. Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. -56 б.

7. Ш.М. Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик- ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -104 б.

8. Ш.М. Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -48 б.

9. Ш.М. Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -488 б.

10. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон, 2014.– 46 б.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

12. Ҳайдаров М.Т., Ашурова Д.С. Иқтисодий ва ижтимоий ривожланишни прогнозлаштириш. О’қув қўлланма-Т.:ТДИУ, 2007 йил – 180 б.

13. Статистический ежегодник регионов Узбекистана. 2014. – Т.: Госкомстат Узбекистана. 2015. - 130 стр.

Электрон журналлар

14. Journal of Economic Growth www.link.springer.com

15. Journal of Development Economics www.sciencedirect.com
16. Journal of Macroeconomics www.journals.elsevier.com/journal-of-macroeconomics
17. Environment and Development Economics www.journals.cambridge.org
18. Italian Science Review www.ias-journal.org
19. Проблемы Прогнозирования www.ecfor.ru
20. Инновации и инвестиции www.innovazia.ucoz.ru
21. Проблемы современной экономики www.m-economy.ru
22. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. Илмий-электрон журнал. www.iqtisodiyot.uz
23. Молия ва банк иши www.bfajournals.uz

Интернет сайтлари

24. [http:// www.gov.uz](http://www.gov.uz)
25. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz)
26. [http://www.mineconomy.uz.](http://www.mineconomy.uz)
27. <http://www.mf.uz>
28. <http://www.stat.uz>
29. <http://www.soliq.uz>
30. <http://www.cbu.uz>
31. [http://www.wordbank.org.](http://www.wordbank.org)
32. [http://www.ebrd.org.](http://www.ebrd.org)
33. <http://www.imf.org>

TALABANING SEMESTR DAVOMIDAGI MUSTAQIL TA`LIMIGA OID TOPSHIRIQLAR

MUSTAQIL TA`LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor

yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishni ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-4848. 05.10.2016 y.

3. Prezident Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali ma‘rosimdagi ma‘ruzasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar.

4. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o‘ynaydi?

5. Iste‘mol va jamg‘arma funktsiyalarining grafikdagi tasvirini chizib, ularga shartli raqamlar qo‘llagan holda tushuntiring.

6. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi? Ularning qisqacha tavsifini bering.

7. Jamg‘arma va investitsiya o‘rtasidagi muvozanatning keynscha modelining mohiyatini hamda klassik modeldan farqini tushuntirib bering.

8. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o‘shish tushunchalarining ta‘rifini bering hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko‘rsating.

9. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishining samaradorligiga baho berishda iqtisodiy o‘shishning qanday ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi?

10. Milliy iqtisodiyotning muvozanat darajasiga erishishda xususiy mutanosibliklarning roli qanday?

11. Makroiqtisodiy masalalar tahlili va ularning ijrosi

12. Milliy daromad va unga ta‘sir etuvchi omillar

13. Bozor infrastrukturasi va strukturasi.

14. Iqtisodiy o‘shish

15. Milliy hisoblar tizimining asosiy agregatlari va o‘zaro bog‘liqligi

16. Inflyatsiyaga qarshi makroiqtisodiy siyosat

17. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammolari

18. Umumiy makroiqtisodiy muvozanat.

19. Davlat transfertlari va daromadlari tahlili.

20. Davlat daromadlari tahlili.

21. Pul bozori va undagi muammolar.

22. Kapital bozori va uning shakllanish yo‘nalishlari.

23. Institutsional islohotlar va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta‘siri

24. Davlatning investitsiya siyosati tahlili

25. Mamlakat iqtisodiyotida tuzilmaviy siljishlar muammolari
26. Prognozlashtirishning ekstrapolyatsiya usuli.
27. Pul-depozit banklarining O'zbekistondagi holati.
28. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda bank xizmatlari sifati va ularning o'zaro aloqadorligi.
29. Matematik modellashtirish usullarini iqtisodiyotda qo'llash
30. Tarmoqlararo dinamik balans modeli.
31. Makroiqtisodiy prognozlashtirish modellari.
32. Real sektorga investitsiyalar va ularning tahlili.
33. Ilmiy-texnikaviy potentsialni prognozlash.
34. Sanoat siyosati va uning rivojlanishining real sektorga ta'siri.
35. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank sektori va moliya tizimining barqarorligini ta'minlash yo'llari.
36. Agrosanoat majmuasi potentsiali.
37. Ijtimoiy rivojlanish potentsiali.
38. O'zbekistonda ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasi holatini prognozlashtirish.
39. Aholining daromadlari va ularning tarkibiy tuzilishi tahlili.
40. Iqtisodiy o'sishni prognozlashtirish.

**MUSTAQIL TA`LIMNI BAHOLASH
BO`YICHA USLUBIY KO`RSATMA**

KIRISH

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fani bo‘yicha tayyorlangan mazkur uslubiy ko‘rsatma O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) konunariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida" qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. 2001 y., 15-16-son, 104-modda), O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan topshiriqqa muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son buyrug‘i bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro‘yxatidan qayta o‘tkazilgan nizomga, 2009 yil 26 maydagi 160-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat asttestatsiyasi to‘g‘risida”gi nizom, 2009 yil 14 avgustda 286-sonli buyruq bilan tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha Yo‘riqnomasi”, O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligining 2013 yil 13 dekabrda 470-sonli “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i, TDIU rektorining 2016 yil 22 iyuldagi “Universitetda reyting tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 207-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida Nizom” ga muvofiq hamda 2017-2018 o‘quv yili uchun tasdiqlangan “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fanining ishchi o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan. “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo‘yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko‘rsatma bakalavriyat bosqichi 200000–“Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq” bilim sohasining 230000 “Iqtisod” ta'lim sohasi barcha ta'lim yo‘nalishlari 3-kurs talabalarining mazkur fandan mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholashda asosiy me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Mustaqil ish talabalarining mazkur fan bo‘yicha mustaqil faolligi hamda o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi professor-o‘qituvchilarning nazorati asosida tashkil etilib, o‘quv rejada semestrlar bo‘yicha belgilangan soatlar hajmiga ko‘ra amalga oshiriladi. Xususan, 5230100 “Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)” ta'lim yo‘nalishi uchun “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fani bo‘yicha 3 kurs 5-6 semestrida, o‘quv soatlarining umumiy hajmi o‘quv rejada 258 soat, shu jumladan shundan 74 soat ma’ruza va 74 soat seminar mashg‘ulotiga, mustaqil ta'limga 96 soat miqdorida belgilangan.

Mazkur uslubiy ko‘rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo‘yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

1. Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fani bo‘yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda iqtisodiy bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi. U ishchi o‘quv rejasi va fanning ishchi dasturida ko‘zda tutilgan zarur bilimlar va ko‘nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi.

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fanini mustaqil ishni bajarish asosida o‘qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini yanada rivojlantirish yo‘nalishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o‘qish, o‘rganish, ko‘nikma va layoqatlari shakllanadi.

Talabaniq mustaqil ishi – muayyan fandan ishchi o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma‘lum bir qismini talaba tomonidan fan professor-o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishni bajarishdan asosiy maqsad – professor-o‘qituvchilarning bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o‘rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda shu asosda universitetda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

TDIU rektorining 2016 yil 22 iyuldagi “Universitetda reyting tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 207-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida Nizom” talablariga muvofiq talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

- auditoriyada amalga oshiriladigan ishlari, o‘tilgan mavzuni qaytarish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

- auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan ishlari, o‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o‘zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish, ijodiy va ilmiy tadqiqot xarakteridagi ishlar va h.k.

Birinchi turdagi ishlar talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o‘zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg‘ulotlarga (amaliyot, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, referat, esse kabi topshiriqlarni bajartirish va boshqa usullarda asosan amaliyot darslarida nazorat (joriy nazoratda) qilinadi.

Joriy nazoratda talabaning mashg‘ulotlar paytida o‘tilgan materiallarni o‘zlashtirish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o‘zlashtirish darajasi e‘tiborga olinadi.

Ikkinchi turdagi ishlar fanning ishchi o‘quv dasturida auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirishi uchun belgilangan mavzu bo‘yicha ma‘lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o‘zlashtirish, ijodiy yondashuvni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o‘zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgilangan maslahat soatlarida amalga oshiriladi. Professor-o‘qituvchi jurnalida talabalarning mustaqil ishlari jurnalning tegishli betlarida qayd etiladi.

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fani bo‘yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida talabalarning akademik o‘zlashtirish

darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakl va turlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

№	Mustaqil ishlarning shakllari	Mustaqil ishlarning turlari
1.	Reproduktiv shakldagi mustaqil ishlar	<p>fanning ayrim mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash va konspekt qilish; O‘zbekiston Resublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Resublikasi Prezidentining asarlari va ma‘ruzalarini, Prezident qarorlari, farmonlari, Vazirlar Makhkamasi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy hujjatlarni mustaqil o‘rganish va konspektlashtirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma‘ruzalarni video hamda audio orqali ko‘rish, eshitish va konspekt qilish; - multimedia vositalari orqali slaydlar, video materiallarni ko‘rish, eshitish va o‘zlashtirish; - o‘quv materiallarini qaytarish, yod olish va boshqalar.
2.	Anglash-izlanish (qidi-rish) shaklidagi mustaqil ishlar	<p>mustaqil ravishda axborotlar, ko‘rgazmali vositalarni tayyorlash, ma‘ruzalar va boshqa materiallarni o‘rganish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - hisob-kitob va analitik ishlarni bajarish, testlar yechish; - seminar, amaliy va boshqa mashg‘ulotlarda ma‘ruzalar bilan chiqishlar qilish; - uy ishlari, nazorat ishlari, taqdimotlar, referatlar, keys-stadilar va boshqalarni bajarish.
3.	Ijodiy ish shaklidagi mustaqil ishlar	<p>esse, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari tayyorlash va himoya qilish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish va ilmiy hisobotlar tayyorlashda qatnashish; - talabalarning ilmiy to‘garaklarida ishtirok etish; - ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish, ilmiy maqolalar tayyorlash hamda chop ettirish.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrda–semestrda ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga muvofiq ravishda o‘zgarib, oshib borishi lozim. Ya‘ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o‘rganib borishi kerak.

Talabalarning mustaqil ishi ta‘lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo‘ysundirilganki, semestr davomida o‘quv jarayoni to‘laligicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o‘zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta‘lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Quyida ularning mazmuniga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Mavzuni mustaqil o‘zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib

berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar va axborot manbalari ko'rsatilishi lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, kerakli adabiyotlarni topa olmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) fanning professor-o'qituvchisidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn professor-o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

Referat tayyorlash – mazkur fan bo'yicha o'tiladigan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqori bo'lib, shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini tashkil etish va boshqarishni o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

Referat - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida fan bo'yicha mashg'ulot olib boruvchi kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda professor-o'qituvchi tomonidan talabalarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi rol o'ynaydi. Topshiriq talabalarning referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

Referat tarkibiy jihatdan titul, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topadi.

Kirish qismida talaba referat mavzusining dolzarbligi, uni yoritishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar hamda referatda ochib beriladigan savollarni qisqacha yoritadi.

Asosiy qismda mavzuni ochib berishga xizmat qiladigan savollar (paragraflarni) rejada keltirilgan ketma-ketlikda, talabaning o'z mustaqil mushohadasi va fikrlariga tayangan holda, adabiyotlardan olingan ilmiy va nazariy materiallar (ularga havola keltirilgan holda), turli statistik va operativ ma'lumotlar (ularning manbalari ko'rsatilgan holda) asosida batafsil yoritiladi.

Xulosa va tavsiyalar qismida talaba o'z mustaqil yondoshuvi va ijodiy fikrlashini namoyon etishi hamda qisqa satrlarda mavzuni yoritish jarayonida olingan xulosalari va tavsiyalarini tartib bilan rejada keltirilgan ketma-ketlikda ifodalashi lozim.

Keys-stadilar (muammoli vaziyatlar tahlili) tayyorlash. Keys usuli (ingl. Case method - keys-usuli, keys-stadi) aniq bir vaziyat yoki muammoli holat tahlili sifatida ta'lim berish hamda o'rganish texnikasini ifodalaydi. Keys-stadi usulida iqtisodiy, ijtimoiy yoki biznes sohasida yuzaga kelgan aniq muammolar, vaziyatli holatlar batafsil yoritiladi hamda ularni hal etish bo'yicha xulosalar, yechimlar va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu usulda talabalar biror-bir firma yoki kompaniyada biznes bilan bog'liq yuzaga kelgan muammo yoki vaziyatni mufassal o'rganib, tahlil etishlari hamda bu vaziyatni bartaraf etishning turli muqobil variantlarini ishlab chiqishlari va ulardan eng optimal bitta yechimni tanlab olishlari talab qilinadi.

Keyslar asosan real voqealar va vaziyatlarga asoslangan bo'lishi hamda ishlab chiqarish amaliyotidan olingan bo'lishi maqsadga muvofiq. Professor-o'qituvchi keysni yechish jarayonida talabalarni biznes bilan bog'liq bo'lgan muammolar va vaziyatli holatlar yechimlarini

topishga, eng optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda alternativ (muqobil) tanlov sharoitida qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiradi.

Tayyorlangan keyslarning muvaffaqiyati quyidagi uchta mezonlarga mos kelishiga bog'liq:

1. Boshlang'ich ma'lumotlar bazasining (operativ, statistik, buxgalteriya, reja, moliyaviy va boshqa.) yetarli hajmda ekanligi.
2. Keyslarni ishlab chiqishda amaliyotdan mutaxassislarining ishtirok etishi.
3. Muammoning yechimini izlab topishda tahlilning turli usullarini qo'llashga imkon beruvchi beqiyos biznes vaziyati yoki muammoli holatning mavjudligi.

Keys-stadilarni adabiyotlar, jurnal va gazetalarda e'lon qilingan biznesga oid vaziyatlar, maqolalar va ma'lumotlar asosida tayyorlash ham mumkin. Ammo, biro-bir firmaning real hayotidan olingan va real vaziyatlarga asoslangan keyslar qimmatli bo'lib, talaba keysni yozish jarayonida firmaga borib, u yerdagi mutaxassislar va menejerlar bilan muloqot o'tkazishi hamda firma hisobotlaridan foydalanishi juda muhimdir.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida bajariladigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu professor-o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda professor-o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Talabalarining ilmiy-nazariy konferentsiyalari - ular mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferentsiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kasbiy yo'naltirilganligini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarining konferentsiyani o'tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta'minlanadi. Talabalarining ilmiy-amaliy konferentsiyalarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich – o'qitilayotgan fan bo'yicha barcha o'quv guruhlarida konferentsiyalarni o'tkazish;

2-bosqich – har bir guruhdan tanlab olingan talabalarining eng yaxshi ma'ruzalarini fakul'tet va fakul'tetlararo konferentsiyaga taqdim etish hamda o'tkazish;

3-bosqich – fakul'tetlararo konferentsiyada tanlab olingan eng yaxshi ma'ruzalarni umumuniversitet ilmiy-nazariy konferentsiyasiga taqdim etish.

Barcha guruhlar uchun yagona bo'lgan konferentsiya mavzusini tasdiqlab, talabalarining ma'ruza va chiqishlarini guruhlarining qiziqishlariga qarab ixtisoslashtirish mumkin.

Ilmiy maqolalar, tezislari va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga

tegishli bo'lgan materiallar to'playdi va bular asosida ilmiy maqola hamda ma'ruza tezislari tayyorlaydi.

Bitiruv malakaviy ishi tayyorlash. Bitiruv malakaviy ishi-oliy o'quv yurtlaridagi uzluksiz ta'limning bakalavriat yo'nalishida talabalarni o'qitishning yakuniy bosqichidir. Bitiruv malakaviy ishida talabaning oliy o'quv yurtida o'qish davomida to'plagan barcha nazariy va amaliy bilimlari yuzaga chiqadi, talabaning nazariy bilimlar bilan qurollanish darajasi, uning olgan bilimlari va ko'nikmalarini ilmiy-ishlab chiqarish vazifalarini yechishga qay darajada qo'llay olishi namoyon bo'ladi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish talabadan universitetda olgan nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishni talab etadi, talabaning o'qish davomida olgan bilimlarini umumlashtirishga, chuqurlashtirishga va mustahkamlashga, ularni amaliyotga qo'llashga imkon beradi.

Talabalarining bitiruv malakaviy ishlarini bajarish tartibi 5230100 "Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)" bakalavriat ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari uchun ishlab chiqilgan "Bitiruv malakaviy ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma" (TDIU "Makroiqtisodiyoti" kafedrasining 2017 yil 4 iyuldagi 45-sonli bayonnomasi bilan tavsiya etilgan) asosida amalga oshiriladi.

2. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish" bo'yicha yo'riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2. Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:

- talabaning o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;
- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasiga;
- mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan o'zgarib borishiga;
- mustaqil ish fan xususiyati hamda talabaning akademik o'zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

3. Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;

- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

4. Talabalar mustaqil ishi mavzulari va mazmuni, ularni bajarish shakllari

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fani bo'yicha talabalarning mustaqil ish mavzulari va mazmuni, ularni bajarish shakllari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

№	Mavzular	soat
5-семестр		
1.	“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fanining mazmuni, vazifalari va predmeti	4
2.	Makroiqtisodiy tahlilning uslubiyoti va usullari	6
3.	Makroiqtisodiy taxlil va prognozlashning axborot ta'minoti	6
4.	Real sektorning makroiqtisodiy tahlili	6
5.	To'lov balansining iqtisodiy tahlili	8
6.	Byudjet-soliq sektorining makroiqtisodiy tahlili	8
7.	Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili	8
8.	Ishsizlik va inflyatsiya darajasining iqtisodiy tahlili	8
9.	Makroiqtisodiy prognozlashning mohiyati, predmeti va ob'ekti	4
10.	Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlash usullari	6
11.	Makroiqtisodiy prognozlash modellari	8
12.	Iqtisodiy o'sishni prognozlash	6
13.	Ilmiy-texnik taraqqiyotni prognozlash	8
14.	Ijtimoiy jarayonlar va aholi turmush darajasining o'sishini prognozlash	6
15.	Demografik jarayonlarni prognozlash	8
16.	Tarmoqning iqtisodiy rivojlanishini prognozlash	8
	Jami	108

5. Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi. Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi fanning kalendarъ-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi. Maslahat darsi tegishli fanning professor-o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

Fanning professor-o'qituvchisi maslahat darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- talabalar mustaqil ishlari topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi.
- topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- talabalar mustaqil ishlari yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar o'quv jarayonining tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida amalga oshiriladigan dars jadvaliga kiritiladi.

6. Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish, baholash tartibi va mezonlari

Mustaqil ishlarning bajarilishi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug‘i bilan amalga kiritilgan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida Nizom” va O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2013 yil 13 dekabrda 470-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘iga asosan joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va ularga ajratilgan tegishli ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” fani bo‘yicha talabalar mustaqil ishlarini joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali nazorat qilish hamda baholash tavsiya etiladi:

GLOSSARIYLAR

Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Autocorrelation	Автокорреляция	Avtokorrelyatsiya	vaqtli qatorlarning keyingi va oldingi hadlari o`rtasidagi korrelyatsion bog`lanish hisoblanadi
Amortizing	Амортизация	Amortizatsiya	bu investitsiyalarning sof va yalpi hajmini farqlash uchun qo`llaniladi, ba`zan esa amortizatsiya deb asosiy kapital iste`moliga aytiladi
Employment policy	Политика занятости	Bandlik siyosati	bu jamiyat va uning har bir a`zosining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta`sir etuvchi chora tadbirlar yig`indisidir.
Hypothesis	Гипотеза	Gipoteza	umumiy nazariya dairasidagi ilmiy bashoratni tavsiflaydi
Income method	Метод доходов	Daromadlar usuli	bu YAIMni rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan barcha daromadlar summasiga teng deb ham hisoblash mumkin
Reserve	Запас	Zaxira	bu faqat muayyan vaqtda o`lchanadigan va muayyan sana (masalan, yilning boshi yoki oxiri) holatiga ko`ra ob`ektning holatini tavsiflovchi o`zgaruvchan.
Import inflation	Импорт инфляция	Import inflyatsiyasi	bunda tashqi omillar ta`sir qilib, mamlakatga chet el valyutasining haddan tashqari oqib kelishi va import tovarlarining bahosi oshishi tufayli yuzaga keladi
Net investment	Чистые инвестиции	Investitsiyalar sof hajmi	bu investitsiyalar yalpi hajmidan amortizatsiya hajmining ayirmasiga teng.
Inflation	Инфляция	Inflyatsiya	iqtisodiyotdagi narxlar umumiy darajasining barqaror va doimiy ravishda oshishiga aytiladi
Consumer price index	Индекс потребительских цен	Iste`mol narxlari indeksi	o`rta darajali iste`molchi tomonidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar representativ savati narxlarining o`shishini o`lchaydi.
Credit inflation	Инфляция кредитов	Kredit inflyatsiyasi	ortiqcha kredit ekspansiyasi tufayli yuzaga keladi
Value added	Добавленный стоимость	Qo`shilgan qiymat	bu oraliq iste`mol qiymati chegirma qilingan ishlab chiqarish yalpi hajmining qiymati.
Macroeconomic forecasting	Макроэкономическое	Makroiqtisodiy prognozlash	iqtisodiy hodisalarni bilishning ilmiy usullariga va iqtisodiy prognostikaning

	прогнозирование		usullari, vositalari va uslublari yig`indisidan foydalanishga asoslangan makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi
The balance of labor resources	Баланс трудовых ресурсов	Mehnat resurslari balansi	mehnat resurslari mavjudligini hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlari va iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha taqsimlanishini tavsiflovchi ko`rsatkichlar tizimi
The system of accounts national	Система национальных счётов	Milliy hisoblar tizimi	muayyan davrda real ishlab chiqarish hajmini va barcha asosiy sektorlar va ishlab chiqarish omillarining mamlakatning umumiy ishlab chiqarishiga qo`shgan hissasini ko`rsatuvchi turli faoliyat turlarini hisobga oluvchi statistika tizimi
Model	Модель	Model	so`zi lotincha "modulus" so`zidan kelib chiqib, o`lcham, namuna deb anglatadi
Financial operations	Финансовые операции	Moliyaviy operatsiyalar	bu moliyaviy aktivlar va majburiyatlar darajalaridagi o`zgarishlar (misol uchun, qaytaril-magan ssudaning asosiy summasini to`lash majburiyatlarning qisqarishini o`zida namoyon etadi)
Nominal indices	Номинальные показатели	Nominal ko`rsatkichlar	joriy davr narxlarida o`lchanadigan ko`rsatkichlardir
Forecast	Прогноз	Prognoz	kelajakda ob`ektning ehtimol holatlari, muqobil yo`llari va ularni amalga oshirish muddatlari to`g`risida ilmiy asoslangan fikr-mulohazalarning miqdori tushuniladi
monetary sector	Денежный сектор	Pul sektori	iqtisodiyotni moliyaviy xizmatlar bilan ta`minovchi sektordir
Actual results	Реальные показатели	Real ko`rsatkichlar	bu bazaviy davr narxlarida o`lchanadigan ko`rsatkichlardir
Live streams	Реальные потоки	Real oqimlar	bu tovarlar va xizmatlar bilan amalga oshiriladigan (import, eksport, etkazib berish) operatsiyalar mahsuli
Real sector	Реальный сектор	Real sektor	bu tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni iste`mol qilish amalga oshiriladigan sektor. Real sektorning asosiy sub`ektlari bo`lib uy xo`jaliklari va korxonalar hisoblanadi
Plan	План	Reja	bu bajarilishi shart bo`lgan, bir ma`noli direktiv hujjat
Net exports	Чистый экспорт	Sof eksport	import bilan eksport o`rtasidagi farq
Net external assets	Чистые внешние активы	Sof tashqi aktivlar	tashqi passivlar chegirma qilingan holda tashqi aktivlarga teng
Net factor income	Чистый факторный	Sof faktoriy daromad	bu rezidentlarning mulki bo`lib, chet elda turgan ishlab chiqarish omillaridan

	доход		foydalanishdan olingan daromadlar bilan norezidentlarga ushbu mamlakatda o`zla-riga qarashli chiqarish omillaridan foyda-langalik uchun to`lovlar o`rtasidagi farq
Offer Inflation	Инфляция приложения	Taklif inflyatsiyasi	bunda baholarning o`shishiga sabab sifatida garchi resurslardan to`laligicha foydalanilmagan bo`lsada ishlab chiqarish xarajatlarini oshishini keltirish
Demand inflation	Инфляция спроса	Talab inflyatsiyasi	bu ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to`la kondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketishi
Disposable national income	Располагаемый национальный доход	Tasarrufdagi yalpi milliy daromad	bu Rezidentlar yakuniy iste`mol qilish yoki mablag`lar jamg`arish maqsadida tasarruf etishi mumkin bo`lgan umumiy daromad
External economic forecasts	Внешно-экономические прогнозы	Tashqi iqtisodiy prognozlar	jahon iqtisodiyoti, mamlakatimizning kapital va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan o`zaro iqtisodiy aloqalari, tashqi savdo va xalqaro bozor kon`ukturasi shakllanishining umumiy tendentsiyalarini qamrab oladi
Transfers	Трансферты	Transfertlar	shunday to`lovlar jumlasiga kiradiki, ularni amalga oshirishda hech qanaqa almashish yuz bermaydi va hech qanaqa majburiyatlar yuzaga kelmaydi
Trend	Тренд	Trend	bu iqtisodiy ko`rsatkichlar o`zgarishining uzoq muddatli tendentsiyasi
Balance of payments	Платёжный баланс	To`lov balansi	bu norezidentlarga amalga oshirilgan to`lovlar va ulardan tushgan tushumlar qayd etildi
Inflation of costs	Инфляция издержек	Xarajatlar inflyatsiyasi	bunda ishlab, chiqarish omillari bahosi oshganda ishlab chiqarish xarajatlari ham oshadi va natijada ishlab chiqarishlgan mahsulot narxi ham oshadi
Expenditure approach	Метод расходов	Xarajatlar usuli	bu Mazkur usulni qo`llashda YAIM undan yakuniy foydalanish moddalarining yig`indisi bo`yicha hisoblab chiqiladi
Net current transfers from abroad attracted	Чистые текущие трансферты привлечённые из зарубежа	Chet eldan olingan sof joriy transfertlar	chet elga o`tkazilgan joriy transfertlar chegirma qilingan holda norezidentlar tomonidan olingan va ishlab chiqarish omillari hisobiga kelib tushgan daromad bilan bog`liq bo`lmagan joriy transfertlarga teng